

L.Bazarova, N.Suyundikov,
D.Xudoyqulova

**LOTIN TILI
VA FARMATSEVTIK
TERMINOLOGIYA
ASOSLARI**

Toshkent – 2020

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**L.X.BAZAROVA, N.S.SUYUNDIKOV,
D.K. XUDOYQULOVA**

**LOTIN TILI VA
FARMATSEVTIK
TERMINOLOGIYA
ASOSLARI**

Farmatsevtika instituti talabalari uchun darslik

**Toshkent
«Tafakkur avlodi»
2020**

UO‘K: 811.124’373.46+615.1(075.8)

KBK: 81.2lotin

B 21

Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari /
darslik: L.X.Bazarova, N.S.Suyundikov, D.K.Xudoyqulova:
«Tafakkur avlodi» nashriyoti, 2020-yil. – 360 bet.

Mazkur darslik farmatsevtika instituti talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, amaldagi o‘quv dasturi asosida tuzilgan.

Darslikning asosiy vazifasi talabalarga lotin tili va farmatsevtika terminologiyasi (atamashunosligi) asoslarini o‘rgatishdan iboratdir.

“Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari” fani farmatsiya sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Lotin tili bo‘yicha egallangan terminologiya asoslari yuqori kurslarda keyinroq o‘qitiladigan mutaxassislik fanlarida chuqurlashtiriladi, kengayadi va boyib boradi.

Darslikdan tibbiyot kolleji farmatsevtika bo‘limi talabalari ham foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

Ya.S.Kariyeva,

*Toshkent farmatsevtika instituti Dori turlari texnologiyasi kafedrasii
f.f.d. dotsent*

M.T.Toshxonov

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari Universiteti dotsenti, ped.f.n.

UO‘K: 811.124’373.46+615.1(075.8)

KBK: 81.2lotin

ISBN: 978-9943-6690-6-2



© L.X.Bazarova va boshq.
© «Tafakkur avlodi» nashriyoti, 2020

SO‘Z BOSHI

Mazkur darslik farmatsevtika instituti talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, amaldagi o‘quv dasturi asosida tuzilgan.

Darslikning asosiy vazifasi talabalarga lotin tili va farmatsevtika terminologiyasi (atamashunosligi) asoslarini o‘rgatishdan iboratdir.

“Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari” fani farmatsiya sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Lotin tili bo‘yicha egallangan terminologiya asoslari yuqori kurslarda keyinroq o‘qitiladigan mutaxassislik fanlarida chuqurlashtiriladi, kengayadi va boyib boradi.

Darslik I kurs talabalariga “Lotin tili va farmatsevtik terminologiya asoslari” fanini o‘qishlari va o‘zlashtirishlari uchun yetarlicha materiallar bilan ta‘minlangan.

Darslik 36 ta darsni va lotincha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-lotincha lug‘atni o‘z ichiga oladi. Har bir darsga 5-12 tadan fonetika, grammatika va leksikaga oid mashqlar va tarjima qilish uchun retseptlar berilgan. Grammatik mavzular farmatsevtik terminologiyani o‘rgatish jarayonida zarur bo‘lgan materiallarning o‘tilishi ketma-ketligida tanlab olingan.

Darslikning uyga vazifa qismida talabalar darsda o‘zlashtirgan fonetik, grammatik va leksik materiallarni mustaqil ravishda takrorlaydilar, berilgan savollar va mashqlar yordamida o‘zlashtirilgan bilimlarini tekshirib ko‘radilar.

Darslikda Vatanni, o‘qishni, mehnatni va do‘stlikni qadrlovchi maqollar berilgan. Bu maqollar talabalarning insoniylik fazilatlarini shakllantirishga, ularning tafakkuri, xotirasi va nutqini o‘stirishga yordam beradi.

Ushbu darslikni yaratish jarayonida mamlakatimizda va chet ellarda nashr etilgan darslik va qo‘llanmalardan, farmatsiyaga oid adabiyotlardan foydalanildi.

Darslikdan tibbiyot kolleji farmatsevtika bo‘limi talabalari ham foydalanishlari mumkin.

FARMATSEVTIK TERMINOLOGIYA ASOSLARI

Farmatsevtik terminologiya – farmatsiya bilan bogʻliq boʻlgan barcha fanlarga oid alohida terminologik tizimlardan iboratdir.

Terminologiya – bu kasb va fanni tashkil qiluvchi muhim qismlardan biridir. Bu haqida Lavuaz'ye oʻzining «Kimyo toʻgʻrisida asosiy fikrlar» nomli asarida: «Fanni terminologiyadan, terminologiyani fandan ajratib boʻlmaydi, chunki har bir tabiiy fan uchta narsa: uning mazmunini tashkil qiladigan bir qator faktlar, u keltirib chiqaruvchi tasavvurlar va ushbu tasavvurlar ifodalangan terminlardan iborat» deb juda aniq qilib koʻrsatgan.

Asosiy farmatsevtik terminologiya deganda, umumiy terminologik masalalardan tashqari, farmatsevtik terminologiyaning ayrim boʻlimlari botanik, kimyo, farmakologik va boshqa nomlarga tegishli boʻlgan maxsus masalalarni ham tushunish lozim. Farmatsevtik terminologiyaga dorivor vositalar nomlarini yaratishda foydalaniladigan soʻz yasovchi qoʻshimchalarni oʻrganish ham kiradi. Farmatsevtik terminologiyadagi nomlanishlar bilan umumiy ravishda tanishib chiqamiz.

Qadimgi yunoncha soʻz *pharmakon* (farmakon) dori, damlama, sehrli ichimlik, zahar, ogʻuni bildirgan.

Farmak (o) – yoki *farmas* – oʻzagidan hosil boʻlgan barcha soʻzlar dorishunoslik, dorivor vositalarni ishlab chiqarish va qoʻllashga taalluqli ekanligini bildiradi. Masalan, «farmatsiya» (yunoncha *pharmakeia* – dorilarni tayyorlash, qoʻllash) termini dorivor vositalarni ixtiro qilish, tayyorlash, standartlash, tekshirish, saqlash va berish, shuningdek farmatsevtika xizmatini boshqarish, tashkil qilish va iqtisodi bilan boʻgʻliq boʻlgan amaliy faoliyat va ilmiy bilimlar sohasini anglatadi. Ushbu sohada ishlayotgan va maxsus oʻrta hamda oliy farmatsevtik ma'lumotga ega boʻlgan barcha mutaxassislar farmatsevt (yunoncha *pharmakeutes* – dori, sehrli damlamani tayyorlaydigan va uni qoʻllaydigan shaxs) kasbiga egadir.

Zamonaviy farmatsiya ilmiy fanlar majmuasiga asoslanadi, ular orasida eng yetakchilari farmakognoziya, farmatsevtik kimyo, farmatsevtik texnologiya, biotexnologiya, farmakologiya

va boshqalardir. Ushbu majmuani tashkil qiluvchi fanlar terminologiyasi o'zaro singib ketadi, bir-biri bilan tizimlararo aloqalarni yaratadi va farmatsevtik terminologiya deb nomlanuvchi terminologik majmuani hosil qiladi.

Lotin tilini amaliy va ilmiy vazifalar uchun an'anaviy ravishda qo'llash ham farmatsiyaning, ham butun tibbiyotning e'tiborga loyiq xususiyatlaridan biridir. Farmatsevtik terminologiyada nomenklatura nomlari ustun o'rinni egallaydi.

Termin – bu umumiy tushunchalarning nomi, ya'ni bir xil narsalar, hodisalar, jarayonlarlar sinfining jiddiy belgilari aks etayotgan tushunchalari nomidir (masalan, dorivor vositalar, dori shakllari, antibiotiklar, alkaloid, glikozid, narkoz va ko'pgina minglab boshqa terminlar).

O'simliklarning turi, navi, oilasi va boshqa ma'lumotlari bo'yicha tasnifi Xalqaro botanika nomenklaturasida (nomenklatura – nomlanish) lotin tilida keltirilgan. Nomlarning berilish va qo'llanish qoidalari – Xalqaro botanika nomenklaturasi kodeksi tomonidan boshqariladi. Kodeksga muvofiq, xalqaro universallikka rioya qilish uchun, ilmiy nomlar bitta alifboning harflari bilan va bitta tilda yozilishi lozim. Barcha ilmiy nomlar lotin alifbosining harflari bilan yozilishi va lotin grammatikasining qoidalariga bo'ysunishi kerak.

Bo'lg'usi farmatsevt o'simliklar to'g'risidagi ikkita fanni botanika (yunoncha *botane* – o't, o'simlik) va farmakognoziya (yunoncha – *pharmakon+logos* – bilim, ma'lumot)ni o'rganishi lozim. Botanika o'simliklarning tuzilishi(morfologiya va anatomiya)ni, farmatsiyaning asosiy fanlari majmuasiga kiruvchi farmakognoziya esa – dorivor o'simliklarning xomashyosi, uning birlamchi qayta ishlangan mahsulotlari va dorivor o'simlik xomashyosidan yangi dori preparatlarini yaratish imkoniyatlarini o'rganadi. Lotin tilidagi farmakognostik terminologiya – o'simlik a'zolari, o'simlik yoki hayvon mahsulotlari, shuningdek o'simliklarning xalqaro ilmiy nomlarini o'z ichiga oladi.

Farmatsevtik kimyo farmatsevtik fanlar orasida markaziy o'rinni egallaydi. U farmatsevtik fanlar o'rtasida o'ziga xos bog'lovchi bo'g'indir. Farmatsevtik kimyo dorivor moddalarning

kimyoviy va fizikaviy xususiyatlarini o'rganadi. Odatda, kimyoviy dorivor vositalarning nomlari Sof va amaliy kimyo Xalqaro kengashi tomonidan ishlab chiqilgan umumiy prinsiplar bilan boshqariladi. Odatda ushbu ilmiy atamalar tuzilishi jihatidan uzun va murakkab bo'lganligi sababli, dorivor vositalarning yaratuvchilari qisqaroq nomlarni beradi, ushbu nomlarda kimyoviy tuzilishi, yoki farmakologik ta'siri, yoki har ikkala belgilari aks etadi. Kimyoviy dorivor vositalarning nomlari ham lotin, ham milliy tilda beriladi. **Masalan:** Acidum nicotinicum – nikotin kislotasi, Kalii bromidum – kaliy bromid, Natrii thiosulfas – natriy tiosulfat, Cupri sulfas – mis sulfat, Spiritus aethylicus – etil spirti, Hexamethylentetraminum – geksametilentetramin, Trimecainum – trimekain, Riboflavinum-riboflavin, Furosemidum-furosemid, Phenazepanium-fenazepam va boshqalar.

Farmakologiya dorivor vositalarning va biologik faol moddalarning odam organizmi va hayvonlarga ta'sir ko'rsatishini o'rganadigan fandi. Bu fanni o'zlashtirib olishda talabalar dorilarning lotincha va o'zbekcha nomlarini yaxshi o'zlashtirib olishlari kerak. Farmakologiyani o'rganishda reseptlarni lotin tilida yozib berish amaliyoti o'zlashtiriladi. Farmakoterapiya (*farmacon+therapeia* – davolash) jarayonida dorivor vositalarning organizmga ta'sir qilish xususiyatiga ko'ra dorivor vositalar farmakoterapevtik guruhlar bo'yicha tasniflanadi.

Masalan: anestetiklar (og'riq qoldiruvchilar), androgenlar (erkak jinsiy gormonlar preparatlari), antikoagulyantlar (qon ivishiga qarshi), gipertenziv preparatlar (qon bosimini tushiruvchi) va h.k. Shunday qilib, farmakologiya tibbiyot va farmatsiyani tushunish uchun muhim bo'lgan terminlar va minglab nomenklatura nomlarini qo'llaydi. Ularning tuzilishida yunoncha va lotincha so'zlar va so'z yasovchi qo'shimchalar sezilarli o'rin tutadi.

Farmatsevtik texnologiya kursida dori tayyorlashning nazariy asoslari va usullarini o'rganishda talabalar doimo dori shakllari va galen preparatlarining (tabuletae-tabletka, solutions-eritmalar, tincturae-nastoykalar va boshqalar) lotincha nomlaridan foydalanishlariga to'g'ri keladi. Bo'lg'usi texnolog lotin tilida yozilgan

retseptni o'qiy olishi va tushunishi hamda dorivor preparatni tayyorlay olishi lozim. Dorixona muassasasida ishlaydigan farmatsevt zamonaviy dorivor vositalar zaxirasi to'g'risidagi barcha zarur ma'lumotlarni bilishi, tegishli davlat organlari tomonidan ruxsat berilgan dorivor vositalarning doimo yangilanib turadigan ulkan ro'yxatidan xabardor bo'lishi shart. Bu degani, iste'molchilar og'zaki ravishda yoki retsept bilan dorixonaga murojaat qilishi bo'yicha turli dorivor vositalarning nomlariga ishi tushadi. Dorixonalarda (yunon. apotheke-ombor, saqlanadigan joy) nafaqat retseptlar bo'yicha yoki retseptsiz dorilar tayyorlanadi va beriladi, balki farmakoterapevtik samara, nomi turlicha bo'lib, ta'siri bir xil bo'lgan preparatlarni almashtirish imkoniyati to'g'risidagi ma'lumotlar beriladi. Ushbu mas'ul vazifani bajarish uchun farmatsevt davolash masalalari bo'yicha zarur ma'lumotlarga ega bo'lishi va tegishli ravishda umumiy tibbiy terminologiyadan xabardor bo'lishi lozim.

Tibbiy-biologik terminlarning katta qismi kasalliklarning yuzaga kelishi va rivojlanishi, alohida patologik jarayonlar va holatlarni o'rganuvchi fan – patologiya (yunon. *pathos* – aziyat, kasallik) terminologiyasiga taalluqlidir. Patologiya terminlarining katta qismi yunon-lotin tilidan kelib chiqqan. Zamonaviy farmatsiya va tibbiyot bakteriyalar, zamburug'lar, bir hujayrali hayvonlar, viruslar, ya'ni mikroblar tuzilishi, biologiyasi, ekologiyasini o'rganuvchi fan – mikrobiologiya ma'lumotlariga murojaat qiladi. Ushbu mikroorganizmlarga bo'lgan qiziqish ikkita yo'nalishda – biotexnologik va farmakoterapevtik yo'nalishda rivojlanadi. Biotexnologiya (yunon. *Bios* – hayot, *techne* – san'at, *logos* – fan) tirik organizmlarda kechayotgan biologik jarayonlarni o'rganish asosida inson uchun zarur bo'lgan qimmatli mahsulotlar, shu jumladan dorivor vositalarni olish uchun ushbu jarayonlarni, shuningdek bioob'ektlarning (bakteriyalar, viruslar, zamburug'lar va boshqalar) o'zidan foydalanuvchi bilimlar sohasidir. Tibbiy biotexnologiya bioob'ektlar va ularning qayta faoliyati mahsulotlaridan foydalangan holda profilaktik, diagnostik va dori preparatlarni yaratish bilan shug'ullanadi. Bunga

birinchi navbatda antibiotiklar, vaksinalar, vitaminlar, gormonlar, qon preparatlari va boshqalarni yaratish va ishlab chiqarish kiradi.

Bo'lajak farmatsevtga mikrobiologiya kursini o'rganish vaqtida, ilmiy adabiyotni o'qishda mikroob nomlari bilan to'qnashishga to'g'ri keladi. Ushbu nomlar tasdiqlangan klassifikatsiyaga muvofiq «Bakteriyalar nomenklaturasining xalqaro kodeksi» bilan boshqariladi. Mazkur nomenklaturaga kiritilgan nomlar lotin tilida xalqaro qo'llanish uchun ruxsat berilgan. *Masalan:* *Escherichia coli* – ichak tayoqchasi, Enterobacteriaceae oilasi (ichak bakteriyalari).

Dunyo tillarining internatsional lug'at fondida, shu jumladan o'zbek tilida latinizmlar katta o'rin egallaydi: institut, fakultet, rektor, dekan, professor, dotsent, laborant, dissertant, audotoriya, kredit, kurs, prokuror, kongres, yurist, konservatoriya, valeriana, monument, repetitsiya, repetitor, observatoriya, progress va boshqalar.

LOTIN TILINING QISQACHA TARIXI

Lotin tili Hind-Yevropa tillar oilasining italyan guruhiga taalluqlidir. Qadim zamonlarda Italiya hududidagi Appenin yarim oroli Latsiya viloyatida yashovchi lotin qabilasi bu tilda soʻzlashgan. Bu qabila bosqinchilik urushlari bilan butun Yevropa, Afrikaning shimoliy qismi va Oʻrta yer dengizi atrofidagi yerlarni bosib olgan va u yerlarda yashovchi qabilalarga lotin tilini davlat tili deb qabul qilishga majbur qilgan. Latsiya viloyatining poytaxti Rim shahri boʻlib, miloddan avvalgi I asrga kelib, u Rim saltanatiga aylangan. Rim saltanati kengayib borgani sari, lotin tili uning hukmron tiliga aylanib borgan.

Rim saltanati tomonidan Yunoniston (miloddan avvalgi 146-yillarda) bosib olingandan soʻng, yunon tili lotin tiliga sezilarli taʼsir koʻrsatgan. Chunki Yunonistonda madaniyat yuksak darajada tashkil topgan. Yunonlar bilan boʻlgan aloqaning boshlanishidayoq rimliklar Yunonistonning yuqori darajada rivojlangan madaniyatining ulkan taʼsirini sezganlar.

Miloddan avvalgi V asrda Afinada Yevropa tibbiyoti “otasi” Buqrot (Gippokrat) yashagan va ijod qilgan. U oʻz asarlarida ilk bor ilmiy tibbiy atamalarini yozgan. Buqrot oʻzining asarlarida qoʻllagan atamalarning katta qismi xalqaro tibbiy lugʻatga kiritilgan. Buqrotdan soʻng qadimgi yunon tilidagi tibbiy atamashunoslikning shakllanishida Aleksandriya tibbiyot maktabidan (miloddan avvalgi IV asr) Gerofil, Erozistrat (taxm. miloddan avvalgi 330–240-yillar), keyinroq Ruf Efesskiy (taxm. miloddan avvalgi I asr) va olim, faylasuf, vrach, anatom, farmatsevt Klavdiy Galen (taxm. miloddan avvalgi 129-yillar) eng koʻp hissa qoʻshganlar. Ular Buqrot bilan birga ilmiy tibbiy atamashunoslikka asos solganlar.

Davrlar mobaynida lotin tiliga juda koʻplab yunoncha soʻzlar kirib keldi.

Oʻz negizini saqlagan holda lotinlashgan yunon atamalari asta-sekin xalqaro miqyosda tan olindi. Yunon yozuvi taʼsirida lotin alifbosi 2 harfga koʻpaydi (y – ipsilon va z – zet).

Eramizning 395-yillarida Rim imperiyasining G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'linishi yunon tilining faoliyatini kengayishiga olib keldi.

Eramizning V asriga kelib, Rim saltanati inqirozga uchraydi va uning o'rniga hozirgi Ispaniya, Fransiya, Italiya va shunga o'xshash boshqa davlatlar yuzaga keldi.

Roman tillarining (italyan, ispan, fransuz, portugal) rivojlanish davri IX asrga to'g'ri keladi. Roman tillariga asos vazifasini og'zaki lotin tili bajardi.

O'sha davrda adabiy lotin tili "kitobiy" til sifatida o'z vazifasini davom ettirdi.

O'rta asrlar davrida lotin tilida o'qitildi va ilmiy asarlar yaratildi. Qadimgi yunon va arab hakimlarining asarlari lotin tiliga o'girildi.

Buyuk olim Abu Ali ibn Sino (Avitsenna)ning jahonga mashhur "Tib qonunlari" asari XII asrda lotin tiliga o'girilib, XVI asr oxirigacha Evropada tibbiyotni o'qitish uchun asosiy manba sifatida foydalanib kelindi. Evropa mamlakatlarida XVIII asrgacha lotin tili ilm-fan va ma'muriy ishlarda ishlatib kelingan. Lekin XIX asrga kelib lotin tili milliy tillarga o'z o'rnini bo'shatib berdi.

Lotin tili o'lik tilga aylangan bo'lsada, hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Hozirgi kunda tibbiyot, tarix, huquqshunoslik, filologiya va biologiya fanlarida lotin tilidan keng foydalaniladi. Lotin tili xalqaro tibbiyot tili deb tan olingan. Qadimgi yunon va lotin tillarining leksik va so'z yashovchi qo'shimchalari hozirgi kunda ham minglab atamalar yasash uchun xizmat qilmoqda.

FONETIKA

1-DARS

Mavzu: Lotin tili alifbosi. Unli harflar. “y” harfining qo‘llanilishi. Diftonglar. Undosh harflar

1-§. Lotin tili alifbosi

Lotin tili alifbosida 25 ta harf bor.

Bosma harflar	Nomi	O‘zbekcha muqobili	Bosma harflar	Nomi	O‘zbekcha muqobili
A a	a	a	N n	en	n
B b	be	b	O o	o	o
C c	se	s yoki k	P p	pe	p
D d	de	d	Q q	ku	u bilan birga [kv]
E e	e	e	R r	er	r
F f	ef	f	S s	es	s
G g	ge	g	T t	te	t
H h	g‘e	o‘zbekcha g‘ yoki h	U u	u	u
I i	i	i	V v	ve	v
J j	yot	y	X x	iks	ks
K k	ka	k	Y y	ipsilon	i
L l	el	l	Z z	zeta	z yoki s
M m	em	m			

2- §. Unli harflar

Lotin tilida 6 ta unli harf bor.

A a unli harfi [a] deb talaffuz qilinadi:

- amarus [amarus] – achchiq
 ana [ana] – teng miqdorda.
E e unli harfi [e] deb talaffuz qilinadi:
 gemma [gemma] – kurtak
 gelatina [gelatina] – jelatin.
O o unli harfi [o] deb talaffuz qilinadi:
 odor [odor] – hid, is
 os [os]-suyak.
I i unli harfi [i] deb talaffuz qilinadi:
 internus [internus] – ichki
 infans [infans] – bola, go‘dak.
U u unli harfi [u] deb talaffuz qilinadi:
 unus [unus] – bir
 utilis [utilis] – ishlatishga yaroqli.
Y y unli harfi [i] deb talaffuz qilinadi:
 Amygdalus [amigdalus] – bodom
 polyvitamina [polivitamina] – polivitamin.

3-§. «y» harfining qo‘llanilishi

«y» harfi yunon tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlarda old qo‘shimcha, o‘zak va qo‘shimcha sifatida uchrashi mumkin. Shuning uchun quyidagi old qo‘shimcha, o‘zak va qo‘shimchalarni esda saqlash kerak.

hyper – yuqori, ko‘proq; **hypertonia** – qon bosimining ko‘tarilishi

hypo – past, kamroq; **hypotonia** – qon bosimining pasayishi

oxy – taxir;

Oxygenium – kislorod

hydr – suv;

Hydrogenium – vodorod

pyr – issiqlik;

Antipyrinum – antipirin

poly – ko‘p;

polyvitamina – polivitamin

glyc – shirin;

Glycerinum – glitserin

myc – qo‘ziqorin;

Biomycinum – biomitsin.

4-§. Diftonglar

Ikkita turli unli harflarning bir bo'g'in yoki bir harf sifatida talaffuz etilishiga diftong deyiladi.

Lotin tilida 4 ta diftong bor:

«au» diftongi [au] deb o'qiladi.

Masalan: auris [auris] – quloq
auscultare [auskultare] – eshitmoq

«eu» diftongi [eu] deb o'qiladi.

Masalan: Eucommia [eukommia]- evkommiya
Eucalyptus [eukaliptus] – evkalipt

«ae» diftongi [e] deb o'qiladi.

Masalan: aeger [eger] – bemor, kasal
Crataegus [krategus] – do'lana

«oe» diftongi [e] deb o'qiladi.

Masalan: Foeniculum [fenikulum] – ukrop, fexel
oedema [edema] – shish

Agar **ae** va **oe** diftonglarida **e** harfining ustiga ikki nuqta qo'yilgan bo'lsa, u holda har bir harf o'zining alohida tovushini ifoda etadi.

oë [oe] – Aloë [aloe]- aloy, sabur

aë [ae] – aër [aer] – havo.

5-§. Undosh harflar

Bb – harfi [b] deb talaffuz qilinadi: basis – asos, negiz.

Cc – harfi ikki tovush [s] va [k]ni ifoda etadi. Agar **s** harfi **ae,oe** diftonglari, **e, i, y** unli harflari oldida tursa [s] deb o'qiladi.

Masalan: cito [sito] – tez
cera [sera] – mum
cyclus [siklus] – sikl
coeruleus [seruleus] – ko'k

Agar **c** harfi **a, o, u** unililari va undosh harflar oldida yoki so'z oxirida tursa [k] deb o'qiladi.

Masalan: creta [kreta] – bo‘r
carbo [karbo] – ko‘mir
cucurbita [kucurbita] – oshqovoq
lac [lyak] – sut

C → **[s]** agar **ae, oe, e, i, y** dan oldin kelsa
→ **[k]** **a, o, u** unilari va undoshlardan oldin;
so‘z oxirida kelsa

Dd – harfi [d] deb talaffuz qilinadi: da – ber.

Ff – harfi [f] deb talaffuz qilinadi: folium – barg.

Gg – harfi [g] deb talaffuz qilinadi: glandula – bez.

H h – harfi o‘zbekcha [g‘] harfi singari talaffuz qilinadi.

Masalan: herba [g‘erba] – o‘t, yer ustki qismi

homo [g‘omo] – odam, kishi.

J j – harfi **a, o, e, u** unli harflari bilan birgalikda quyidagicha o‘qiladi:

jo [yo] – jocus [yokus] – hazil

ja [ya] – janua [yanua] – eshik

ju [yu] – juniperus [yuniperus] – archa

je [ye] – jecur [yekur] – jigar.

Yunon tilida **j** harfi bo‘lmaganligi sababli yunonchadan o‘tgan so‘zlarda **j** harfi o‘rniga **I, i** harfi yoziladi:

Iodum [iodum] – yod.

Shuning uchun **iod** – o‘zakli murakkab so‘zlar **I** harfi bilan yoziladi. “yod” so‘zining xalqaro kimyoviy belgisi **I**.

Iodolipolum [iodolipolyum] – yodolipol

Iodoformium [iodoformium] – yodoform.

K k – harfi [k] tovushini beradi, lekin bu harf tibbiy lotin tilida kam qo‘llaniladi:

Kalium [kalium] – kaliy

K Keratinum [keratinum] – keratin.

Ll – harfi yumshoq talaffuz qilinadi:

mel [mel] – asal

lac [lyak] – sut.

Mm – harfi [m] deb talaffuz qilinadi: magister – o‘qituvchi.

Nn – harfi [n] deb talaffuz qilinadi: niger – qora.

Pp – harfi [p] deb talaffuz qilinadi: Piper – qalampir.

Rr – harfi [r] deb talaffuz qilinadi: ruber – qizil.

S s – harfi ikki tovushni [z] va [s]ni ifodalaydi. Agar s harfi ikki unli harf o‘rtasida yoki har qanday bir unli bilan m yoki n harflari o‘rtasida kelsa [z] deb, boshqa hollarda [s] deb o‘qiladi.


Masalan: dosis [dozis] – doza

Rosa [roza] – na‘matak

mensis [menzis] – oy

reumatismus [reumatizmus] – revmatizm

Solanum [solanum] – ituzum



Tt – harfi [t] deb talaffuz qilinadi:

tuber [tuber] – tukanak.

Vv – harfi [v] deb talaffuz qilinadi:

vitrum – kichkina shisha idish.

X x – harfi [ks] tovushini beradi:

pix [piks] – smola, qatron

faex [feks] – xamirturush.

Z z – harfi yunonchadan o‘zlashtirilgan so‘zlarda uchraydi va [z] deb talaffuz qilinadi: rhizoma [rizoma] – ildizpoya

Glycyrrhiza[glitsiriza] – qizilmiya, shirinmiya.

Lekin “**zincum**” so‘zida z harfi [s] deb o‘qiladi:

Zincum [sinkum] – rux.

Mashqlar

1. Diftonglarning o‘qilishiga e‘tibor berib so‘zlarni o‘qing.

Aërosolum, auctor, anaemia, oedema, praescribo, Foeniculum, aurum, graecus, saepe, oestrogenus, faex, auris, praeparatum, Crataegus, Eucommia, foetidus, Synoestrolum, aeger, aër.

2. Undosh harflarning o‘qilishiga e‘tibor berib so‘zlarni o‘qing va o‘qilish qoidasini tushuntiring.

Decoctum, acidum, capsula, Glucosum, scatula, briketum, semen, junius, hypnoticus, jam, Ledum, herbaceus, dystonia, hydricus, insolubilis, amurensis.

3. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va c harfining o‘qilishini tushuntiring.

Tinctura, fructus, succus, cella, cera, galenicus, bacca, calor, cito, locus, Capsicum, acidum, officina, coeruleus, Cortisonum, bacillus, medicinalis, medicamentum, caecum.

4. So‘zlarni o‘qing va s harfining o‘qilishini tushuntiring.

Spissus, species, destillatus, dens, statim, morbus, elasticus, dystonia, latus, emulsum, internus, amarus, dysenteria, semen, massa, resina, reumatismus, gargarisma, dosis, spiritus, Cortisonum, Vaselinum.

5. Quyidagi so‘zlarni o‘qing va ularning transkripsiyasini yozing.

Hypermanganas, Streptomycinum, anhydricus, Glycosidum, Amidopyrinum, oxydum, Perhydrolum, hyperaemia, hypothermia, mycosis, antipyreticus, Hydrargyrum, peroxydum.

Uyga vazifa

I. Lotin tili alifbosini yod oling.

II. Unli va undosh harflar, diftonglarning o'qilishini eslab qoling va quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Lotin tili alifbosida nechta harf bor va ular qanday talaffuz qilinadi?

2. Diftong deb nimaga aytiladi?

3. Qanday diftonglarni bilasiz?

4. **c** harfi qanday tovushlarni ifodalaydi?

5. **s** harfi qanday o'qiladi?

6. **j** harfi **a, o, u, e**, unli harflari bilan birgalikda qanday talaffuz etiladi?

7. **h, l, k, x, z** harflarining o'qilish qoidasini ayting.

8. **b, d, f, g, m, n, p, r, t, v** undosh harflari qanday talaffuz etiladi?

9. **y** harfi qaysi so'zlarda uchraydi?

10. **y** harfi bilan uchraydigan old qo'shimcha, o'zak va qo'shimchalarni ayting.

III. Quyidagi so'zlarni o'qing va ularning transkripsiyasini yozing.

Hypericum, acidum, haemostaticus, cito, ossis, praeparatum, plasma, major, oestrogenus, juvenus, lacteus, Glycerinum, extractum, Cuprum, scabies, oleosus, coeruleus, Ledum, graeca, baccae, Vikasolum, Oxygenium, capsula, herba, folium, praeparatum, purus, internus, Antipyrinum, acetum, glucosum, aeger.



2-DARS

Mavzu: Harf birikmalari va qo'sh undoshlarning o'qilishi. Digraflar

6-§. Harf birikmalari va qo'sh undoshlarning o'qilishi

qu – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [kv] deb o'qiladi:

aqua [akva]- suv

Quercus [kverkus] – dub, eman.

ngu – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [ngv] deb o'qiladi:

unguentum [ungventum] – surtma

lingua [lingva] – til.

su – harf birikmasi **a, e** unli harflari oldidan kelganda [sv] deb o'qiladi:

suasor [svazor] – maslahatchi

Qolgan hollarda esa [su] deb o'qiladi:

suillus [suillus] – cho'chqa – i (-si)

ti – harf birikmasi unli harf oldidan kelganda [si] deb o'qiladi:

solutio [solutio] – eritma

injectio [inyeksio] – in'yeksiya

ti – harf birikmasi **x, s** undosh harflaridan keyin kelsa [ti] deb o'qiladi:

mixtio [mikstio] – aralashma

combustio [kombustio] – kuyish

sch – harf birikmasi [sx] deb o'qiladi:

Schizandra [sxizandra] – limonnik.

Lekin lotin tiliga boshqa tillardan o'tgan so'zlarda bu harf birikmasi [sh] deb o'qiladi:

Schostakovsky [shostakovskiy] – Shostakovskiy.

7-§. Digraflar

Digraf deb ikkita undosh harf birikmasining bitta tovush singari talaffuz etilishiga aytiladi. Lotin tilida 4 ta digraf bor. Har bir digrafda **h** harfi mavjud.

ch – digrafi [x] deb talaffuz qilinadi:

Chinum [xininum] – xinin

charta [xarta] – qog‘oz.

ph – digrafi [f] deb talaffuz qilinadi:

pharmacologia [farmakologia] – farmakologiya

Morphinum [morfinum] – morfin.

rh – digrafi [r] deb talaffuz qilinadi:

Rhamnus [ramnus] – tog‘jumrut

rhizoma [rizoma] – ildizpoya.

th – digrafi [t] deb talaffuz qilinadi:

Mentha [menta] – yalpiz

Thermopsis [termopsis] – termopsis.

Eslab qoling!

1. [f] tovushini lotincha so‘zlarda **f** harfi, yunonchadan o‘tgan so‘zlarda **ph** digrafi, [t] tovushini lotincha so‘zlarda **t** harfi, yunonchadan o‘tgan so‘zlarda **th** digrafi, [r] tovushini lotincha so‘zlarda **r** harfi, yunonchadan o‘tgan so‘zlarda **rh** digrafi ifodalaydi.

2. Kimyoviy preparatlar nomlarida qo‘llaniladigan yunoncha so‘z yasovchi qo‘shimchalarning yozilishini eslab qoling:

-meth – (methylum) – metil

-aeth – (aethylum) – etil

-phen – (phenylium) – fenil

-thi (theion) – oltingugurt

-chlo (r) – (chlorum) – xlor.

Mashqlar

1. So'zlarni o'qing va o'qilish qoidalarini tushuntiring.

Charta, Arachis, Rheum, Quercus, aether, diphthericus, lingua, solutio, camphora, Glycyrrhiza, haemostaticus, Norsulfazolum, praecipitatus, cochlear, Chamomilla, Equisetum, Mentha, aqua, axungia, extractum, scatula, mel, unguentum.

2. So'zlarni o'qing va ularning transkripsiyasini yozing.

Althaea, Chlortetracyclinum, therapia, Synoestrolum, rhizoma, Phosphorus, majalis, Terebinthina, Helianthus, coquo, frictio, Ephedra, Schizandra, Kalanchoë, saccharum, Zea mays, Ichthyolum, charta, Thea, rheum, Juglans, Soluthizonum.

3. C harfi [s] tovushini ifodalovchi so'zlarni topib yozing.

Carbo, cytologia, cito, Cucurbita, calor, Citrus, bacca, baccae, decoctum, cera.

4. Quyidagi so'zlarni o'qing va s harfining [z] tovushidek o'qilishini tushuntiring.

Anisum, dosis, usus, Vaselineum, narcosis, mensura, gargarisma, suasor, plasma.

5. Quyidagi so'zlarni o'qing va ularning transkripsiyasini yozing.

Hypermanganas, Streptomycinum, antipyreticus, anhydricus, hypothermia, Perhydrolum, Glycosidum, Amidopyrinum, injectio, decoctum, oxydum, hyperaemia, aquosus, mycosis, medicina, Hydrargyrum, Althaea, Belladonna, Mentholum, peroxydum.

Uyga vazifa

1. Harf birikmalari va digraflarning o'qilishini eslab qoling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. **qu** va **nqu** harf birikmalari qanday o'qiladi?
2. **ti**, **su** harf birikmalari qanday o'qiladi?
3. Digraf deb nimaga aytiladi va qanday digraflarni bilasiz?
4. **sch** harf birikmasi qanday o'qiladi?

5. Yunonchadan o'tgan so'zlarda qaysi digraflar [f], [t], [r] tovushlarini beradi?

II O'qilish qoidalariga e'tibor berib, quyidagi so'zlarni o'qing va ularning transkripsiyasini yozing.

Planta, calor, oedema, lapis, linimentum, Aloës, Juniperus, Convallaria, majalis, Tetracyclinum, camphora, lingua, latina, infusum, Glycerinum, frictio, combustio, rhizoma, Nux, Quercus, Citrus, Salvia, officinalis, Thymus, Naphthalanum, quinque, briketum, unguentum, tabuletta, aeger, Chamomilla, Leuzea, rhus, coeruleus, cyclus, major, extractum, mensura, diphthericus.

III. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Invia est in medicina via sine lingua Latina.

Lotin tilisiz tibbiyotga yo'l yo'q.

2. Mens sana in corpore sano.

Sog'lom tanda – sog' aql.

3-DARS

Mavzu: Soʻzlarning boʻgʻinlarga boʻlinishi.

Boʻgʻinlarning choʻziqlik va qisqalik qoidalari. Urgʻu

8-§. Soʻzlarning boʻgʻinlarga boʻlinishi

Lotin tilida oʻzbek tilidagidek soʻzlar boʻgʻinlarga boʻlinadi. Soʻzda qancha unli harf boʻlsa, shuncha boʻgʻin boʻladi.

Masalan: Cu-cur-bi-ta; Cha-mo-mil-la.

Tovushlar choʻziq va qisqa talaffuz qilinadi. Tovushning choʻziqligi harf ustiga toʻgʻri chiziqcha, qisqaligi esa yarim oy shaklidagi belgi qoʻyib belgilanadi: ā ā, ō ō ē ē.

Tovush va boʻgʻinlarni uzun yoki qisqaligini toʻgʻri aniqlay bilish urgʻuni (') qoʻyish uchun kerak.

Choʻziq unli tovushli boʻgʻin – choʻziq boʻgʻin, qisqa unli tovushli boʻgʻin – qisqa boʻgʻin hisoblanadi.

9-§. Boʻgʻinlarning choʻziqlik va qisqalik qoidalari

Choʻziqlik qoidasi

1. Agar boʻgʻinda diftong boʻlsa, oʻsha boʻgʻin doimo choʻziq boʻladi:

Cratāēgus

2. Agar unli harf ikki yoki undan ortiq undosh harflar oldida kelsa, shu boʻgʻin choʻziq oʻqiladi:

tabulētta

3. x yoki z undosh harflari oldida kelgan unli tovush choʻziq oʻqiladi:

Glycyrrhīza

4. in, ur, at, ar, ut, os, al qoʻshimchali boʻgʻinlar choʻziq oʻqiladi:

vitamīnum, tinctūra, nitrātis, gelatinōsis.

Qisqalik qoidasi

1. Unli harf oldidan unli harf kelsa, bu bo'g'in qisqa o'qiladi:
injectiō
2. Digraflar oldida kelgan unli harf qisqa o'qiladi:
Arāchis
3. **ol, ul, ib, id, il** harf birikmalari bo'lgan bo'g'in qisqa o'qiladi:
fluīdus, pilūla, solubīlis
4. **b, p, d, t**, harflari **r** yoki **l** harflari bilan birikib kelganda bu harf birikmalaridan oldin turgan unli harf qisqa o'qiladi:
Ephēdra, vertēbra
5. **h** harfi oldida kelgan unli qisqa talaffuz qilinadi:
extrāho.

10-§. Urg'u

Lotin tilida urg'u so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'ini cho'ziq bo'lsa, o'sha bo'g'inning unli tovushiga tushadi. Agar so'zning ikkinchi bo'g'ini qisqa bo'lsa, urg'u so'zning oxiridan uchinchi bo'g'indagi unli tovushga tushadi.

ex-trāc-tum
ver-tēb-ra
co-la-tū-ra
pí-lū-la.

Ikki bo'g'inli so'zlarda urg'u hamisha so'zning oxiridan ikkinchi bo'g'iniga tushadi.

cí-to.

Mashqlar

1. So'zlarni bo'g'inlarga bo'ling va urg'u qo'ying.


Emplastrum, cella, barium, mixtio, oleum, Tormentilla, folium, saccharum, Oxycoccus, ampulla, bacterium, intravenosus, solutio, scatula, Foeniculum, pharmacopoea, milligramma,

tinctura, Potentilla, spiritus, Convallaria, extraho, gargarisma, linimentum, decoctum, acidum, medicina, bulbus.

2. Quyidagi so'zlarni urg'u qoidasiga rioya qilib o'qing.

Suppositorium, magister, Ephedra, sirupus, butyrum, Eucommia, Betula, aqua, Frangula, globulus, Oryza, Althaea, injectio, Penicillinum, amyllum, vitaminum, Belladonna, unguentum, tabuletta, aquosus, signatura.

3. Urg'u qoidasiga binoan quyidagi jadvalni to'ldiring.



Uyga vazifa

1. So'zlarning bo'g'inlarga bo'linishi; bo'g'inlarning cho'ziqlik va qisqalik qoidalarini; urg'u qo'yish qoidasini eslab qoling. Quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring:

1. Lotin tilidagi so'zlar bo'g'inlarga qanday bo'linadi?
2. Bo'g'inlarning cho'ziqlik qoidasini ayting.
3. Bo'g'inlarning qisqalik qoidasini ayting.
4. Lotin tilida urg'u qaysi bo'g'inga qo'yiladi?

5. Ikki bo'ginli so'zlarda urgu qaysi bo'ginga qo'yiladi?

II. Quyidagi so'zlarni o'qing!

Scatula, Tetracyclinum, curatio, Aloës, rhus, cyclus, frictio, oculus, Allium, medicamentum, coeruleus, Myrtillus, Chenopodium, aesculus, Oxygenium, Rhamnus, vaccinum, Xeroformium, Sinapis, Absinthium, arborescens, Erythromycinum, Hypericum, Amygdalus, Retinolum, Rosaceae, quartus, Armeniaca, Diplococcus, Gossypium, praeparatum, Streptococcus, Sophora japonica, Foeniculum, Quercus, Bromcamphora, Therebinthina.

III. 2- mashqdagi so'zlarni bo'g'inlarga bo'ling va urg'u qo'ying.

IV. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Patriam amare et defendere debemus.

Vatanimizni sevishimiz va himoya qilishimiz kerak.

2. Vita sine litteris mors est.

Ilmsiz hayot – o'limdir.

MORFOLOGIYA

4-DARS

Mavzu: Soʻz turkumlari. Feʼl. Feʼl negizi. Feʼllarning buyruq mayli

11-§. Soʻz turkumlari

Soʻzlarning maʼno va grammatik jihatdan oʻhshashliklariga koʻra ayrim leksik-grammatik turlarga boʻlinishi natijasida hosil boʻlgan guruhlariga soʻz turkumi deyiladi.

Lotin farmatsevtika atamashunosligida (terminologiyasida) quyidagi soʻz turkumlari ishlatiladi:

1. **substantivum** – ot
2. **adjectivum** –sifat
3. **pronomen** – olmosh
4. **numerales** – son
5. **verbum** – feʼl
6. **adverbium** – ravish
7. **praepositio** – old qoʻshimcha (koʻmakchi)
8. **conjunctio** – bogʻlovchi
9. **interiectio** – undov
10. **particula** – yuklama.

12-§. Feʼl

Predmetning ish-harakatini ifodalovchi soʻz turkumiga feʼl deb ataladi. Lotin tilida feʼl oʻzbek tilidagidek shaxs-son, zamon va mayl bilan tuslanadi.

Lotin tilida feʼllar toʻrtta turda tuslanadi. Noaniq shaklda:

I tuslanishdagi feʼllar – **āre** qoʻshimchasiga ega:

dāre – bermoq

II tuslanishdagi feʼllar choʻziq – **ēre** qoʻshimchasiga ega:

miscēre – aralastirmoq

III tuslanishdagi fe'llar qisqa -**ēre** qo'shimchasiga ega:

solv**ēre** – eritmoq

IV tuslanishdagi fe'llar – **īre** qo'shimchasiga ega:

aud**īre** – eshitmoq.

Lotin tilida fe'llarning ikkita nisbati bor:

genus activum – aniqlik nisbati

genus passivum – majhullik nisbati.

Lotin tilida fe'llar ikkita songa ega:

numerus singularis – birlik son

numerus pluralis – ko'plik son.

Mashq

1. *Quyidagi fe'llarni tuslanishiga ko'ra guruhlarga ajratib yozing.*

Addēre, audīre, miscēre, curāre, extendēre, colāre, finīre, formāre, recipēre, dāre, continēre, vertēre, servāre.

13-§. Fe'ning lug'at shakli

Lug'atda fe'l hozirgi zamon I shaxsda – *o* qo'shimchasi bilan to'liq yoziladi. Keyin fe'l noaniq shaklining oxirgi uchta harfi yoziladi va fe'ning tuslanishi raqam bilan ko'rsatiladi.

Masalan: signo, āre – I tuslanish
misceo, ēre – II tuslanish
divido, ēre – III tuslanish
audio, īre – IV tuslanish

Tuslanish	Hozirgi zamon I shaxs	Fe'ning noaniq shakli
I	signo	signare
II	misceo	miscere
III	recipio	recipere
IV	audio	audire

14-§. Fe'l negizi

Fe'llarning negizini aniqlash uchun I, II, IV tuslanishdagi fe'llarning noaniq shaklidan – re qo'shimchasini, III tuslanishdagi fe'llarning noaniq shaklidan – ěre qo'shimchasini olib tashlash kerak.

Tuslanish	Fe'lining noaniq shakli	Fe'l negizi
I	dare	da
II	miscere	miscē
III	recipere	recip
IV	audire	audi

Mashq

2. Fe'llarning negizini aniqlang.

extenděre, finire, adděre, miscěre, sterilisare, recipěre, studěre, formare, linire, filtrare.

Fe'l	Tuslanish	Negizi
colare	I	cola

15-§. Buyruq mayli

Buyruq mayli *buyurish*, *so'rash* kabi ma'nolarni ifodalab, odatda ikkinchi shaxsga qaratilgan bo'ladi. I, II, IV tuslanishdagi fe'llarning buyruq mayli birlikda fe'l negizidan iborat; III tuslanishdagi fe'lining buyruq maylini hosil qilish uchun fe'l negiziga – e harfi qo'shiladi.

Tuslanish	Fe'lining noaniq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli birlik son
I	dare	da	Да-бep!
II	miscere	miscē	Misce-аралаштир!
III	solvere	solv	Solve – эрит!
IV	audire	audi	Audi – эшит!

Buyruq mayli ko'plik sonini hosil qilish uchun I,II,IV tuslanishdagi fe'llarning negiziga – *te* qo'shimchasini, III tuslanishdagi fe'llar negiziga – *ite* qo'shimchasini qo'shish kerak.

Turlanish	Fe'lning no-aniiq shakli	Fe'l negizi	Buyruq mayli ko'plik soni
I	dare	da	Date- bering!
II	miscere	misce	Miscete-aralashiring!
III	solvere	solv	Solvite – eriting!
IV	audire	audi	Audite- eshiting!

Mashq

3. Quyidagi fe'llarning buyruq maylini hosil qiling.

Destillare, miscere, extendere, finire, formare, recipere, addere, signare.

Namuna:

Fe'l	Tuslanish	Negiz	Buyruq mayli	
			birlik	ko'plik
dare	I	da	da	date

16-§. Quyidagi fe'llarni yod oling!

I tuslanish

dare – bermoq

depurare – tozalamoq

filtrare – suzmoq, tinitmoq

sterilisare – sterilizatsiya qilmoq

colare – suzmoq

formare – tashkil etmoq

destillare – distillyatsiya qilmoq

signare – belgilamoq

servare – saqlamoq

parare – tayyorlamoq

refrigerare – sovitmoq
conservare – saqlamoq
agitare – chayqatmoq

II tuslanish

continere – saqlamoq, tutmoq
miscere – aralashtirmoq
adhibere – qabul qilmoq, ishlatmoq
valere – sog‘ bo‘lmoq
salvere – sog‘ bo‘lmoq

III tuslanish

recipere – olmoq
extendere – surtmoq
addere – qo‘shmoq
solvere – eritmoq
vertere – aylantirmoq, buramoq, o‘girmoq
concidere – kesmoq, qirqmoq
coquere – qaynatmoq
ponere – solmoq, yetkazib qo‘ymoq
sumere – qabul qilmoq, dori ichmoq
repetere – takrorlamoq, qaytalamoq
dividere – bo‘lmoq, ajratmoq
contundere – tuymoq
extrahere – ajratib olmoq
vivere – yashamoq
infundere – quymoq
conspergere – sepmoq

IV tuslanish

finire – tamomlamoq
linire – surtmoq
audire – eshitmoq

Mashqlar

4. *Quyidagi zanjirda berilgan beshta fe`lni toping va ularni o`zbek tilidagi tarjimasining yoniga yozing.*

SIGNARE PETER EXTENDER EXTRAHE
REFRIGERARE

takrorlamoq _____

ajratib olmoq _____

belgilamoq _____

surtmoq _____

sovitmoq _____

5. *Quyidagi harflar orasida berilgan o`n beshta fe`lni toping va o`zbek tiliga tarjima qiling.*

C O L A R E P E T E R E
O A P O N E R E X Z Y F
Q R V E R T E R E O F I
U C O N C I D E R E I N
E X T E N D E R E N M I
R E F R I G E R A R E R
E X T R A H E R E O D E
P A S I G N A R E I S V
A D A R E S U M E R E I
R D E S T I L L A R E V
A E D I V I D E R E D E
R R M I S C E R E T X R
E E D E P U R A R E Q E

6. *Quyidagi so`zlarning antonimlarini toping.*

Dare, miscere, addere, extrahere, coquere.

Uyga vazifa

I. «Fe'l, fe'l negizi va buyruq mayli» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Lotin tilida fe'llar nechta turda tuslanadi?
2. I tuslanishdagi fe'llar qanday qo'shimchaga ega?
3. II tuslanishdagi fe'llar qanday qo'shimchaga ega?
4. III va IV tuslanishdagi fe'llarning qo'shimchalarini ayting.
5. Fe'lning negizini qanday aniqlash mumkin?
6. I, II va IV tuslanishdagi fe'llarning buyruq mayli qanday hosil qilinadi?
7. III tuslanishdagi fe'llarning buyruq mayli qanday hosil qilinadi?
8. Lotin tilida fellarning nechta nisbati bor? Ularning lotincha nomlarini ayting.

II. 16-§ dagi fe'llarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------|--------------------------|
| 1) dare | a) eritmoq |
| 2) sterilisare | b) aralash-tirmoq |
| 3) solvere | c) surtmoq |
| 4) depurare | d) bermoq |
| 5) formare | e) qo'shmoq |
| 6) extendere | f) tashkil etmoq |
| 7) vertere | g) olmoq |
| 8) addere | h) sterilizatsiya qilmoq |
| 9) recipere | i) aylantirmoq, buramoq |
| 10) miscere | j) tozalamoq |

IV. Quyidagi fe'llarning buyruq maylini hosil qiling.
servare, refrigerare, continere, finire.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Enfluran, Trichloroethylenum, Sedex, Aethylii chloridum, Cyclopropane, Hexenalum, Serenex, Narcozep, Halcion, Cyclobarbitalum solubile, Endodorm, Methylhexobarbital, Thiopentalum-natrium, Farmotal, Intraival, Ketamini hydrochloridum, Calsmin, Methindionum, Hipnax, Velonarcon, Methohexital, Propanidide, Sombrevin, Nitrozepam, Nitrenpax, Dormicum, Pacisyn, Phenobarbitalum, Nitrosam, Baclofen, Zolpidem, Flunitrazepam, Myolgin, Nuctanol, Lendormin, Chlorazolam, Bromisovalum, Doxylamine, Hemineurin, Benzonalum, Trimethinum, Ethosuximidum, Puphemidum, Carbamazepine, Acediprolum, Lamotrigine, Felbamate, Chloraconum, Chlorali hydras, Mydocalm, Tizanidine, Aminazinum, Levomepromazine, Metherazinum, Pipotiazine, Thioridazine, Aethaperazinum, Triftazinum, Phthorphenazinum decanoate.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Aliis inserviendo consumor.

O'zgalarga nur berib, o'zim ado bo'laman.

2. Ubi concordia, ibi victoria.

Totuvlik bor joyda g'alaba bor.

5-DARS

Mavzu: Ot. Otlarning grammatik kategoriyalari.

I turlanishdagi otlar

17-§. Ot

Predmet nomini bildirib, *kim?* yoki *nima?* savollariga javob beradigan soʻz turkumiga ot deyiladi.

Lotin tilida otlar uchta rodga ega:

genus masculinum – mujskoy rod

genus femininum – jenskiy rod

genus neutrum – sredniy rod.

Lugʻatda otlar maxsus harflar bilan belgilanadi:

m – mujskoy rod

f – jenskiy rod

n – sredniy rod.

Lotin tilida otlar ikkita songa ega:

numerus singularis – birlik son

numerus pluralis – koʻplik son.

Lotin tilida otlar beshta kelishik boʻyicha turlanadi:

Casus Nominativus – bosh kelishik – kim? nima?

Casus Genetivus – qaratqich kelishigi – kimning? nimaning?

Casus Dativus – joʻnalish kelishigi – kimga? nimaga?

Casus Accusativus – tushum kelishigi – kimni? nimani?

Casus Ablativus – chiqish kelishigi – kimdan? nimadan?

Otlar lotin tilida beshta turlanishga boʻlinadi. Turlanish turi qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**)ning birlik sonidagi qoʻshimchasi yordamida aniqlanadi. Turlanishlarning qaratqich kelishik birlik sonidagi qoʻshimchalarini eslab qoling:

Turlanish	Gen. Sing. qo'shimchalari
I	ae
II	i
III	is
IV	us
V	ei

Otlar turlanishlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

I turlanish	Jenskiy rod		
II turlanish	Mujskoy rod	Sredniy rod	
III turlanish	Mujskoy rod	Jenskiy rod	Sredniy rod
Vturlanish	Mujskoy rod	Sredniy rod	
V turlanish	Jenskiy rod		

Lug'atda otlar bosh kelishik, birlik sonda yoziladi, keyin qaratqich kelishigining birlik qo'shimchasi va rodi ko'rsatiladi:

gutta, ae, f – I turlanishdagi ot
globulus, i, m – II turlanishdagi ot
decoctum, i, n – II turlanishdagi ot
flos, is, m – III turlanishdagi ot
dosis, is, f – III turlanishdagi ot
usus, us, m – IV turlanishdagi ot
res, ei, f – V turlanishdagi ot.

Otlar kelishiklar bo'yicha turlanganda ot negiziga kelishik qo'shimchalari qo'shiladi. Otning negizini topish uchun qaratqich kelishik birlik soni shaklidan kelishik qo'shimchasini olib tashlash kerak:

Turlanish	Nom. Sing.	Gen. Sing.	Negizi
I	gutta	guttae	gutt
II	sirupus	sirupi	sirup
III	liquor	liquoris	liquor
IV	fructus	fructus	fruct
V	species	speciei	speci

Eslab qoling!

Lotin farmatsevtika atamashunosligida dorivor o'simliklar va dori preparatlarining nomi bosh harf bilan yoziladi.

Valeriana, ae, f

Analginum, i, n.

Mashqlar

1. Quyidagi otlarni o'qing va ularni rodini aniqlang.

Papaverinum, n; percolatio, f; hepar, n; fructus, m; Plantago, f; Cina, f; pulvis, m; gemma, f; atrium, n; nota, f; provisor, m; antidotum, n; apis, f; Triticum, n; planta, f; patria, f.

2. Quyidagi otlarning turlanishini va rodini ayting.

decoctum, i, n; charta, ae, f; species, ei, f; numerus, i, m; quercus, us, f; cera, ae, f; folium, i, n; carbo, is, m; cornu, us, n; stigma, is, n.

3. IV turlanishdagi otlarni toping.

- | | |
|--------------------|--------------------|
| 1) aqua, ae, f | 5) gelu, us, n |
| 2) spiritus, us, m | 6) vertebra, ae, f |
| 3) succus, i, m | 7) res, ei, f |
| 4) oleum, i, n | 8) fructus, us, m |

4. Jenskiy roddagi otlarni ko'rsating.

- | | |
|-------------|--------------|
| 1) Oryza, f | 4) sorbus, f |
| 2) os, n | 5) hortus, m |
| 3) manus, f | 6) Salep, n |

5. II turlanishidagi otlarni ko'rsating.

- | | |
|-------------------|------------------|
| 1) globulus, i, m | 4) morbus, i, m |
| 2) habitus, us, m | 5) exitus, us, m |
| 3) sirupus, i, m | 6) succus, i, m |

6. II turlanishdagi sredniy roddagi otlarni ko'rsating.

- | | |
|--------------------|-------------------|
| 1) Magnolia, ae, f | 5) decoctum, i, n |
| 2) Ferrum, i, n | 6) ampulla, ae, f |
| 3) aegrotus, i, m | 7) Secale, is, n |
| 4) cornu, us, n | 8) acidum, i, n |

7. Quyidagi Genetivus Singularisda berilgan otlarni ko'chirib yozing, negizini toping va turlanishini ko'rsating.

Guttae, dosis, infusi, usus, emplastri, decocti, officinae, carbonis, gustus, scabiei.

Namuna:

Gen. Sing.	Negizi	Turlanishi
plantae	plant	I

8. Quyidagi otlarni turlanishlari va rodlari bo'yicha ustunlarga yozing.

Belladonna, ae, f; lodum, i, n; tussis, is, f; herba, ae, f; cutis, is, f; Urtica, ae, f; glacies, ei, f; Linum, i, n; habitus, us, m; Oxycoccus, i, m; charta, ae, f; acus, us, f; remedium, i, n; diagnosis, is, f; acetum, i, n; dies, ei, f; hibes, is, n; species, ei, f.

Namuna:

Turlanishlari bo'yicha

I	II	III	IV	V
herba, ae, f	remedium, i, n	tussis, is, f	habitus, us, m	species, ei, f

Rodlari bo'yicha

mujskoy rod	jenskiy rod	sredniy rod
herba, ae, f	tussis, is, f	remedium, i, n

18-§. I turlanishdagi otlar

I turlanishdagi otlarga bosh kelishik (**Nominativus Singularis**) da **-a**, qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**) da **-ae** qo'shimchasiga ega bo'lgan jenskiy roddagi otlar kiradi.

I turlanishdagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	a	ae
Gen.	ae	arum
Dat.	ae	is
Acc.	am	as
Abl.	a	is

Turlanish namunasi

Casus	Singularis	Pluralis
Nom.	herba	herbae
Gen.	herbae	herbarum
Dat.	herbae	herbis
Acc.	herbam	herbas
Abl.	herba	herbis

19-§. Quyidagi so'zlarni yod oling!

tinctura, ae, f – nastoyka
mixtura, ae, f – mikstura
aqua, ae, f – suv
tabuletta, ae, f – tabletka
herba, ae, f – o't, yer ustki qismi
tela, ae, f – doka
cera, ae, f – mum
pilula, ae, f – habdori
scatula, ae, f – quticha
planta, ae, f – o'simlik
gemma, ae, f – kurtak
massa, ae, f – massa
gutta, ae, f – tomchi

gelatina, ae, f – jelatin
 glandula, ae, f – bez
 materia, ae, f – modda
 vita, ae, f – hayot
 Valeriana, ae, f – valeriana
 Betula, ae, f – qayin
 Tilia, ae, f – jo'ka
 Farfara, ae, f – oqqaldirmoq
 Convallaria, ae, f – marvaridgul
 Senna, ae, f – sano
 Mentha, ae, f – yalpiz
 Chamomilla, ae, f – moychechak
 Belladonna, ae, f – belladonna
 Urtica, ae, f – gazanda, chayono't
 Calendula, ae, f – tirnoqgul
 Armeniaca, ae, f – o'rik daraxti, o'rik

Mashqlar

9. *Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.*

O'simlik, nastoyka, mum, o't, kurtak, bez.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen.Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
aqua- suv	I	f	aquae- suvning	aquae- suvlar	aquarum- suvlarning


10. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|----------------------------|-------------------------|
| 1. Date mixturam aegrotae. | 6. Colligite plantas. |
| 2. Praeparate tincturas. | 7. Depura ceram. |
| 3. Filtra tincturam. | 8. Formate pilulas. |
| 4. Exsiccate gemmas. | 9. Lavate ollas. |
| 5. Sterilise telam. | 10. Da guttas aegrotas. |

11. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Nastoyka tayyorla.
2. Tabletkani ber.
3. Miksturani ber.
4. Yer ustki qismini yig' va qurit.
5. Suvni distillyatsiya qil.
6. Miksturani suzib tindir.
7. Bintga surt.
8. Dokani sterilla.

12. "Ot" mavzusi bo'yicha berilgan klasterni davom ettiring.



Uyga vazifa

I. « So'z turkumlari, ot, otlarning grammatik kategoriyalari va I turlanishdagi otlar» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Ot deb nimaga aytiladi?
2. Lotin tilidagi otlar nechta rodga ega va ular lotincha qanday nomlanadi?

3. Lotin tilidagi otlar nechta kelishik bo'yicha turlanadi?
4. Lotin tilidagi otlar nechta songa bo'linadi?
5. Kelishiklarning lotincha nomlarini ayting.
6. Otlarning turlanishi qanday aniqlanadi?
7. I turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
8. Otlar lug'atda qanday yoziladi?
9. I turlanishdagi otlar **Nominativus Singularis** va **Genetivus Singularis** da qanday qo'shimcalarga ega?

II. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.
yalpiz, mixtura, o'simlik

III. 19-§ dagi so'zlarni yod oling.

IV. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|-----------------|-------------------------|
| 1) aqua | a) kurtak |
| 2) gutta | b) marvaridgul |
| 3) herba | c) habdori |
| 4) cera | d) qayin |
| 5) gemma | e) bez |
| 6) pilula | f) o't, yer ustki qismi |
| 7) Betula | g) mum |
| 8) glandula | h) o'simlik |
| 9) planta | i) tomchi |
| 10) Convallaria | j) suv |

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Chlorprothixene, Zuclopentixol, Haloperidole, Thalamonal, Fluspiriline, Penfluridole, Azaleptinum, Befolum, Carbidinum, Sulpiride, Sibazonum, Nozepamum, Gidazepamum, Alprazolom, Amizylum, Hydroxyzine, Oxyloidinum, Mecicarum, Stressplant,

rhizoma cum radicibus Valerianae, Valocormidum, Phthoracizinum, Cytisinum, Pyracetam, Valosedan, Corvalolum, Valocordin, Dormiplant, Bromcamphora, Pyrazidolum, Tetrindolum, Fluvoxamine, Incazanum, Imipraminum, Amitriptyline, Damileni maleinas, Fluoxetine, Sydnophenum, Lithii carbonas, Lithii oxybutyras, Aminationum, Pantogamum, Picamilonum, Pyriditolum, Acephenum, Memoplant, Coffeinum natrio – benzoicum, Aethimizolum, Bemithylum, Phenaminum, Anabasinum hydrochloridum, Cordiaminum, Sydnocarbium, Sulfocamphocainum, Strychninum.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Amicus certus in re incerta cernitur.

Sodiq do'st og'ir kunda bilinadi.

2. Labor omnia vincit.

Mehnat hamma narsani yengadi.

3. Dulce et decorum est pro patria mori.

Vatan uchun jon bermoq baxt va sharafdir.

6-DARS

Mavzu: Aniqlovchi. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar. Moslashmagan aniqlovchili terminlarni tarjima qilish. Yunon tilidan kirib kelgan I turlanishga kiruvchi otlarning turlanishi. Predlog va bog'lovchilar

20-§. Aniqlovchi

Lotin tilida moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar qo'llaniladi. Moslashgan aniqlovchi sifat bilan ifodalanadi va aniqlanuvchi so'zga rod, son va kelishikda moslashadi. U «*qanday?*» «*qanaqa?*» degan savollarga javob beradi.

oq mum

Moslashmagan aniqlovchi qaratqich kelishigidagi ot bilan ifodalanadi va «*nimaning?*» degan savolga javob beradi.

valeriananing nastoykasi (valeriana nastoykasi)


Farmatsevtik terminologiyada terminlarning ikki asosiy turini ajratish mumkin:

1. moslashgan aniqlovchili termin;
2. moslashmagan aniqlovchili termin.

Terminlarning har bir turiga shartli tasvir tuzish mumkin:

Moslashgan aniqlovchili termin:


qanaqa?



Otni O, sifatni S deb belgilaymiz. terminning shartli tasviri quyidagicha bo'ladi:

O → S (Nom.)

2. Moslashmagan aniqlovchili termin:




Mashq

1. *Quyidagi terminlarning shartli tasvirini tuzib, ularning qanday aniqlovchili atama ekanligini aniqlang.*

Yalpiz suvi, choʻktirilgan oltingugurt, qaytarilgan temir, jelatinli kapsula, isitmani tushiradigan mikstura, amidopirin tabletkasi, qayin kurtagi, moyli emulsiya, suvsiz lanolin, oqqaldirmoq barglari, novokain eritmasi, analgin tabletkasi.

21-§. Moslashmagan aniqlovchili terminlarni tarjima qilish

Termini tarjima qilish uchun avval uning shartli tasvirini tuzamiz.



Shartli tasvirga koʻra, birinchi ot «nastoyka»ni lotin tiliga tarjima qilganda bosh kelishikda, ikkinchi ot «valeriana»ni qaratqich kelishikda yozishimiz kerak.

Tarjima qilamiz:

Nom. tinctura Valerianae

Moslasmagan aniqlovchili terminni kelishiklar bo'yicha turlaganda faqat aniqlanuvchi so'z o'zgarib, moslasmagan, aniqlovchi esa o'zgarimasdan qoladi.

Nom. tinctura Valerianae

Gen. tincturae Valerianae.

Quyidagi moslasmagan aniqlovchilar qaratqich kelishik ko'plik sonda ishlatiladi:

aqua **Amygdalarum** – bodom suvi

massa **pilularum** – habdori massasi

oleum **Olivarum** – zaytun moyi

oleum **Persicorum** – shaftoli moyi (II turlanish).

22 -§. Quyidagi so'zlarni yod oling!

bacca, ae, f – rezavor meva, danaksiz meva

officina, ae, f – dorixona

ampulla, ae, f – ampula

lingua, ae, f – til

capsula, ae, f – kapsula

pasta, ae, f – pasta

spongia, ae, f – gubka

membranulla, ae, f-parda

charta ae, f – qog'oz

substantia, ae, f – modda

Camphora, ae, f – kamfora

Althaea, ae, f – gulxayri

Rubia, ae, f – ro'yan

Glycyrrhiza, ae, f – shirinmiya, qizilmiya

Liquiritia, ae, f – shirinmiya, qizilmiya

Aralia, ae, f – araliya

Sterculia, ae, f – sterkuliya

Salvia, ae, f – mavrak

Tormentilla, ae, f – g'ozpanja

Schizandra, ae, f – limonnik

Sophora, ae, f - tuxumak
Arnica, ae, f - arnika
Ephedra, ae, f - efedra, qizilcha
Gentiana, ae, f - gazako't, erbahosi
Eucommia, ae, f - evkommiya, xitoy guttapercha daraxti
Amygdala, ae, f – bodom
massa pilularum, massae pilularum – habdori massasi

23 -§. Yunon tilidan kirib kelgan I turlanishga kiruvchi otlarning turlanishi

I turlanishga kiruvchi so'zlar ichida yunon tilidan o'tgan ayrim so'zlarni uchratish mumkin. Bu so'zlar jenskiy rodga tegishli bolib, bosh kelishikda *-e*, qaratqich kelishigida *-es* qo'shimchasiga ega bo'ladi. Bu so'zlarning faqat lug'at shaklini eslab qolish kerak.

Masalan: chole,es, f – o't, safro.

24 -§. Yunon tilidan kirib kelgan so'zlarni yod oling!

Aloë,ës, f – aloy, sabur
Hippophaë,ës, f – chakonda
Kalanchoë,ës, f – kalanxoy
chole, es, f – o't, safro

Mashqlar

2. *Quyidagi terminlarning qanday aniqlovchili termin ekanini aniqlang va ularning shartli tasvirini tuzing.*


Limonnik nastoykasi, achchiq nastoyka, gazako't nastoykasi, jelatinli kapsula, moyli emulsiya, suvsiz lanolin, magniy eritmasi, dimedrol tabletkasi, zaytun moyi, sariq surtma.

3. *Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) tirnoqgul nastoykasi
- 2) yalpiz suvi
- 3) qayin kurtaklari
- 4) marvaridgulning yer ustki qismi

- 5) arnica nastoykasi
- 6) bodom suvi
- 7) belladonna nastoykasi
- 8) habdori massasi

Namuna:



Nom. tinctura Urticae

Gen. tincturae Urticae.

4. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Tinctura Valerianae, aqua Menthae, tinctura Convallariae, massae pilularum, tinctura Belladonnae, glandulae pilularum, tinctura Tormentillae, massa gelatinae, herba Ephedrae.

5. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling va moslashmagan aniqlovchini ko'rsating.

1. Da aegrotae tincturam Valerianae. 2. Addite massam pilularum. 3. Infunde aquam Menthae. 4. Miscere tincturam Belladonnae et tincturam Convallariae. 5. Concide herbam Menthae.

6. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Yalpizning suvidan ol. 2. Marvaridgulning yer ustki qismini qurit. 3. Limonnikning nastoykasidan ber. 4. Efedraning yer ustki qismini qirq. 5. Gazako'tning nastoykasini suz.

25-§. Predloglar

Ko'p tibbiy va farmatsevtika iboralari predloglar yordamida hosil qilinadi. Lotin tilida predloglar faqat ikki kelishik **Accusativus** va **Ablativus** bilan ishlatiladi.

Accusativus da ishlatiladigan predloglar:

ad – uchun, gacha, – da, ga – **ad aegrotam** – bemorga

ad 100,0 – 100 gacha

contra – qarshi – **contra anginam** – anginaga qarshi

per – orqali – **per os** – og'iz orqali.

Ablativus da ishlatiladigan predloglar:

sine – siz – **sine aqua** – suvsiz

pro – uchun – **pro aqua** – suv uchun

ex – dan – **ex aqua** – suvdan

cum – bilan – **cum aqua** – suv bilan.

Accusativus va **Ablativus** da ishlatiladigan predloglar:

in – ga, – da – **in aquam** – suvga (Acc.)

in aqua – suvda (Abl.)

sub – ostiga, ostida – **sub linguam** – til ostiga (Acc.)

sub lingua – til ostida (Abl.).

26- §. Bog'lovchilar

et – va – **tinctura et mixtura** – nastoyka va mikstura.

aut – yoki – **Convallaria aut Valeriana** (ikki xil ma'noni anglatuvchi so'zlar o'rtasiga qo'yiladi) – marvaridgul yoki belladonna.

seu – yoki – **Glycyrrhiza seu Liquiritia** (bir xil ma'noni anglatuvchi ya'ni sinonim so'zlar o'rtasiga qo'yiladi) – shirinmiya yoki qizilmiya.

non – yo'q, emas – **Non scholae, sed vitae discimus.** – Maktab uchun emas, hayot uchun o'qiyamiz.

Mashqlar

7. Lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|--------------------------|---------------------------|
| 1) qog'oz orqali | 6) ro'yandan |
| 2) nastoykaga | 7) arnika yoki araliya |
| 3) jelatindan | 8) tabletka va ampula |
| 4) rezavor mevalar bilan | 9) dorixonaga |
| 5) mavrakdan | 10) yer ustki qismi bilan |

8. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|-----------------|-------------------|
| 1) in capsulam | a) til ostida |
| 2) in capsula | b) kapsulada |
| 3) sub chartam | c) qog'oz ostida |
| 4) sub charta | d) dorixonaga |
| 5) in officinam | e) quticha ostiga |
| 6) in officina | f) kapsulaga |
| 7) sub scatulam | g) dorixonada |
| 8) sub scatula | h) til ostiga |
| 9) sub linguam | i) quticha ostida |
| 10) sub lingua | j) qog'oz ostiga |

9. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Tinctura Valerianae, tinctura Urticae, tinctura Schizandrae, herba Ephedrae, herba Menthae, tinctura Tormentillae, aqua Menthae, massa gelatinae, tinctura Belladonnae.

10. Nuqtalar o'rniga predloglardan mosini qo'yib gaplarni yozing va ularni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Sumite tabulettam . . . horam.
2. Date pilulas . . . scatula.
3. Praeparate pilulas . . . massa pilularum.
4. Date ollam . . . gemmis Betulae.
5. Solve tabulettam . . . aqua.

11. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Miscete tincturam Valerianae cum tinctura Convallariae.

2. Praeparate capsulas ex gelatina.
3. Filtrate mixturam per chartam.
4. Date aegrotae ampullas cum camphora.
5. Colligite et exsiccate herbas ad officinam.
6. Ponite tabulettam in aquam.
7. Aralia aut Sterculia.
8. Glycyrrhiza seu Liquiritia.

Uyga vazifa

I. «Aniqlovchi. Moslashgan va moslashmagan aniqlovchilar. Moslashmagan aniqlovchili terminlarni tarjima qilish. Yunon tilidan kirib kelgan I turlanishga kiruvchi otlarning turlanishi. Predlog va bog'lovchilar» mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Qanday aniqlovchilarni bilasiz?
2. Qanday aniqlovchi moslashgan aniqlovchi deb aytiladi?
3. Qanday aniqlovchi moslashmagan aniqlovchi deb aytiladi?
4. Moslashmagan aniqlovchili atamalar lotin tiliga qanday tarjima qilinadi?
5. **Accusativus** bilan qaysi predloglar ishlatiladi?
6. Qaysi predloglar **Ablativus** da ishlatiladi?
7. Qaysi bog'lovchilarni bilasiz?
8. Yunonchadan o'tgan I turlanishdagi otlar bosh va qaratqich kelishiklarda qanday qo'shimchalarga ega?

II. 22,24-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------|-----------------|
| 1) lingua | a) rezavor meva |
| 2) Rubia | b) g'ozpanja |
| 3) Sophora | c) qog'oz |
| 4) bacca | d) limonnik |
| 5) charta | e) til |
| 6) Glycyrrhiza | f) bodom |

- | | |
|-----------------|--------------------------|
| 7) Schizandra | g) tuxumak |
| 8) Amygdala | h) gazako't, erbahosi |
| 9) Gentiana | i) ro'yan |
| 10) Tormentilla | j) shirinmiya, qizilmiya |

IV. Quyidagi terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|------------------------|----------------|
| 1) gulxayri nastoykasi | 2) yalpiz o'ti |
|------------------------|----------------|

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Gossypolum, Adelphan, Cyclamycin, Doctonil, Elcatonim, Clemastinum, Phenobarbitalum, Ufimox, Diprophyllinum, Etivex, Escaserp, Pyraminalum, Thalazol, Unazid, Iodolipolum, Ulcedon, Suxilep, Xeroformium, Chlorpyraminum, Abbocort, Dimoestrolum, Amidopyrinum, Cinniprine, Sulfabutim, Benzonalum, Ammifurinum, Brinaldix, Mammophysinum, Raunatinum, Urotropinum, Trilax, Asthmotinum, Azaphenum, Chlordiazepoxidum, Barbitalum-natrium, Nitroglycerinum.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Non est medicina sine lingua latina.

Lotin tilisiz tibbiyotni tassavur etib bo'lmaydi.

2. Usus optimus magister est.

Tajriba eng yaxshi ustozdir.

Mavzu: Retsept. Retsept tuzilishi. Aniqlik va majhullik nisbatlari. Esse – bor bo'lmog' fe'li. Gapda so'zlarning tartibi

27-§. Retsept. Retsept tuzilishi

Retsept – shifokorning dori tayyorlash kerakligi to'g'risida dorixonaga xat orqali murojaat qilishi. Retsept so'zi «**receptum**» – «olingan» so'zidan kelib chiqqan.

Retsept rasmiy hujjat bo'lib, uni yozgan shifokor, shu bilan birga dorini tayyorlab bergan dorishunos ham retseptning to'g'riligi uchun yuridik jihatdan javobgardir. Retseptlar yagona nusxali maxsus varaqalarda aniq va ravshan yozilgan bo'lishi lozim. Retseptlardagi so'zlarni tuzatish yoki o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

Retsept quyidagi qismlardan iborat:

1. Davolash muassasasining manzili va telefon raqami.
2. «Bolalar uchun» yoki «Kattalar uchun» belgilari.
3. Retsept yozilgan kun, oy, yil.
4. Bemorning ismi, sharifi va yoshi.
5. Shifokorning ismi sharifi.
6. Kasallik tarixi №
7. Dorining nomi va miqdori.
8. Farmatsevtga ko'rsatma.
9. Dorini qabul qilish usuli.
10. Shifokorning imzosi va shaxsiy muhri.

Retseptning lotincha qismi **Recipe** – ol (recipere – olmoq fe'lining buyruq shakli) so'zidan boshlanadi. **Recipe** – so'zidan keyin yozib berilayotgan dori tarkibiga kiradigan dori moddalarining nomi yoziladi. Har bir ingridiyentning nomi qaratqich kelishikda yangi satrdan bosh harf bilan yoziladi.

Recipe: Tincturae Valerianae 10 ml

Tincturae Convallariae 15 ml

Agar ikki dori moddasining miqdori bir xil bo'lsa, unda ikkinchi dori nomidan keyin **ana** – teng miqdorda (qisqacha **āā**) soʻzi yozilib, soʻngra dori miqdori koʻrsatiladi:

Recipe: Tincturae Convallariae

Tincturae Valerianae ana 10 ml

Grammlar va millilitrlar arab raqamlari bilan koʻrsatib yoziladi: 4,0; 0,5; 0,01 va boshqalar.

Tomchilar miqdori rim raqamlari bilan koʻrsatiladi. **gtt. V** (guttas – tomchilar).

Dori moddalarining biologik taʼsir birligi qisqacha **BT** shaklida, soni esa arab raqamlari bilan yoziladi.

Retseptning lotincha qismi **Da** – ber, **Signa** – belgila soʻzlari bilan tamomlanadi.

Retseptlar oddiy va murakkab boʻladi. Bitta ingredient yozilgan retsept oddiy boʻladi. Ikkita va undan ortiq ingredientlar yozilgan retseptlar murakkab hisoblanadi.

Dorini tezlik bilan tayyorlash lozim boʻlsa, retsept varaqasining yuqorisiga **cito** – *tezda*, yoki **statim** – *tez*, *darhol* soʻzlari yoziladi. Bu soʻzlarning tagiga chiziladi va undov belgisi qoʻyiladi:

Cito! Statim!

Davolanish jarayoni uzoq davom etadigan bemorlarga dorini qayta olishi uchun shifokor tomonidan retsept varaqasining yuqori qismi oʻng tomoniga quyidagi soʻzlar yoziladi:

Repete! – Takrorla!

Repete bis! – Ikki marta takrorla!

Repete ter! – Uch marta takrorla!

Dorini takror bermaslik uchun quyidagi soʻzlar yoziladi:

Non repetatur! – Takrorlama!

RETSEPT VARAQASINING NAMUNASI

<div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 30px; margin: 0 auto;"></div> <p>(davolash-profilaktika muassasasining nomi va rekvizitlari ko'satilgan shtampi o'rni)</p>	<p>_____</p> <p>_____</p> <p>(Nodavlat davolash-profilaktika muassasasi litsenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati)</p>	<div style="border: 1px solid black; width: 40px; height: 30px; margin: 0 auto;"></div> <p>(davolash-profilaktika muassasasining nomi va rekvizitlari ko'satilgan shtampi o'rni)</p>	<p>_____</p> <p>_____</p> <p>(Nodavlat davolash-profilaktika muassasasi litsenziyasining tartib raqami, berilgan sanasi, amal qilish muddati)</p>
RETSEPT		RETSEPTNING yirtma koreshogi	
Kattalarga	Bolalarga	Kattalarga	Bolalarga
(keraksizi o'chirilsin)		(keraksizi o'chirilsin)	
Retsept yozilgan sana		Retsept yozilgan sana	
Kun _____	Oy _____	Yil _____	
Bemorning F.I.O: _____		Bemorning yoshi: _____	
_____		_____	
Shifokorning F.I.O: _____		Shifokorning F.I.O: _____	
_____		_____	
Kasallik tarixi № _____		Kasallik tarixi № _____	
Rp: _____		Rp: _____	
(savdo nomi)		(savdo nomi)	
D.S _____		D.S _____	
(xalqaro patentlanmagan nomi)		(xalqaro patentlanmagan nomi)	
Shifokorning imzosi _____		Berilayotgan dori vositasining nomi va seriyasi: _____	
tel: _____		_____	
(shifokorning shaxsiy muhri o'rni)		Farmasevt xodimining F.I.O: _____	
Retseptning amal qilish muddati _____		(imzosi)	
		(Dorixona shtampi o'rni)	

28-§. Quyidagi soʻzlarni yod oling!

axungia, ae, f – yogʻ, moy
colla, ae, f – yelim
cella, ae, f – hujayra
cellula, ae, f – hujayracha
Terebinthina, ae, f – terpentin
Scopolia, ae, f – skopoliya
Frangula, ae, f – frangula
Polygala, ae, f – istod
Oliva, ae, f – zaytun
Cucurbita, ae, f – qovoq
Inula, ae, f – andiz
Sanguisorba, ae, f – sangvizorba
Rosa, ae, f – naʼmatak
Passiflora, ae, f – passiflora
Leuzea, ae, f – levezeya
Bistorta, ae, f – ilonsimon toron

29 -§. Quyidagi retsept iboralarini eslab qoling!

Da in capsulis. – Kapsula shaklida ber.
Da in tabulettis. – Tabletk shaklida ber.
Da in ampullis. – Ampulada ber.
Da in charta. – Qogʻozda ber.
Da in scatula. – Qutichada ber.

30-§. Aniqlik va majhullik nisbatlari

Lotin farmatsevtika terminologiyasida aniqlik va majhullik nisbatidagi feʼllar hozirgi zamon III shaxsda qoʻllaniladi.

Aniqlik nisbati III shaxs birlik sonini hosil qilish uchun feʼl negiziga *-t*, koʻplik sonini hosil qilish uchun esa *-nt* qoʻshimchasini qoʻshish lozim.

Majhullik nisbati III shaxs birlik sonini hosil qilish uchun feʼl negiziga *-tur*, koʻplik sonini hosil qilish uchun esa *-ntur* qoʻshimchasini qoʻshish lozim.

III shaxs	Activum	Passivum
Singularis	t	tur
Pluralis	nt	ntur

I tuslanish

Dare-bermoq (negizi -da)

Activum

III shaxs birlik da-t – y beryapti
 III shaxs ko'plik da-nt – ular berishyapti

Passivum

III shaxs birlik da-tur – berilsin
 III shaxs ko'plik da-ntur – berilsin

II tuslanish

Miscere – aralashtirmoq (negizi – misce)

Activum

III shaxs birlik misce-t – u aralashtirayapti
 III shaxs ko'plik misce-nt – ular aralashtirishayapti

Passivum

III shaxs birlik misce-tur – aralashtirilsin
 III shaxs ko'plik misce-ntur – aralashtirilsin

III tuslanish

Fe'l negiziga birlik sonda i, ko'plikda – u harflari qo'shiladi.

solvere – eritmoq (negizi – solv)

Activum

III shaxs birlik solvi-t – y erityapti
 III shaxs ko'plik solvu-nt – ular eritishayapti

Passivum

III shaxs birlik solvi-tur – eritilsin
 III shaxs ko'plik solvu-ntur – eritilsin

IV tuslanish

Ko'plikda fe'l negizi bilan qo'shimchalarni birlashtiruvchi – i harfi qo'shiladi.

audire – eshitmoq (negizi – audi)

Activum

III shaxs birlik audi-t – y eshityapti
III shaxs ko'plik audi-nt – ular eshitishyapti

Passivum

III shaxs birlik audi-tur – eshitilsin
III shaxs ko'plik audi-ntur – eshitilsin.

31-§. Esse – bor bo'lmoq fe'li

Esse – bor bo'lmoq yordamchi fe'lining hozirgi zamon III shaxsda tuslanishi quyidagicha:

Birlik Ko'plik
est – u bor sunt – ular borlar.

32-§. Gapda so'zlarning tartibi

Lotin tilida gaplardagi so'zlarning tartibi erkindir. Gaplarda birinchi o'rin-da ega, o'rtasida to'ldiruvchi, oxirida kesim keladi.

Masalan: Aegrota tabulettam sumit.-

Bemor tabletka qabul qilayapti.

Mashqlar

1. Jadvaldan foydalanib, quyidagi fe'llarning hozirgi zamon shaklini hosil qiling.

belgilamoq, bo'lmoq, sterilizatsiya qilmoq, surtmoq, tamomlamoq, qabul qilmoq, suzmoq.

Namuna:

Fe'l	Ne-gizi	Aniqlik nisbati		Majhullik nisbati	
		III shaxs birlik	III shaxs ko'plik	III shaxs birlik	III shaxs ko'plik
parare	para	parat – u tayyor- layapti	parant – ular tayyorlash yapti	paratur – tayyorlan- sin	parantur- tayyorlan sin

2. O'zbek tiliga tarjima qiling. Aniqlik nisbatidagi fe'llarning tagiga bitta chiziq, majhullik nisbatidagi fe'llarning tagiga ikkita chiziq chizing.

1. Collam coquit. 2. Colla coquitur. 3. Pilulas conspergunt.
4. Pilulae consper guntur. 5. Massam gelatinae refrigerat. 6. Massa gelatinae refrigeratur. 7. Tincturam Valerianae sumit. 8. Tinctura Valerianae sumitur. 9. Gemmas Betulae servat. 10. Gemmae Betulae servantur. 11. Herbam Convallariae concidit. 12. Herba Convallariae conciditur.

3. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae Schizandrae 50 ml
Da.
Signa: Kuniga 2 marta 20-25 tomchidan ichilsin.
2. Recipe: Tincturae Araliae 50 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
3. Recipe: Tincturae Sterculiae 50 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
4. Recipe: Tincturae Convallariae 15 ml
Da.
Signa: Kuniga 2-3 marta 15 tomchidan ichilsin.

4. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Arnika nastoykasi 25 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
2. Ol: Marvaridgul nastoykasi 15 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
3. Ol: Qayin kurtagi
Ber.
Belgila: 1 osh qoshiq kurtak 1 stakan suvda damlansin.
Kuniga 3 marta 2 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Ol: Belladonna nastoykasi 20 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.

5.Ol:Marvaridgul nastoykasi 10 ml

Valeriana nastoykasi 10 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 15-20 tomchidan ichilsin.

6. Ol:Yalpiz suvi 200 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 5–10 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «Retsept. Retsept tuzilishi. Aniqlik va majhullik nisbatlari. “Esse”– bor bo‘lmoq fe’li. Gapda so‘zlarning tartibi» mavzularini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Retsept – deganda nimani tushunasiz?
2. Retsept nechta qismdan iborat?
3. Retseptning lotincha qismi qaysi so‘zlar bilan boshlanib, qaysi so‘zlar bilan tugaydi?
4. Dorini tezlik bilan tayyorlash lozim bo‘lsa qanday lotincha so‘zlar yoziladi?
5. Retseptda dori moddalarining nomi qaysi kelishikda yoziladi?

6. Oddiy va murakkab retseptlar deganda nimani tushunasiz?

7. Retseptda **ana** so‘zi qachon yoziladi?

8. **Cito** va **statim** so‘zlari qanday yoziladi?

II. 28,29- § dagi so‘z va so‘z iboralarini yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

1) cella

a) zaytun

2) axungia

b) o‘t, safro

3) Oliva

c) ilonsimon toron

4) Cucurbita

d) hujayra

- | | |
|------------------|--------------|
| 5) Rosa | e) chakonda |
| 6) Bistorta | f) istod |
| 7) Hippophaë | g) yog', moy |
| 8) chole | h) terpentin |
| 9) Polygala | i) qovoq |
| 10) Terebinthina | j) na'matak |

IV. Jadval yordamida quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini hosil qiling.

yelim, hujayra, zaytun.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod.	Gen. Sing.	Nom. Plur.	Gen. Plur.
aqua – suv	I	f	aquae- suvning	aquae- suvlar	aquarum- suvlarning

V. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) qayin kurtagi
- 2) zaytun moyi
- 3) yalpiz suvi
- 4) qayin kurtaklari
- 5) oqqaldirmoq nastoykasi

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Physostigminum, Dithylinum, Galanthaminum, Methacinum, Tropicamide, Pirilenum, Buscopan, Homatropini hydrobromidum, Oxazylum, Proserinum, Pyridostigmini bromidum, Chinotilinum, Aminostigminum, Stephaglabrini sulfas, Desoxypeganini hydrochloridum, Alloximum, Izonitrozinum, Imechinum, Hygronium, Diaethyximum, Scopolaminum, Aprophenum, Platyphyllinum, Spasmolytinum, Chlorozilum, Cyclozylum, Cyclopentolat, Diplacinum, Pentaminum, Fubromeganum, Dioxonium, Atracurium, Ipratropium bromide, Troventotolum,

Benzohexonium, Camphonium, Pachycarpinum, Temechinum, Tubocurarine Chloride, Pipecuronium Bromide, Qualidilum, Mellictinum, Pirenzepine, Adrenalini hydrotartras, Phethanolum, Ephedrinum, Naphthyzinum, Xylometazoline, Orciprenalini sulfas, Hexoprenaline, Dihydroergotaminum.

VII. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Qui non laborat, non manducet.
Ishlamagan tishlamaydi.
2. Quilibet fortunae suae faber.
Har kim o'z baxtini o'zi yaratadi.
3. Ars – longa vita brevis.
Hayot qisqa, san'at abadiydir.
4. Radices doctrinae amarae, fructus dulces sunt.
Ilmning ildizi achchiq, mevasi shirindir.

8-DARS

Mavzu:II turlanishdagi otlar. Mujskoy va jenskiy roddagi otlar

33-§. II turlanishdagi otlar

II turlanishdagi otlarga birlikdagi qaratqich kelishigi (**Genetivus Singularis**) da – *i* qo‘shimchasiga ega bo‘lgan mujskoy va sredniy roddagi otlar kiradi. Bu otlar bosh kelishik birlik son (**Nominativus Singularis**)da mujskoy rodga kirsam – *us,- er*, sredniy rodga kirsam –*um* qo‘shimchasiga ega bo‘ladi.

Masalan: succus, i, m, puer, i, m, decoctum, i, n.

34-§. Mujskoy roddagi otlarning kelishik qo‘shimchalari

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	us, er	i
Gen.	i	orum
Dat.	o	is
Acc.	um	os
Abl.	o	is

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	succus	succi
Gen.	succi	succorum
Dat.	succo	succis
Acc.	succum	succos
Abl.	succo	succis

-er bilan tamomlanadigan ko'pchilik mujskoy roddagi otlarda turlanish vaqtida *-e* harfi, agar asosda bo'lmasa, tushib qoladi. Agar asosda *-e* harfi bo'lsa, kelishiklar bo'yicha turlanganda u saqlanib qoladi.

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	puer	pueri
Gen.	pueri	puerorum
Dat.	puero	pueris
Acc.	puerum	pueros
Abl.	puero	pueris

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	magister	magistri
Gen.	magistri	magistorum
Dat.	magistro	magistris
Acc.	magistrum	magistros
Abl.	magistro	magistris

35-§. II turlanish jenskiy roddagi otlar

Istisno tariqasida II turlanishga jenskiy roddagi ba'zi bir otlar kiradi. Bular:

1. Daraxt va butalar nomi:

Eucalyptus, i,f.

2. Yunonchadan o'tgan to'rtta so'z:

bolus, i,f; crystallus, i,f; methodus, i,f; periodus; i,f.

II turlanish jenskiy roddagi otlar kelishiklar bo'yicha II turlanish mujskoy roddagi otlar singari turlanadi.

Turlanish namunasi

Causus	Sing.	Plur.
Nom.	bolus	boli
Gen.	boli	bolorum
Dat.	bolo	bolis
Acc.	bolum	bolos
Abl.	bolo	bolis

36-§. Quyidagi so‘zlarni yod oling!

sirupus, i, m – sharbat
 medicus, i, m – vrach, shifokor
 succus, i, m – shira
 numerus, i, m – son
 globulus, i, m – sharcha
 stilus, i, m – qalam
 bacillus, i, m – tayoqcha
 fungus, i, m – qo‘ziqorin, zamburug‘
 bolus, i, f – gil, tuproq
 crystallus, i, f – kristal
 Leonurus, i, m – arslonquyruq
 Helianthus, i, m – kungaboqar
 Strophanthus, i, m – strofant
 Thymus, i, m – tog‘jambil
 Acorus calamus, i, m – oddiy igir
 Rubus(i) idaeus, i, m – malina
 Lagochilus, i, m – bozulbang, lagoxilus
 Ricinus, i, m – kanakunjut
 Eleutherococcus, i, m – eleuterokok
 Hyoscyamus, i, m – mingdevona
 Myrtillus, i, m – chernika
 Pinus, i, f – qarag‘ay

Eucalyptus, i, f – evkalipt
 Juniperus, i, f – archa
 Rhamnus, i, f – itjumrut
 Citrus, i, f – limon (daraxt)
 Alnus, i, f – qandag‘och , olxa
 Crataegus, i, f – do‘lana(daraxt)
 Strychnos, i, f – kuchala(daraxt)
 pro adultis – kattalar uchun

Mashqlar

1. Quyidagi otlarning rodini aniqlang.

- | | |
|---------------|---------------|
| 1) sirupus | 6) Rhamnus |
| 2) globulus | 7) Helianthus |
| 3) bolus | 8) stilus |
| 4) crystallus | 9) Crataegus |
| 5) Pinus | 10) Alnus |

2. Qo‘yidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Shira, son, ampula, kapsula, kristal, qalam.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen. Plur.
sirupus-sharbat	II	m	sirupi-sharbatning	sirupi-sharbatlar	siruporum-sharbatlarning

3. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|------------------------------|----------------------------|
| 1) Nom. succus Kalanchoës | Gen. succi Kalanchoës |
| 2) Nom. tinctura Leonuri | Gen. tincturae Leonuri |
| 3) Nom sirupus Althaeae | Gen. sirupi Althaeae |
| 4) Nom.tinctura Strophanthi | Gen. tincturae Strophanthi |
| 5) Nom. sirupus Glycyrrhizae | Gen. sirupi Glycyrrhizae |
| 6) Nom. succus Aloës | Gen. succi Aloës |

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) arslonquyruq yer ustki qismi
- 2) malina sharbati
- 3) gulxayri sharbati
- 4) aloy shirasi
- 5) chernika sharbati
- 6) bozulbang nastoykasi
- 7) tog'jambil yer ustki qismi
- 8) archa qubbalari

5. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Medicus tincturam Leonuri praescribit. 2. Praeparate sirupum ex succo Rubi idaei. 3. Sirupi coguuntur. 4. Date aegroto tincturam Strophanthi. 5. Adde in mixturam sirupum Rubi idaei.

6. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tincturae Strychni 5 ml
Tincturae Convallariae 10 ml
Misce. Da.
Signa: Kuniga 2-3 marta 10 tomchidan ichilsin.
2. Recipe: Infusi herbae Leonuri 15,0: 200 ml
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

7. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Strofant nastoykasi 5 ml
Marvaridgul nastoykasi
Valeriana nastoykasi teng miqdorda 10 ml. dan
Aralashtir. Ber.
Belgila: Kuniga 2-3 marta 20 tomchidan ichilsin.
2. Ol: Arslonquyruq nastoykasi 50 ml
Ber.
Belgila: Kuniga 2 marta 30 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «II turlanishdagi otlar. Mujskoy va jenskiy roddagi otlar» mavzularini o‘zlashtirib oling. Mujskoy va jenskiy roddagi otlarning kelishik qo‘shim chalarini yod oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1.II turlanishga qaysi otlar kiradi?

2.II turlanishdagi mujskoy roddagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen.Sing.**da qanday qo‘shimchalarga ega?

3.Mujskoy roddagi otlarning **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** qo‘shimchalarini ayting.

4.II turlanish jenskiy roddagi otlarga qaysi otlar kiradi?

5.II turlanish jenskiy roddagi otlar **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** da qanday qo‘shimchalarga ega?

6. Jenskiy roddagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo‘shimchalarga ega?

II. 36-§ dagi so‘zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so‘zlarning o‘ng ustundagi o‘zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|---------------|--------------------|
| 1) bolus | a) arslonquyruq |
| 2) numerus | b) vrach, shifokor |
| 3) Leonurus | c) sharbat |
| 4) Lagochilus | d) gil , tuproq |
| 5) sirupus | e) kungaboqar |
| 6) Ricinus | f) qandag‘och |
| 7) Helianthus | g) son |
| 8) bacillus | h) bozulbang |
| 9) medicus | i) tayoqcha |
| 10) Alnus | j) kanakunjut |

IV. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko‘plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

sharcha, archa, arslonquyruq, kanakunjut.

V. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) arslonquyruq nastoykasi

- 2) chernikaning rezavor mevalari
- 3) kalanxoy shirasi
- 4) strofant nastoykasi
- 5) do'lana nastoykasi

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Dihydroergotoxinum, Sinepres, Vasobral, Nicergoline, Phentolaminum, Tropaphenum, Pyrroxanum, Butiroxanum, Prazosinum, Tamsulosin, Oxprenolol, Betaxolol, Labetalol, Proxofelinum, Dophaminum, Serotoninini adipinas, Mexaminum, Sumatriptan, Lysuride, Methysergide, Pizotifen, Alumen ustum, Ketanserinum, Histaminum, Gastal, Pylorid, Histaglobulinum, Betahistine, Dimedrolum, Phencarolum, Fosfalugel, Cyproheptadine, Bicarphenum, Diazolinum, Suprastin, Protab, Fexofenadine, Cromolyn sodium, Ketotifenum, Anaesthesinum, Maalox, Novocainum, Lidocaini hydrochloridum, Acidum tannicum, Bupivacaine hydrochloride, Almagel, Trimecainum, Pyromecainum, Benzofurocainum, Tannalbinum, Amylum, Aluminium hydroxydum, Sucralfate, Liquor Burovi, Bismuthi subnitras.

VII. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Cedant arma togae.
Tinchlik oldida urush chekinsin.
2. Si vera narretis, non opus sit testibus.
Agar haqiqatni gapirsangiz, guvohga hojat yo'q.

9-DARS

Mavzu: II turlanish sredniy roddagi otlar

37-§. II turlanish sredniy roddagi otlarning kelishik qo'shimchalari

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	um	a
Gen.	i	orum
Dat.	o	is
Acc.	um	a
Abl.	o	is

Sredniy rod otlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

1. Accusativus Singularis = Nominativus Singularis = **um**.
2. Accusativus Pluralis = Nominativus Pluralis = **a**.

Bu qoida hamma beshta turlanishdagi sredniy rod otlariga tegishli.

Turlanish namunasi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	decoctum	decocta
Gen.	decocti	decoctorum
Dat.	decocto	decoctis
Acc.	decoctum	decocta
Abl.	decocto	decoctis

38- §. Quyidagi so‘zlarni yod oling!

- folium, i, n – barg
- oleum, i, n – moy
- extractum, i, n – ekstrakt
- decoctum, i, n – qaynatma
- infusum, i, n – damlama
- unguentum, i, n – surtma
- linimentum, i, n – suyuq surtma
- briquetum, i, n – briket
- aërosolum, i, n – aerosol
- gelium, i, n – gel
- emulsum, i, n – emulsiya
- amylum, i, n – kraxmal
- vaccinum, i, n – vaksina
- emplastrum, i, n – malham
- emplastrum ad clavos – qadoq malhami
- suppositorium, i, n – shamcha
- granulum, i, n – granula
- remedium, i, n – vrachlik vositasi
- saccharum, i, n – qand, shakar
- Rheum, i, n – ravoch
- Anisum, i, n – arpabodiyon, anis
- Absinthium, i, n – achchiq shuvoq, ermon
- Erysimum, i, n – jeltushnik
- Equisetum, i, n - qirqbo‘g‘im
- Linum, i, n – zig‘ir
- Centaurium, i, n – tillabosh
- Persicum, i, n – shaftoli
- Foeniculum, i, n – ukrop, fenxel
- Taraxacum, i, n – qoqi
- Capsicum, i, n – qalampir, garmdori
- Triticum, i, n – bug‘doy
- Trifolium (i) fibrinum (i) n. – uchbarg
- Millefolium (i) n. – bo‘ymadaron

Mashqlar

1. Quyidagi otlarning kelishigini aniqlang.

- | | |
|-----------------|-------------------|
| 1) foliorum | 6) extracta |
| 2) olea | 7) folium |
| 3) extractum | 8) unguenta |
| 4) unguenti | 9) olei |
| 5) suppositoria | 10) suppositorium |

2. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

Sharbat, barg, moy, sharcha, qalam, ekstrakt, rezavor meva, tayoqcha.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen. Plur.
infusum-damlama	II	n	infusi-damlama-ning	infusa-damlama-lar	infusorum-damlama-larning

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Folium Belladonnae, folia Helianthi, oleum Amygdalarum, oleum Anisi, aërosolum «Cametonum», granula Amydopyrini, emulsum ex oleo, extractum Convallariae, extractum Strychni, tinctura Rhei, tinctura Erysimi, oleum Hippophaës.

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-------------------------|-------------------|
| 1) qayin bargi | 5) zaytun moyi |
| 2) mavrak barglari | 6) qand sharbati |
| 3) oqqaldirmoq barglari | 7) sano damlamasi |
| 4) gulxayri sharbati | 8) bodom moyi |

5. Quyidagi zanjirdan II turlanish sredniy roddagi otlarni toping va o'zbek tiliga tarjima qiling.

SIRUPUSTRYCHNOSTILUSACCHARUMYRTILLUSUC-CUSERUMEDICAMENTUMEDICUSTROPHANTHUS.

6. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Globuli, bacilli, suppositoria oleum Cacao continent.
2. Herba Sennae, Convallariae, Erysimi, Leonuri in medicina adhibetur.

3. Colate decoctum foliorum Salviae per telam.
4. Concidite folia Menthae et praeparate infusum.
5. Forma pilulas numero 25.
6. Refrigerata et cola infusum foliorum Salviae.

7. Noto'g'ri tarjima qilingan terminlarni toping.

Oleum Ricini, infusum gemmarum Betulae, tincture Valerianae, globula et suppositoriae, tinctura Strychosi, sirupi Rubi idaei, tinctura Leonurae, oleum Anisi.

8. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Da aegotae decoctum gemmarum Pini. 2. Oleum Ricini in capsulis datur. 3. Sirupus Glycyrrhizae, sirupus Sacchari, sirupus Citri in medicina adhibentur. 4. Oleum Terebinthinae ex Pino conficitur. 5. Praeparatum Cardiovalenum extractum Crataegi continet. 6. Pilula in officina praeparantur.

9. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Extracti Aloës 1,0
Da in ampullis.
Signa: Teri ostiga 1 ml. dan yuborilsin.
2. Recipe: Emulsi olei Ricini 180,0
Sirupi sacchari ad 200,0
Misce. Da.
Signa: 2 osh qoshiqdan ich surguncha har soatda ichilsin.
3. Recipe: Infusi foliorum Urticae 15,0: 200 ml
Da.
Signa: 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin
4. Recipe: Decocti foliorum Farfarae 15,0: 200 ml
Da.
Signa: Har 3-4 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

10. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Strofant nastoykasi 5 ml

- Marvaridgul nastoykasi
 Valeriana nastoykasi teng miqdorda 10 ml
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: 20 tomchidan kuniga 2 – 3 marta ichilsin.
2. Ol: Arslonquyruq nastoykasi 50 ml
 Ber.
 Belgila: 30 tomchidan kuniga 2 marta ichilsin.
3. Ol: Kungaboqar moyi emulsiyasi 480,0
 Kamfora 2,0
 Qand sharbati 10,0
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.
4. Ol: Sano bargi damlamasi 10,0: 150 ml
 Ravoch sharbati 30 ml
 Aralashtir. Ber.
 Belgila: Ertalab va kechqurun 1 osh qoshiqdan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «II turlanish sredniy roddagi otlar» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring. Kelishik qo'shimchalarini yod oling.

- II turlanish sredniy roddagi otlarga qaysi otlar kiradi?
- II turlanish sredniy roddagi otlar **Nom. Plur.** va **Gen. Plur.** da qanday qo'shimchalarga ega?
- Sredniy roddagi otlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?

II. 38-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|------------------|-----------------|
| 1) oleum | a) shamcha |
| 2) folium | b) damlama |
| 3) Rheum | c) malham |
| 4) suppositorium | d) qaynatma |
| 5) emplastrum | e) surtma |
| 6) Anisum | f) moy |
| 7) unguentum | g) suyuq surtma |

8) decoctum

h) ravocho

9) infusum

i) arbabodiyon, anis

10) linimentum

j) barg

IV. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.

shakar, malham, shira, kurtak

V. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen.da lotin tiliga tarjima qiling.

1) arbabodiyon moyi

2) ravocho sharbati

3) kanakunjut moyi

4) gazanda barglari

VI. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Ukrop suvi 200 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 5–6 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Ol: Mavrak barglarining damlamasi 20,0:200 ml

Ber.

Belgila: Chayqash uchun.

VII. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Xeroformium, Dermatolum, Magnesii oxydum, Magnesii subcarbonas, granulae «Calmaginum», Forlax, Calcii carbonas praecipitatus, Plumbi acetas, folia Menthae piperitae, Mentholum, balsamum «Stella auraria», fructus Capsici, unguentum contra congelationem, Capsitrium, linimentum Capsici camphoratum, emplastrum Capsici, succus Plantaginis, Plantaglucidum, folia Menyanthidis trifoliata, chloroformium, linimentum Chloroformii compositum, Chlorobutanoli hydras, Bisacodyl, aërosolum «Camethonum», unguentum «Antipsoriaticum», Norgalax, solutio Ammonii caustici, tabelettæ «Apiphorum», Senade, Apisartron, Vipraxinum pro injectionibus, Najaxinum, Viprosalum, Phenolphthaleinum, cortex Frangulae, Alnus, Antrasenninum, Senadexinum, Cafiolum, Regulax, Laminaria saccharina, Isapheninum, Guttalax, sal carolinum factitium, oleum Vaselini, suppositoria cum Glycerino, fructus Anethi graveolentis, Simethicone.

Mavzu : Yunon-lotin termin (atama) elementlari

39-§. Yunon-lotin termin (atama) elementlari

Farmatsevtika atamashunosligida yunon-lotin terminlari ko'p uchraydi. Atamashunoslikni o'rganish termin element (TE) deb nomlanuvchi alohida komponentlarning tahliliga asoslanadi. Har qanday so'z yasovchi element (o'zak, negiz, old qo'shimcha (prefiks), suffiks) termin element deyiladi. Termin elementlar muayyan ma'noga ega. Shuning uchun bir nechta termin elementlardan tuzilgan terminlarni tahlil qilishda asosiy ma'noni bildiruvchi termin elementlarga ilmiy jihatdan yondoshish zarurdir.

Masalan: *dyspepsia* (*dys*-yunoncha old qo'shimcha, faoliyatni buzilishini ko'rsatadi + *pepsis* – hazm qilish) – *dispepsiya*- ovqat hazm qilinishning buzilishi; *colitis* (*kolon* – yo'g'on ichak (yunoncha) + *itis* yunoncha suffiks bo'lib, yalig'lanish degan ma'noni bildiradi) – kolit – yo'g'on ichak shilliq pardasining yallig'lanishi.

Termin bir yoki bir necha so'z yasovchi elementlardan: old qo'shimcha + o'zak + suffiksdan iborat bo'lishi mumkin.

Ko'pchilik yunon va lotin terminlari o'zbek tiliga tarjimasiz ko'chiriladi.

Masalan: *infarctus*, us, f – infarkt.

Ba'zi hollarda termin bilan birga uning tarjimasiz ham berilishi mumkin.

Masalan: *transplantatio*, onis, f – transplantatsiya, ko'chirib o'tkasizh.

Termin elementlarni o'zlashtirish talabalarning so'z boyligini kengaytirib, tibbiyotga oid terminlarni bema'lol tushunishlari uchun imkon beradi.

**40-§. Quyidagi yunon-lotin so‘z yasovchi old
qo‘shimchalarni eslab qoling!**

Old qo‘shimchalar	Ma‘nosi	Misollar
a – (unsizdan oldin); an - (unlidan oldin)	-siz, inkor etish	anomalia –anomal, noto‘g‘ri anhydricus – suvsiz
anti -	qarshi, qarama-qarshi	antidotum – zaharga qarshi antipyretica – issiqni pasaytiruvchi
de -, des -	ajratib olish, yo‘qotish	desinfectio – zararli mikroblardan tozalash decompensatio – kompensatsiyani buzilishi
dys -	faoliyatni buzilishi	dyspnoë – nafas qisishi dyspepsia – ovgat hazm qilishning buzilishi
ecto -, exo -, extra -	sirtqi, tashqi	ectoderma – ectoderma exoplasma – protoplazma-ning tashqi qavati extrauterinus – bachadondan tashqari
endo -	ichki, ichidagi	endocardium – yurakning ichki pardasi
epi -	ustida, ustki qism	epidermis – teri ustki qavati
hyper -	yuqori, ustki, me‘yori-dan oshishi	hypertonia – gipertoniya, qon bosimining oshishi
hypo -	me‘yori-dan kam	hypotonia – qon bosimining pasayishi
infra -	ost, ostki	infrascapularis – kurak osti

inter-	orasi, o'rt, -aro	internationalis – xalqaro
intra-	ichki, ichidagi	intramuscularis – mushaklar ichidagi
re-	qayta tiklash	reanimatio – qayta tiriltirish
sub-	ost, ostki	sublingualis – til osti
-aesthes-	sezish, his qilish	anaesthesia – og'riqsizlantirish
-alg-, -algia	og'riq	neuralgia – nevrалgiya, asab kasalligi
-capnia	uglerod (II) oksidi miqdori	hypercapnia – qonda CO ₂ miqdorining oshishi
-auto-	o'z, xususiy	Autointoxicatio – organizmning unda hosil bo'lgan zaharli moddalardan zaharlanishi

41-§. Quyidagi o'zak termin elementlarini eslab qoling!

O'zak TE	Ma'nosi	Misollar
-chol-	o't, safro	acholia – oshqozonga safroning tushmasligi yoki tushishining kamayishi
glyc-(glyk-)	glyukoza (shakar)	hypoglycaemia –gipoglike-miya – qonda shakar miqdorining kamayishi
haem(o)- haemat(o)	qon	Haemoglobulinum – gemoglobulin haematologia – gematologiya – qon va qon kasalliklari tog'risidagi fan
-aemia		anaemia – kamqonlik
-kinesia	harakat	akinesia – faol harakatning yo'qligi

lip(o)-	yogʻ	lipogenesis – yogʻlarni hosil boʻlishi
-logia	fan, taʼlimot	oncologia – oʻsmalarni oʻrganuvchi fan
-ox(ia)	kislorod	hypoxia – organizm toʻqimalarini yetarli darajada kislorod bilan taʼminlanmaslik holati
path(o)-, -pathia	kasallik, iztirob	pathologia – kasalliklar haqidagi fan apathia – befarqlik holati
-penia	yetishmovchilik	leucopenia – leykotsitlar miqdorining kamayishi
-pnoë	nafas	apnoë – nafas olishning vaqtinchalik toʻxtashi
-scop-, scopia	tekshirish	gastroscoopia – meʼda boʻshligini tekshirish
-therm-, thermia	issiqlik	hypothermia – sovish
-tonia	bosim	hypertonia – bosimning oshishi
-trophia	oziqlanish	dystrophia – oziqlanishning buzilishi
-therapia	davolash	hormonotherapia – gormonlar bilan davolash hydrotherapia – suv bilan davolash
ur(o)-,-uria	siydik	diureticus – siydik haydovchi disuria – siydik chiqishining qiyinlashuvi

Mashqlar

1. Berilgan termin elementlaridan atamalar yasang va ularning maʼnosini tushuntiring.

- 1) contra (tussim, anginam)
- 2) re (constructio, animatio)
- 3) (haemoto, physio, bio) logia

- 4) (hyper, dys, a) trophia
- 5) (hypo, hyper, dys) tonia

2. ***Berilgan terminlarni tarkibiy qismlarga ajrating va ma'nosini tushuntiring.***

Phytotherapia (yunoncha phyton-o'simlik), desinfectio, anuria, hydrotherapia, gastropathia, reanimatio, anaesthesia, bronchoscopia, atrophia, hypotrophia, myalgia, hypocapnia, urologia, haematologia, dysenteria.

3. ***Qo'yidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarini jadval yordamida yozing.***

Barg, kristall, limon, qaynatma, pasta, damlama, modda.

Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen. Sing.	Nom.Plur.	Gen. Plur.
folium – barg	II	n	folii – bargning	folia- barglar	foliorum- barglarning

4. ***O'zbek tiliga tarjima qiling.***

- | | |
|---------------------|----------------------------|
| 1) tabuletta Inulae | 6) baccae Rubi idaei |
| 2) oleum Eucalypti | 7) herba Millefolii |
| 3) baccae Juniperi | 8) folium Hyoscyami |
| 4) infusum foliorum | 9) linimentum Aloës |
| 5) folia Salviae | 10) aërosolum «Camethonum» |

5. ***Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.***

- 1) limon moyi
- 2) gazako't ekstrakti
- 3) evkalipt barglari
- 4) chayono't barglarining damlamasi
- 5) kungaboqar moyi
- 6) qarag'ay kurtaklarining qaynatmasi

6. ***O'zbek tiliga tarjima qiling.***

1. Da aegotae decoctum gemmarum Pini. 2. Oleum Ricini in capsulis datur. 3. Praeparatum Cardiovalenum extractum Crataegi

continent. 4. Sirupus Glycyrrhizae, sirupus Sacchari, sirupus Citri in medicina adhibentur. 5. Pilula in officina praeparantur. 6. Oleum Terebinthinae ex Pino conficitur.

7. Noto'g'ri tarjima qilingan atamalarini toping.

Oleum Ricini, infusum gemmorum Betulae, tincture Valerianae, globula et suppositoriae, tinctura Strychosi, sirupi Rubi idaei, tinctura Leonurae, oleum Anisi.

8. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Infusi baccarum Juniperi ex 10,0: 200 ml

Da .

Signa: Kuniga 3-4 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Recipe: Decocti gemmarum Pini ex 10,0: 200 ml

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3. Recipe: Infusi foliorum Eucalypti ex 10,0 :200 ml

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

9. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Do'lana nastoykasi 20 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 20–30 tomchidan ichilsin.

2. Ol: Evkalipt moyi

Arpabodiyon moyi teng miqdorda 10,0 dan

Aralashtir. Ber.

Belgila: Ingalyatsiya uchun.

3. Ol: Kuchala nastoykasi 5 ml

Limonnik nastoykasi 20ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kuniga 2 marta 20–25 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I. «Yunon-lotin termin elementlari» mavzusini o'zlashtirib oling va quyi dagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Atamashunoslikni o'rganish nimaga asoslanadi?

2. Termin elementlar nimalardan iborat?

3. Qaysi termin elementlarni bilasiz?

4. Qaysi o'zak termin elementlarini bilasiz?

II. 40,41-§ dagi termin elementlarini yod oling.

III. Chap ustundagi termin elementlarining o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

1) hyper-

a) ajratib olish, yuqotish

2) ecto-, exo-, extra-

b) ichki, ichidagi

3) endo-

s) yuqori, ustki, me'yoridan oshishi

4) re-

d) sirtqi, tashqi

5) -trophia

e) orasi, o'rta, -aro

6) dys-

f) ost, ostki

7) de-, des-

g) faoliyatni buzilishi

8) -chol-

h) oziqlanish

9) inter-

i) o't, safro

10) infra-

j) qaytadan boshlanmoq, tiklash

IV. Quyidagi otlarning bosh va qaratqich kelishik, birlik va ko'plik son shakllarni jadval yordamida yozing.

do'lana, archa, zig'ir, oqqaldirmoq.

V. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1) tillabosh yer ustki qismi

2) ukrop moyi

3) bodom moyi

4) do'lana nastoykasi

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing !

Mucaltinum, Sotalol, radices Glycyrrhizae, Glycyrramum, folia Plantaginis majoris, herba Thymi serpylli, Pertussinum, Terpinum hydratum, Lycorini hydrochloridum, Ajmaline, Curosurf, Strophanthinum, Amaryllidaceae, Acetylcysteinum,

Medilasidum, Cordigitum, No-Spa, Corgluconum, Lantosidum, Carbocysteine, Bromhexinum, Celanidum, Ambroxolum, Exosurf, Amrinone, Digitalis purpurea, Digitoxinum, herba Adonidis vernalis, Adonisidum, Cavinton, Erynitium, Strophanthidini acetat, Quinilentin, Cardiovalenum, Milrenone, Vesnarinone, Chinidinum, Chinidindururules, Novacainamidum, Disopyramide, Mexiletini, Propafenone, Aetmozinum, Aethacizinum, Gangleronum, Neo-Gilurythmal, Pulsnorma, Allapininum, Amiodarone, Theobrominum, Lipasum, Amylasum, Nibentanum, Ornidum, Nitroglycerinum, Nicorandil, Perlinganit, Sustabuccal, Dibazolium, Nitrosorbidum, Amylii nitris, Molsidosidomine, Nonachlazinum, Carbocromen, Bepridile Hydrochloride, Cinnarizine, Flunarizine, Vincanorum, Apressinum, Papaverinum, Riboflavinum, Nicospanum, Phenicaberanum, Theopecum, herbae Centaurii, Pancreatinum, Diprophenum, Theophyllinum.

Mavzu: Dorivor preparatlar nomi. Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar. Fe'llarning shart mayli. “ fiat, fiant “ fe'lining retseptlarda qo'llanilishi

42-§. Dorivor preparatlar nomi

Dorivor preparatlarning nomi asosan II turlanish sredniy roddagi otlar bo'lib, ular **Nominativus Singularis** da **-um**, **Genetivus Singularis** da **-i** qo'shimchasiga ega.

Masalan: Dermatolum, i, n – dermatol
Analginum, i, n – analgin.

43-§. Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar

Ba'zan dorivor preparatlar nomida shu dorini yaratgan mualliflarning familiyasi uchrab turadi. Ayollar familiyasi I turlanish, erkaklar familiyasi II turlanish otlari singari turlanadi.

Masalan: liguor Burovi – Burov suyuqligi
tabulettae Carmanovae – Karmanova tabletkalari

Ba'zi familiyalar kelishiklar bo'yicha turlanmaydi.

Masalan: species Zdrenco – Zdenko yig'masi
Balsamum Schostacovsky – Shostakovski balsami.

44-§. Quyidagi so'zlarni yod oling!

medicamentum, i, n – dori, dori darmon

venenum, i, n – zahar

antidotum, i, n – zaharga qarshi, ziddizahar

metallum, i, n – metal

vitrum, i, n – kichkina shisha idish

da in vitro – shisha idishda ber

talcum, i, n – talk

butyrum, i, n – moy

serum, i, n – zardob

vitaminum, i, n – vitamin

Chloroformium, i, n – xloroform
Xeroformium, i, n – kseroform
Iodoformium, i, n – yodoform
Glucosum, i, n – glukoza
Glycerinum, i, n – glitserin
cum Glycerino – glitserin bilan
Linteum, i, n – kanop, polotno
extende supra linteum – polotnoga surt
Paraffinum, i, n – parafin
Vaselinum, i, n – vazelin
Butyrolum, i, n – butirol
Mentholum, i, n – mentol
Ichthyolum, i, n – ixtiol
Naphthalanum, i, n – naftalan
Artemisia(ae) absinthium(i) – ermon, achchiq shuvoq
Coriandrum, i, n – kashnich
Verbascum, i, n- sigirqyruq
Helichrysum, i, n – bo'znoch

Eslab qoling!

dragee (birlik), dragees (ko'plik) – draje (turlanmaydi)

Ginseng – jenshen (turlanmaydi)

Da tales doses numero. – Shunday dozalarda ... (son)ta ber.

Mashqlar

1. Quyidagi dorivor preparatlar nomini Nominativus Singularis va Genetivus Singularis da lotin tiliga tarjima qiling.

Amidopirin, dermatol, novokain, kodein, fenobarbital, dibazol, rezerpin, etazol, kofein.

2. Quyidagi otlarning rodini va kelishigini aniqlang.

- | | |
|-----------------|--------------|
| 1) succi | 5) tincturae |
| 2) bolus | 6) aquarum |
| 3) crystallorum | 7) glucosa |
| 4) folia | 8) amyllum |

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

Pasta Lassari, liquor Kastelliani, solutio Lugoli, species Zdrenko, balsamum Schostacovsky, solutio Ringer-Locke, tinctura Petrovi, unguentum Koncovi, unguentum Wilkinsoni.

4. Quyidagi dorivor preparatlarning nomini Gen. Sing. da yozing va o'zbek tiliga tarjima qiling.

Tetracyclinum, Flaminum, Riboxinum, Phytinum, Iodum, Trypsinum, Dimoestrolum, Myelosanum, Olivomycinum, Piperazinum, Cytarabinum, Ergotaminum.

45-§. Fe'llarning shart mayli

Retseptlarda fe'llarning buyruq mayli bilan bir qatorda shart mayli ham keng qo'llaniladi.

Retseptlarda shart mayli III shaxs birlik va ko'plik sonlarida ishlatiladi.

Masalan: Detur – Berilsin! Berilgan bo'lsin.

Repetatur – Takrorlansin! Takrorlangan bo'lsin!

46-§. Quyidagi so'z va so'z iboralarini yod oling!

Misceatur – Aralastirilsin! Aralastirilgan bo'lsin.

Signetur – Bildirilsin! Bildirilgan bo'lsin.

Detur – Berilsin! Berilgan bo'lsin.

Repetatur – Takrorlansin! Takrorlangan bo'lsin!

Sterilisetur – Sterilizatsiya qilinsin! Sterilizatsiya qilingan bo'lsin.

Dentur tales doses numero . – Shunday dozalardan... (son)ta berilsin! Shunday dozalardan... (son)ta berilgan bo'lsin.

quantum satis – keragicha.

47-§. “fiat, fiant” fe'lining retseptlarda qo'llanilishi

Qaysi dori shaklini tayyorlash lozimligini retseptlarda ko'rsatish kerak bo'lsa, bu holda maqsadli ergash gap birlikda **fiat**, ko'plikda **fiant** (hosil bo'lsin, hosil qilinsin) fe'llari bilan birga ishlatiladi.

Masalan: Misce, ut fiat pasta. – Pasta hosil bo'lguncha aralashtir.

Misce, ut fiant suppositoria. – Shamchalar hosil bo'lguncha aralashtiring. Aralashtirib, shamchalar hosil qilinsin.

Mashqlar

5. Nuqtalar o'rnini fiat yoki fiant fe'llari bilan to'ldiring.

1. Misce, ut ... pilulae.

2. Misce, ut ... unguentum.

3. Misce, ut ... linimentum.

4. Misce, ut ... globuli.

5. Misce ut ... suppositoria.

6. Misce, ut ... mixtura.

7. Recipe massae pilularum quantum satis, ut ... pilulae.

6. Nuqtalar o'rniga mos keladigan qo'shimchalarni qo'yib, gaplarni yozing.

1. Misce, ut fiat unguent...

2. Recipe massae pilul... quantum satis ut fiant pilul...

3. Misce, ut fiant bacill...

4. Misce, ut fiant suppositori...

5. Misce, ut fiat suppositori...

6. Misce, ut fiat globul...

7. Misce, ut fiant globul...

8. Misce, ut fiat liniment...

7. Lotin tiliga tarjima qiling.

1. Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.

2. Aralashtirib, tayoqchalar hosil qilinsin.

3. Aralashtirib, shamchalar hosil qilinsin.

4. Mikstura hosil bo'lguncha aralashtir.

5. Shunday dozalardan 10 (son)ta ampulalarda berilgan bo'lsin.

6. 10 (son)ta sharchalar hosil qilish uchun keragicha jelatin massasidan ol.

7. 30 (son)ta hab dorilar hosil qilish uchun keragicha hab dori massasidan ol.

8. O'zbek tiliga tarjima qiling.

tinctura Iodi, venena et antidota, antidotum metallorum, stilus Mentholi, suppositoria cum extracto Belladonnae, Lanolinum et Vaselinum.

9. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Cen.da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) qirqbo'g'imning yer ustki qismi
- 2) achchiq shuvoq barglari
- 3) uchbarg barglari
- 4) jenshen nastoykasi
- 5) bo'ymadoron yer ustki qismi-
- 6) bug'doy kraxmalining damlamasi
- 7) qalampir nastoykasi
- 8) shaftoli moyining emulsiyasi

10. Pastdagi kataklarda hikmat yashiringan. Uni o'qish uchun berilgan so'zlarni tarjima qilib, yuqoridagi kataklarga yozing va harflarning raqamlari bo'yicha pastdagi kataklarni to'ldirsangiz uni o'qiysiz.

1) ravoch 6) guruch 11) natriy 18) oqqaldirmoq 25) ilonsimon taron 33) valeriana 42) archa

1	2	3	4	5					
6	7	8	9	10					
11	12	13	14	15	16	17			
18	19	20	21	22	23	24			
25	26	27	28	29	30	31	32		
33	34	35	36	37	38	39	40	41	
42	43	44	45	46	47	48	49	50	

8	6	20	28	3	27		21	29	30	31	4	40	41		42	43	33	12	13
---	---	----	----	---	----	--	----	----	----	----	---	----	----	--	----	----	----	----	----

11. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Oleum Persicorum, oleum Amydalarum, oleum Helianthi in medicina saepe adhibentur. 2. Praeparatum «Cordiaminum» in

- aqua bene solvitur.3. Venena in officinis sub littera «A» servantur. 4. Papaverinum et Mophinum ex opio conficiuntur. 5. Pilulae saccharo saepe obducuntur. 6. Coffeinum in foliis Theae continetur. 7. Vitaminum P in baccis Oxycocci continetur. 8. Antidota contra venena adhibentur.

12. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Olei Terebinthinae 10,0
Olei Hyoscyami 40,0
Chloroformii 3,0
Misce. Da.
Signa: Teriga surtish uchun
2. Recipe: Infusi herbae Hyperici ex 10,0:180ml
Da.
Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 3 marta ichilsin.
3. Recipe: Decocti foliorum Uvae ursi 10,0: 180ml
Hexamethylentetramini 4,0
Misce. Da.
Signa: 1 osh qoshiqdan kuniga 2 marta ichilsin.
4. Recipe: Euphyllini 0,3
Olei Cacao 3,0
Misce, fiat suppositorium
Dentur tales doses numero 10
Signetur: Kuniga 2 marta 1 ta shamchadan qo'yilsin.
5. Recipe: Unguenti Prednisoloni 0,5 % . 5,0
Da.
Signa: Sirdan ishlatish uchun.

13. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Yodoform 2,5
Vazelin 25,0 gacha
Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.
Ber.
Belgila: Surtma
2. Ol: Ixtiol 0,15
Steptotsid 0,3
Kakao moyi 2,5

- Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.
 Shunday dozalardan 3(son)ta berilgan bo'lsin.
 Belgila: Kuniga 1 ta shamchadan qo'yilsin.
3. Ol: Belladonna ekstrakti 0,1
 Furatsilin 0,2
 Kakao moyi 30,0
 Aralashtirib, 10(son)ta sharchalar hosil qilinsin.
 Berilsin.
 Belgilansin: Kuniga 2 marta 1 sharchadan qo'yilsin.
4. Ol: Kseroform 1,5
 Antipirin 3,0
 15 (son)ta shamchalar hosil qilish uchun keragicha
 kakao moyi
 Berilsin.
 Belgilansin: Kuniga 3 marta 1ta shamchadan qo'yilsin.
5. Ol: Streptotsid 0,3
 Butirol keragicha
 Aralashtirib, 3(son)ta shamchalar hosil qilinsin.
 Berilsin.
 Belgilansin: Kuniga 1ta shamchadan qo'yilsin.
6. Ol: Dermatol 0,2
 Streptotsid 0,3
 Vazelin 15,0
 Surtma hosil bo'lguncha aralashtir.
 Berilsin.
 Belgilansin: Bog'lamlar uchun.

Uyga vazifa

1.«Dorivor preparatlar nomi. Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar. Fe'llarning shart mayli. "fiat, fiant" fe'lining retseptlarda qo'llanilishi» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Dorivor preparatlar nomi qaysi rodga tegishli?
2. Dorivor preparatlar **Nom. Sing.** va **Gen. Sing.** da qanday qo'shimchalarga ega?

3. Dorivor preparatlar nomidagi familiyalar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

4. Fe'llarning shart mayli retseptlarda qanday shaklda ishlatiladi?

5. *Fiat, fiant* fe'llari retseptlarda qachon ishlatiladi?

II. 44,46-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Quyidagi terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) ravoch nastoykasi
- 2) bo'yumadaron yer ustki qismi
- 3) mavrak barglari

IV. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Dermatol 0,2

Shamcha hosil qilish uchun keragicha kakao moyi

Shunday dozalarda 6 (son)ta berilgan bo'lsin.

Belgilansin: Kuniga 2 marta 1ta shamchadan qo'yilsin.

2. Ol: Promedol 0,02

Kakao moyi 3,0

Shamcha hosil bo'lguncha aralashtir.

Shunday dozalardan 6 (son)ta berilgan bo'lsin.

Belgilansin: Kechasiga 1 shamchadan qo'yilsin.

3. Ol: Ixtiol 0,15

Sharcha hosil qilish uchun keragicha jelatin massasidan

Shunday dozalarda 12 (son)ta berilgan bo'lsin.

Belgilansin: Qinga qo'yiladigan shamchalar.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Triamterenum, Dinoprost, Cholosasum, Urodanum, Triampur compositum, Triamtesidum, Oxaphenamidum, Cycvalonum, Flaminum, Amiloridum, Spironolactonum, Mannitum, urea pura, Kalii acetat, Ammonii chloridum, baccae Juniperi, folia Orthosiphoni staminei, species diureticae, Lespenephil, Flaroninum, Allopurinolum, Sulfipyrazone, Kebuzone, Magurlit, Solimok, extractum Rubiae tinctorum siccum, Cystenat, Olimetinum, Avisanum, Pinabinum, Urolesanum, herba Polygoni avicularis, Phytolysin, Allocholum, Liobilum, Cholenzynam,

flores Helichrysi arenarii, styli cum stigmatis Zea Maydis, Tenacecholum, Berberini bisulfas, Nicodinum, Cholagolum, Febichol, Hymecromone, Legalon, Siliborum, Catergen, Salbupart, Flumecinol, Flacuminum, Essentiale, Biligninum, Methylergometriner, Ergotaminum, Oxytocinum, Methyloxytocin, Prostenonum, Cotamini chloridum, herba Bursae pastoris, extractum Stachydis betonicae florum fluidum, Partusisten, Ritodrinum, Gynipral, Convaflavinum, Ergotalum.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Natura sanat, medicus curat morbos.
Shifokor davolaydi, tabiat sog'aytiradi.
2. Mendaci homini verum quidem dicenti credere non solemus.
Yolg'onchining rost gapi ham yolg'on bo'lur.
3. Pigritia est mater vitiorum.
Yalqovlikning oxiri xorlik.
4. Alit lectio ingenium.
O'qish aqlni rivojlantiradi.

Mavzu: Dorivor vositalar nomenklaturasi. Dorivor vositalar nomenklaturasining tipik guruhlari. O'simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlar nomlari. O'simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo'lgan dorivor preparatlar nomlari. Organik kimyoviy moddalarning ilmiy va trivial (shartli) nomlanishi. Dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar

48-§. Dorivor vositalar nomenklaturasi

Dorivor vosita (medicamentum, remedium) bu odam va hayvonlarning kasalliklarini davolash, oldini olish yoki aniqlash maqsadida ishlatish uchun ruxsat etilgan farmakologik vositadir.

Dorivor modda (materia medica, substantia pharmaceutica) bu alohida kimyoviy birikmadan yoki biologik moddadan iborat bo'lgan dorivor vositadir.

Dorivor o'simliklar xomashyosi bu davolash maqsadida qo'llash uchun ruxsat etilgan o'simliklar xomashyosi.

Dorivor vosita yoki dorivor o'simlik mahsulotiga kerakli davolash ta'siriga erishish uchun berilgan qulay holat dori shakli (**forma medicamentorum**) deb aytiladi.

Dori preparati (praeparatum) bu ma'lum dori shaklidagi dorivor vositadir.

Murakkab dori vositalari bu bir dori shaklida belgilangan dozalarda birdan ortiq ta'sir etuvchi moddalarga ega bo'lgan dorivor vositalardir.

Dorivor vositalar nomenklaturasi (D.V.N.) – bu hozirgi vaqtda ishlatishga ruxsat berilgan hamma dorivor vositalar nomining yig'indisidir.

Dorivor vositalarning hozirgi zamon nomenklaturasi tabiiy paydo bo'lgan va qat'iy tuzilish qoidasiga ega emas. Har bir

dorivor vosita ma'lum bir nomlanishga ega bo'ladi. Nomlar esa ixtiyoriy ravishda o'ylab chiqariladi.

Dorivor vositalar nomenklaturasiga vatanimizda ishlab chiqarilgan vositalar nomi bilan birga chet eldan keltirilgan vositalarning nomi ham kiradi.

49-§. Dorivor vositalar nomenklaturasining tipik guruhlari

Dorivor vositalar nomenklaturasi oltita tipik guruhga bo'linadi:

I. O'simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlar nomlari.

II. O'simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo'lgan dorivor preparatlar nomlari.

III. Dorivor moddalarning trivial nomlari.

IV. Dorivor moddalarning xalqaro patentlanmagan nomlari.

V. Dorivor vositalar(preparatlar)ning savdo nomlari.

VI. Farmakopeynik kimyoviy nomenklatura: kislotalar, oksidlar, tuzlar nomlari.

50 -§. I tipik guruh. O'simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlar nomlari

I tipik guruhga o'simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlarning nomlari kiradi.

I tipik guruhdagi nomlar ikkita otdan tashkil topgan so'z birikmalaridir. Birinchi ot o'simlik organi (**herba, folium, flos, radix va boshqalar**) yoki mahsulotlarning nomi (**oleum, gummi, resina va boshqalar**)ni ko'rsatadi va bosh kelishikda yoziladi. Ikkinchi ot o'simlik nomini ko'rsatadi va qaratqich kelishigida yoziladi.

Masalan:herba Leonuri – arslonquyruqning yer ustki qismi

folium Sennae – sano bargi

folium Eucalypti – Evkalipt bargi

oleum Hyoscyami – mingdevona moyi.

51-§. II tipik guruh. O‘simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo‘lgan dorivor preparatlar nomlari

II tipik guruhga quyidagilar kiradi:

1. *Zavodlarda ma‘lum belgilangan standartlar bo‘yicha tayyorlanadigan dorivor preparatlarning nomlari.* Bular – nastoykalar, ekstraktlar va sharbatlarning nomlari bo‘lib, ikkita otdan iborat bo‘lgan so‘z birikmalaridir. Birinchi ot dori turining nomini ko‘rsatadi va bosh kelishikda turadi. Ikkinchi ot o‘simlik nomini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

Masalan: tinctura Valerianae – valeriana nastoykasi
extractum Crataegi – do‘lana ekstrakti
sirupus Glycyrrhizae – shirinmiya sharbati

2. *Damlama va qaynatma nomlari.* Ular uchta otdan iborat bo‘lgan so‘z birikmalaridir. Birinchi ot dori turining nomini ko‘rsatadi va bosh kelishikda turadi. Ikkinchi ot o‘simlik organini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi. Uchinchi ot o‘simlik nomini ko‘rsatadi va qaratqich kelishigida turadi.

Masalan: infusum foliorum Sennae – sano barglarining damlamasi
decoctum herbae Hyperici – dalachoy (sariqchoy)
yer ustki qismining qaynatmasi.

52-§. III tipik guruh. Organik kimyoviy moddalarning ilmiy va trivial (shartli) nomlanishi

Dorivor vositalar sifatida qo‘llaniladigan organik kimyoviy moddalar ikkita nomga ega: **ilmiy** (tizimli) va **trivial** (shartli).

«**Trivial**» so‘zi lotincha “**trivialis**” odatdagi, oddiydan kelib chiqqan.

Odatda ilmiy nomlar uzun bo‘lgani uchun ularni tibbiyot amaliyotida ishlatish noqulay. Shuning uchun dorivor vositalar nomi sifatida ilmiy emas, balki trivial nomlari qo‘llaniladi. Trivial nomlar qisqaligi bilan amalda qo‘llashga qulaydir.

Masalan: Dietilamidsulfamidobenzoat kislota – ilmiy nomlanishi,

Etamid – trivial nomlanishi.

Trivial nomlar dorivor vositalarning kimyoviy tarkibini, davolash ta'sirini, farmakologik guruhga mansublikni va boshqa turli belgilarni ifodalaydi.

53-§. Dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar

Tez-tez takrorlanadigan bo'laklar – bu dorivor preparatlar nomida ko'p qo'llaniladigan so'z bo'laklaridir.

Har bir tez-tez takrorlanadigan bo'lak preparat to'g'risida ma'lum bir axborotni (dorining kimyoviy tarkibi, davolash ta'siri yoki farmakologiyasi) beradi.

Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni va ularning ma'nosi (ahamiyati)ni bilish ko'p miqdordagi dori nomlarini tushunib olishga yordam beradi.

Masalan: Tarkibida *-alg* tez-tez takrorlanadigan bo'lakli preparat og'riq qoldiruvchi ekanligini ko'rsatadi. Shuning uchun quyidagi preparatlarni shu guruhga kiritish mumkin:

Analginum
Baralginum
Pentalginum

Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni bilish dorivor preparatlarning nomini to'g'ri yozishga yordam beradi.

54 -§. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni yod oling!

Tez-tez takrorlanadigan bo'lak	Ma'nosi	Misollar
-meth-	«metilni», «metilenni» aks ettiradi	Methazidum
-aeth-	«etilni», «etilenni» aks ettiradi	Aethamidum
-phen-	«fenilni», «fenilenni» aks ettiradi	Phenaminum
-thi (o)-	«tiokislotalar», «tiotuzlarni»	Thiopentalum-

	aks ettiradi. Bu tarkibiga oltinugurt atomi kiradigan birikmalar	natrium
-(a)zol,-zin-, -(a) zid-	“azoguruhni” aks ettiradi. Bu azot saqlovchi birikmalar	Aethazolum Phthivazidum
-naphth-	naftalan kislotaning hosilasi	Benzonaphtholum
-phthal-	ftaliyev kislotaning hosilasi	Phthalazolum
-fer(r)-	temir preparatlari	Haemofér
-api-	asalari zaharining preparatlari	Apisarthronum
-vipr-	ilon zaharining preparatlari	Vipraxinum

Mashq

1. Tez- tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ma'nosi (ahamiyati) ni ko'rsating.

Namuna: Aethazolum – 1) «etilni» aks ettiradi.

2) «azoguruhni» aks ettiradi.

Aprophenum, Aethacridinum, Aminazinum, Metherezinum, Aethaperazinum, Phthalazolum, Thiodipinum, Haemofér, Methorinum, Apiphorum, Phenibutum, Phenolphthaleinum, Vipraxinum, Trimethinum, Naphthyzinum, Phytoferrolactolum, Apisarthronum, Ferramidum.

55-§. Quyidagi dori preparatlari nomlarini yod oling!

Phenacetinum, i, n – fenatsetin

Aethazolum, i, n – etazol

Hexamethylentetraminum, i, n – geksametilentetramin

Phthalazolum, i, n – ftalazol

Naphthyzinum, i, n – naftizin

Aminazinum, i, n – aminazin

Triftazinum, i, n – triftazin

Phthivazidum, i, n – ftivazid

Dibazolum, i, n – dibazol

Codeinum, i, n – kodein

Coffeinum, i, n – kofein
Chininum, i, n – xinin
Glycerinum, i, n – glitserin
Reserpinum, i, n – rezerpin
Strophanthinum, i, n – strofantin
Scopolaminum, i, n – skopolamin
Morphinum, i, n – morfin
Pilocarpinum, i, n – pilokarpin

Mashq

2. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Dragee Padutini numero 30

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1-2 ta drajedan qabul qilinsin.

2. Recipe: Guttarum Inosemzovi 20 ml

Da.

Signa: 10 tomchidan ichilsin.

3. Recipe: Emplastri Epilini 12,0

Da.

Signa: Boshning soch qismidagi zararlangan joyiga quyilsin.

Uyga vazifa

I. «Dorivor vositalar nomenklaturasi. Dorivor vositalar nomenklaturasining tipik guruhlari. I tipik guruh. O'simlik va hayvonlardan olingan dorivor mahsulotlar nomlari. II tipik guruh. O'simliklar mahsulotidan olingan ajratmalardan iborat bo'lgan dorivor preparatlar nomlari. III tipik guruh. Organik kimyoviy moddalarning ilmiy va trivial (shartli) nomlanishi. Dorivor vositalarning trivial nomlaridagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Dorivor vositalar nomenklaturasi deb nimaga aytiladi?

2. Dorivor vosita deb nimaga aytiladi?
3. Dorivor modda deganda nimani tushunasiz?
4. Dori shakli, dorivor preparatlar deb nimaga aytiladi?
5. Dorivor vositalar nomenklaturasini nechta tipik guruhga ajratish mumkin?

6. I, II, III, IV, V, VI tipik guruhlariga nimalarning nomlari kiradi?

7. I tipik guruh nechta otdan tashkil topadi va ular nimalarni nomini bildiradi? Otlarning kelishigini ayting.

8. II tipik guruh to'g'risida nimalarni bilasiz?

9. Organik kimyoviy moddalarning ilmiy va trivial nomlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

10. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklar to'g'risida aytib bering.

II. 54, 55-§ lardagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklar va dorivor preparatlar nomlarini yod oling.

III. Chap ustunda berilgan tez-tez takrorlanadigan bolaklarning o'ng ustundagi ma'nolarini toping.

- | | |
|-------------|---|
| 1) -api- | a) «etilni», «etilinni» aks ettiradi |
| 2) -vipr- | b) «fenilni», «fenilenni» aks ettiradi |
| 3) -naphth- | c) «azoguruhni» aks ettiradi |
| 4) -aeth- | d) ftaliyev kislotasining hosilasi |
| 5) -phen- | e) asalari zaharining preparatlari |
| 6) -ferr- | t) «tiokislotalarni», «tiotuzlarni» ifodasi |
| 7) -phthal- | d) temir preparatlari |
| 8) -zin- | h) «metilni», «metilenni» aks ettiradi |
| 9) -thi(o)- | i) naftalan kislotaning hosilasi |
| 10) -meth- | j) ilon zaharining preparatlari |

IV. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajratib va ularning ma'nosini ko'rsating.

Diprophenum, Viprotox, Corazolum, Phenacetinum,
Phthalazolum, Naphthyzinum, Aethamidum, Tropaphenum,
Thiopentalum – natrium.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Magnolia grandiflora, Berberis vulgaris, Stephania glabra, Strychnos nux vomica, Claviceps purpurea, Rauwolfia serpentina, Vinca minor, Vinca erecta, Catharanthus roseus, Passiflora incarnata, Peganum harmala, Sterculia platanifolia, Aconitum soongaricum, Aconitum karakolicum, Delphinium dactyocarpum, Delphinium confusum, Delphinium semibarbatum, Veratrum lobelianum, Solanum laciniatum, Brassica juncea, Brassica nigra, Amygdalus communis, Menyanthes trifoliata, Taraxacum officinale, Centaurium erythreum, Centaurium pulchellum, Digitalis grandiflora, Digitalis ciliata, Digitalis ferruginea, Periploca graeca, Strophanthus kombe, Strophanthus hispidus, Apocynum cannabinum, Adonis vernalis, Corchorus ditorius, Convallaria majalis, Convallaria transcaucasica, Erysimum diffusum, Erysimum canecens, Erysimum marscallianum, Helleborus caucasica, Helleborus purpurescens, Glycyrrhiza glabra, Polemonium coeruleum, Panax ginseng, Aralia mandshurica, Echinopanax elatum, Orthosiphon stamineus, Astragalus dasyanthus.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Mala herba cito crescit.

Begona o't joy tanlamaydi.

2. Amicus cognoscitur amore, more, ore, re.

Do'st mehr-muhabbatdan, axloqdan, gapidan, ishidan bilinadi.

Mavzu: Dorivor preparatlarga trivial nomlarni berish qoidalari. IV tipik guruh. Dorivor moddalarning xalqaro patentlanmagan nomlari. Alkaloidlar va glikozidlar nomlanishi. Vitaminlar va fermentlar nomlanishi

56-§. Dorivor preparatlarga trivial nomlarni berish qoidalari

Dorivor preparatlarning trivial nomlarini nomenklatura komissiyasi beradi. Trivial nomlar qisqacha, talaffuz osonligi, berilgan nomning boshqalardan fonenetik – grafik farqlanishi, tez-tez takrorlanadigan bo‘laklar qo‘llanishining aniqligi kabi talablarga mos kelishi kerak.

I. Qisqalik. Eng qulay va ko‘p uchraydiganlari uch, to‘rt va besh bo‘g‘inli nomlardir.

Masalan: Corazolum, Piperazinum, Tanninum.

Ayrim hollarda ko‘p sonli bo‘g‘inli nomlar ham uchraydi.

Masalan: Sulfadimezinum, Novocainamidum, Phenoxymethylpenicillinum.

II. Talaffuz osonligi. Talaffuz uchun eng qulay nomlarda undosh unli bilan yoki oson talaffuz qilinadigan ikkita undosh almashinib keladi.

Masalan: Aminazinum, Ditrazinum, Streptocidum, Corvalolum.

III. Berilgan nomning boshqa nomlardan fonetik – grafik farqlanishi.

Yangi dorivor vositaga nom berishda nomenklatura komissiyasi uning talaffuz qilinishi va yozilishi bo‘yicha boshqa nomlardan farqlanishni kuzatib boradi. Nomlarda tez-tez takrorlanadigan bo‘laklarni ishlatish fonetik – grafik farqlanishni kamaytiradi.

Masalan: Methaminum, Methacinum, Methazidum, Phenadonum, Phenaminum.

IV. Tez- tez takrorlanadigan bo'laklarning qo'llanishi aniqligi. Har bir tez-tez takrorlanadigan bo'lak o'zining aniq manosi(ahamiyati)ga ega ekan, yangi nomlar berilayotganda tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni qo'llashda xatoga yo'l qo'ymaslikni kuzatib borish zarur, chunki bunday xatolar vrach va farmatsevtlardagi noto'g'ri tasavvurga sababchi bo'lishi mumkin.

57-§. IV tipik guruh. Dorivor moddalarning xalqaro patentlanmagan nomlari

Bugungi kunda turli davlatlarda ishlab chiqarilayotgan bitta dorivor vosita savdoga har xil nom bilan kirib kelmoqda. Hatto bir davlatdagi turli firmalar ham bitta dorivor vositani har xil nomlar va mahsulot belgilari bilan ishlab chiqarmoqda. Bu esa dorivor vositalarning sinonimlarini ko'payishiga olib keladi.

Masalan: "Pyrantel" dorivor vositasining **Bifantrel, Cobantril, Combantrin, Helmex, Helmintox, Medintel, Nemocid, Pamex, Pamotrin** va boshqa sinonimlari bor.

Ma'lumki, dorivor vositalar nomlari II turlanishdagi sredniy roddagi otlarga (**Nom.Sing. -um**) kiradi. Lekin ayrim dorivor vositalarning nomlarida **-um** qo'shimchasi yo'q. Bunday dorivor vositalarning nomlari retseptlarga II turlanishdagi otlarning qoidasiga binoan yoziladi, ya'ni:

Rp: Agupirani

Rp: Combantrini

Bugungi kunda jahonda mavjud bo'lgan 7000ga yaqin dorivor vositalarning 70000ga yaqin nomlari mavjud. Har yili xalqaro patentlanmagan nomlar ro'yxati 120dan 150 tagacha nomga ko'payib bormoqda. Dorivor vositalar nomlarining sinonimiyasi salbiy tomonga ega. Dorivor vositalarning umumiy xalqaro nomlari sinonimiyani kamaytirishga yordam beradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization; qisqacha-WHO) qoshida dori moddalariga xalqaro nom berish ishlarini boshqaruvchi maxsus (International Nonproprietary Names For Pharmaceutical Substances; qisqacha-INN) qo'mita mavjud. Xalqaro nomlardan shu dorivor moddani ishlab

chiqaruvchi davlat yoki firma foydalanishi mumkin. Bu nomlar patentlanmagan. Davlat farmakopeyasida patentlanmagan xalqaro nomlar (XPN) sinonim sifatida albatta maxsus belgi * bilan ko'rsatiladi.

Dori moddalariga xalqaro nom beruvchi maxsus qo'mita tomonidan «Dorivor moddalarning patentlanmagan xalqaro nomlarini tuzish uchun amal qilinishi lozim bo'lgan asosiy prinsiplar» ishlab chiqildi.

Bosh prinsiplarga asosan XPN talaffuz qilishda va yozishda oson ajratiladigan bo'lishi kerak. Ular uzun bo'lmasligi yoki umumiy qo'llanishda foydalanib kelinayotgan nomlar bilan adashtirib yuborilmaydigan bo'lishi lozim.

Farmalogik jihatdan yaqin bo'lgan guruhga taalluqli moddalar uchun XPN ushbu taaluqlikni ko'rsatishi lozim.

Dorivor moddalarning patentlanmagan xalqaro nomlari Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining "WHO Drug Information" jurnalida to'rtta tilda quyidagi ketma-ketlikda yoziladi: lotincha, inglizcha, fransuzcha va ispancha.

Lotincha	Inglizcha	Frantsuzcha	Ispancha
laronidasum	laronidase	laronidase	laronidasa
amotosalenum	amotosalen	amotosalene	amotosaleno

58-§. Alkaloidlar va glikozidlar nomlanishi

Hamma o'simliklar tarkibida har xil biologik aktiv moddalar saqlanadi. Ularga alkaloidlar, glikozidlar va boshqalar kiradi. Alkaloidlar va glikozidlar nomi odatda o'simlik nomini ifodalovchi otning negiziga *-in (um)* suffiksini qo'shish bilan hosil qilinadi.

Masalan: Ephedrinum – efedrin. **Ephedra** – o'simligining nomiga – *inum* suffiksini qo'shish yo'li bilan hosil qilindi.

Agar bir o'simlikdan ikki yoki undan ortiq alkaloidlar olingan bo'lsa, unda ularning nomi bo'ginlar qo'shish orqali yasaladi.

Masalan: *Salsola Richteri* o'simligidan olingan ikkita alkaloid nomi **Salsolinum**-salsolin va **Salsolidinum**-salsolidin (-*id* suffiksini qoshish yoli bilan) deb nomlangan.

59- §. Vitaminlar va fermentlar nomlanishi

Vitaminlar (lot. *vita*-hayot) – odamning o'sishi, rivojlanishi va hayot faoliyati uchun zarur elementlardir.

Vitaminlar trivial nomlar (Retinolum, Thiaminum) bilan bir qatorda harfli belgilarga ega: **A, B, D, E, K, H, P.**

Bitta harf bilan belgilangan ayrim vitaminlar bir-biriga yaqin, lekin har xil birikmalar bo'lsa, ularning harfli belgisiga tartib soni qo'shiladi.

Masalan: vitaminum B₁
vitaminum B₂
vitaminum B₆
vitaminum B₁₂

Vitaminlar nomidagi motivasiya belgilari turlicha. Ba'zilar vitaminlarning kimyoviy tarkibini ko'rsatadi.

Masalan: Thiaminum(B₁),
Pyridoxinum(B₆),
Cyanocobalaminum (B₁₂).

Boshqalari esa terapevtik samaradorlikni ko'rsatadi.

Masalan: A vitamini Retinolum (lot. *retina* – ko'z to'r pardasi) nomi bilan ma'lum. A vitamini miqdori yetarli bo'lmasa ko'z to'r pardasining yallig'lanishiga olib keladi.

Kombinatsiyalashtirilgan vitamin preparatlari ko'pincha – vit – tez- tez takrorlanadigan bo'lak bilan uchraydi.

Masalan: Dragees "Undevitum"

Dragee «Undevitum» (lotincha son *undecim* – 11, chunki draje tarkibiga boshqacha kombinatsiyadagi 11 ta vitamin kiradi).

Fermentlar nomi biokimyoviy nomenklaturaga binoan – as-suffiksi yordamida hosil bo'ladi.

Masalan: Lydasum, Ronidasum.

60-§. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni yod oling!

Tez-tez takrorlanadigan bo'lak	Ma'nosi	Misollar
-cor-, -card (i)-	yurakka tasir etuvchi	Corvalolum Cardiovalenum
-vas-, -ang (i)-	qon tomirlarini kengaytiruvchi	Divascol
-alg-, -dol-	og'riq qoldiruvchi	Analginum Pinadolinum
-pres(s)-, -ten(s)-	gipertoniya qarshi	Apresolon Regutensin
-cain-	mahalliy og'riqsizlantiruvchi	Dicainum
-sulfa-	mikroblarga qarshi sulfanilamidlar	Norsulfazolum
-fur (a)	mikrobga qarshi nitrofuranning unumlari	Furoplast
-cillin-	antibiotik penitsillinlar	Penicillinum
-mycin-	mikrobga qarshi antibiotiklar, Streptomycin va boshqa zamburug' ishlanmalaridan olinadigan mikrobga qarshi	Streptomycinum
-cyclin-	antibiotik tetratsyklar	Tetacyclinum
-cef- (-ceph-)	tsefalosporin guruhiga kiruvchi antibiotiklar	Cefotaximum
-barb-	barbituratlar, uxlatadigan, narkotik, barbiturat kislotasining unumlari, hosilasi	Barbenyl
-hypn-, -dorm-	uxlatadiganlar	Hypnomidate Dormicum

-sed-	sedativ, tinchlantiruvchi	Sedalgin
cut(i)- -derm-	teri kasalliklarini davolash uchun	Cuterid Dermazin
-vit-	vitamin saqlaydiganlar	Undevitum
-as -	fermentlarga tegishli	Amylasum

Mashqlar

1. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini (ma'nosini) ko'rsating.

Depridol, Algolysin, Bicillinum, Lanocordalum, Furacilinum, Ferrocalum, Viprosalum, Barbenyl, Allergol, Pyromecainum, Cardigin, Anginal, Capresin, Dibazolom, Lipasum, Hendevitum, Apressinum, Phenoxymethylpenicillinum, Cefamezinum, Ribovitalum, Sovcainum, Tetracor, Tenormal, Anacardiol, Phenaminum, Valocormidum, Dolgit, Barbamylum, Xycainum, Conferon, Tetracyclinum, Streptomycinum, Dermatolum, Cordalen, Carminomycinum, Analginum, Psorcutan, Prodorm, Vasocil, Presinol, Methindionum, Naphthyzinum, Sulfamonomethoxinum, Dicainum, Phenobarbitalum, Cardiazol, Novocainum, Norsulfazolom, Vasculat, Furoplast, Diazolinum, Valocordin, Allercur, Nepressol, Methicillinum, Furosemidum, Vasolanum.

61 -§. Quyidagi dorivor preparatlar nomlarini yod oling!

Furacilinum, i, n – furatsilin
 No – spa, ae, f – no – shpa
 Valocordinum, i, n – valokordin
 Cordiaminum, i, n – kordiamin
 Analginum, i, n – analgin
 Validolum, i, n – validol
 Depressinum, i, n – depressin
 Novocainum, i, n – novokain
 Dicainum, i, n – dikain
 Synthomycinum, i, n – sintomitsin

Tetracyclinum, i, n – tetratsiklin
Phenoxymethylpenicillinum, i, n – fenoksimetilpenitsillin
Erythromycinum, i, n – eritromitsin
Streptomycinum, i, n – streptomitsin

Mashqlar

2. *Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Recipe: Oxacillini-natrii 0,25

Da numero 40 in capsulis gelatinosis.

Signa: Kuniga 4 marta 2 ta kapsuladan qabul
qilinsin.

2. Recipe: Novocaini 0,5

Aquae destillatae 200 ml

Misce. Da.

Signa: 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3. Recipe: Linimenti Synthomycini 1% cum Novocaino 0,5%
25

Da.

Signa: Kuniga 1 marta kuygan joyga surtilsin.

3. *Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.*

1. Ol: Tetratsiklin surtmasi 0,2% 25,0

Ber.

Belgila: Surtma

2. Ol: Kardiovalen 15 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 1-2 marta 15-20 tomchidan ichilsin.

3. Ol: Geksametilentetramin 0,25

Belladonna ekstrakti 0,015

Shunday dozalarda 10 (son) ta tabletkalarda ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

Uyga vazifa

I. «Dorivor preparatlarga trivial nomlarni berish qoidalari. IV tipik guruh. Dorivor moddalarning xalqaro patentlanmagan nomlari. Alkaloidlar va glikozidlar nomlanishi. Vitaminlar va fermentlar nomlanishi» mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Dorivor preparatlarning trivial nomlari qanday talablarga mos kelishi kerak?

2. Dorivor preparatlarning trivial nomlari bo'yicha belgilangan to'rtta talabni aytib bering.

3. Dorivor preparatlar nomlarining jahon sinonimiyasi deganda nimani tushunasiz?

4. Sinonimiyani kamaytirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

5. Dori moddalariga xalqaro nom berish ishlarini qaysi tashkilot amalga oshiradi?

6. XPN va INN; JSST va WHO abbreviaturalari nimani anglatadi?

II. 60,61-§ lardagi tez – tez takrorlanadigan bo'laklar va dorivor preparatlar nomlarini yod oling.

III. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko'rsating.

Methylmelubrinum, Aethacizinum, Algofenum, Dolicaicum, Dormicum, Prestarium, Erythromycinum, Vasaginum, Tensicor, Hexamethonium, Laevomycesinum, Cordiaminum, Cyclamycinum.

IV. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Sulfocamphocaini 10% 2 ml

Da tales doses numero 6 in ampullis.

Signa: Mushaklar orasiga 2 ml. dan yuborilsin.

2. Recipe: Validoli 0,05 in capsulis numero 20.

Da.

Signa: Kuniga 2-4 marta 1 ta kapsuladan qabul qilinsin.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Amylum Solani, Amylum Triticum, Amylum Maydis, Amylum Oryzae, Althaea officinalis, folia Plantaginis majoris, herba Plantaginis psyllii recens, Thalli Laminariae, Laminariae saccharina, Laminaria digitata, Linum usitatissimum, Tussilago farfara, gummi Tragacanthae, Astragalus pileocladus, Astragalus microcephalus, gummi Armeniacae, Armeniaca vulgaris, fructus Ribis nigri, Fragaria vesca, Sorbus aucuparia, Hippophaë rhamnoides, Calendula officinalis, Urtica dioica, stigmatis Zeae maydis, cortex Viburni, Lagochilus inebrians, Capsella bursa pastoris, Theobroma cacao, Ricinus communis, Amygdalus communis, Persica vulgaris, Armeniaca vulgaris, Prunus domestica, Prunus divaricata, Olea europaea, Zea mays, Helianthus annuus, Linum usitatissimum, Gossypium, oleum jecoris Aselli, Cera flava, Cetaceum, adeps Lanae, Mentha piperita, Salvia officinalis, Eucalyptus viminalis, Eucalyptus cinerea, Carum carvi, Pyrethrum carneum, Pyrethrum cinerariae.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Nil desperandum.

Hech qachon umidsiz bo'lma.

2. Semfer avarus eget.

Xasisning qorni to'ysa ham ko'zi to'ymaydi.

14-DARS

Mavzu: V tipik guruh. Dorivor vositalar (preparatlar) ning savdo nomlari. Savdo nomlarida so‘zlarning yasalishi

62-§. V tipik guruh. Dorivor vositalar (preparatlar) ning savdo nomlari

Savdo nomi (ingl. Trade Name) – bu savdo uchun mo‘ljallangan preparat (tayyor dorivor vosita) nomidir.

Ishlab chiqaruvchi tomonidan taklif qilingan savdo nomi undan foydalanishga rasmiy ruxsatni olishi zarur. Belgilangan rasmiy savdo nomi berilgan dorivor vosita qonunchilikka muvofiq ro‘yxatga olingan bo‘lishi lozim. Shundan so‘ng dorivor vosita unga berilgan savdo nomi ostida Dorivor vositalarning davlat ro‘yxatiga kiritiladi.

Savdo nomlarining kelib chiqish manbalari turlicha. Bular bir xil dorivor substantsiyali preparatlarni turli ishlab chiqaruvchilari tomonidan qo‘llanadigan umumiy, nopatentlangan nomlar, shuningdek aniq ishlab chiqaruvchi firma tomonidan qo‘llanadigan individual firma nomlaridir. Firma nomlari patentlangan va nopatentlangan bo‘ladi.

Umumiy savdo nomlarining kelib chiqish manbalari – bu odatda yoki XPN, yoki alohida mamlakat yoki mamlakatlar guruhida qabul qilingan milliy (farmakopeya) nomdir.

Masalan: Diclofenacum (INN): Germaniya, Hindiston, Isroil, Italiya, Makedoniya, Polsha, Yugoslaviyada; Nifedipinum (INN): Angliya, Germaniya, Bolgariya, Polsha, Xorvatiya, Shvesiyada.

Ayrim dorivor vositalarning savdo nomlarida shu preparat to‘g‘risida axborot beruvchi qadimgi yunon va lotin tilidagi so‘z yasovchi qo‘shimchalar uchraydi.

Masalan:

Venitan (lotincha vena – vena, ko'k tomir)
Pulmex (lotincha pulmo- opka)
Prododerm (yunoncha derma - teri)
Febichol (yunoncha chole- ot, safro)

Anatomik va fiziologik
xususiyatlarini ko'rsatish
uchun

Laxatin (lot. laxativum-surgi, ich suradigan)
Allergodil - allegiyaga qarshi
Orto-gynest (yunoncha gyne-ayol)-estrogen
Antithrombinum (yunoncha thrombos-quyuq-
lashish, ivish)-qon ivishiga qarshi vositalar

Farmakoterapevtik ta'sirini
ko'rsatish uchun

Senade (lot.Senna-sano)- sano
o'simligidan tayyorlangan preparat

preparat tayyorlangan
manbani ko'rsatish
uchun

63-§. Savdo nomlarida so'zlarning yasalishi

Savdo nomlari mavjud bo'lgan so'z yasash qoidalari va modellaridan farqli ravishda so'z yasashning ma'lum qoidalariga aniq amal qilmasdan shakllanadi. Shunga qaramasdan, so'z yasashning ba'zi usullarini savdo nomlarini berish amaliyotida uchratish mumkin.

1.Asos yoki so'z qo'shish – asos yoki so'zlar birikmasi, ko'pincha biror-bir oxirgi bo'g'inni qo'shish orqali yasaladi. Asos odatda interfiks yordamida birlashadi, ya'ni birlashtiruvchi unli **-o-**, kam hollarda **-i-**, yoki **-a-**.

Masalan:

Valocordinum (lot. *valeo* -sog bo'lish + **-o-** + *cor* , *cordis*-yurak) – Valokordin.

Myelosanum (yunoncha *myelos* – miya+ lot. *sano*-davolash) – Miyelosan.

2. **Abbreviatsiya** (lot. *abbrevio*-qisqartirmoq) – dastlabki soʻz elementlarini qoʻshish yoli bilan qisqartma soʻz (abbreviaturalar) hosil boʻlishidir.

Masalan:

Calciparinum – *Calcium* + *Heparinum*

Corinfar – *cor* (lot.) – yurak + *infarctus* – infarkt

3. **Suffiksatsiya** – suffiksning asosga biror bir maʼno keltirib chiqarish uchun birlashishidir.

Savdo nomlarida quyidagi suffikslar kop qollaniladi:

-in – suffiksi koʻpincha kimyoviy mazmundagi asoslarga qoʻshiladi: Isadrinum-Izadrin, Clophelinum-Klofelin, Ditrazinum-Ditrazin.

Savdo nomenklaturasida – **in** – suffiksi maxsus maʼnoga ega emas.

Masalan: Fungilin, Fulcin, Octadin.

Boshqa suffikslar:

-al-	Abaktal, Almiral, Bronal
-ol-	Aloprol, Asectol, Dopanol
-el-	Dicetel, Divigel, Quamatel
-an-	Advantan, Domenan, Vistagan
-on-	Gutron, Haemiton, Dexason
-en-	Voltaren, Dilren, Vaskoten
-il-, -yl-	Retabolil, Donormil, Biacodyl, Amaryl
-ax-, -ex-,	va h.k.
-ix-, -ox-	

4. **Prefiksatsiya** – soʻz oʻzagi(asosi)ga prefikslar (old qoʻshimchalar) qoʻshilishi.

Ayrim hollarda savdo nomlarida lotin-yunon prefikslari uchrab, ular kasallik yoki uning sababi, yoki kasallik qoʻzgʻatuvchisini bildiradigan oʻzak (asos) lar bilan muvofiqlashgan boʻladi, hamda ularni bartaraf qilish harakatlarini koʻrsatadi:

anti-, contra- – qarshi;

a-, an- – inkor etish;

de (s)- – dan.

Masalan:

Antithrombinum (*anti* + yunoncha *thrombos*-quyqa+ *in*) – Antitrombin – ivishga qarshi

Contraspasminum (*contra*+yunoncha *spasmos*-tomir tortirish, spazm + *in*) – Kontraspazmin – bronxlarni kengaytiruvchi

Abaktal (*a* + *bacterium*+ *al*) – Abaktal – antibacterial

Decaris (*de* + *ascaris* -askarida) – Dekaris – gijjalarga qarshi.

Savdo nomlarida preparatlarning samaradorligini takidlaydigan prefikslar ham uchraydi.

Masalan:

super-, supra-(lot.) – ziyod;

ultra- – ортик, ziyod;

eu (yunoncha) – yaxshi

Suprastin (*supra* + yunoncha *asthma, asthmatic-* bog'ilish, astma+ *in*)-

Suprastin – astmaga qarshi, allergiyaga qarshi

Ultraproct (*ultra*+ yunoncha *proctos* – orqa chiqaruv teshigi)-

Ultraprokt-bavosilni davolash uchun

Eunocin (*eu* + *lot.nox, noctis-* tun)–Eunoktin – uyqu dori.

64-§. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni yod oling!

Tez-tez takrorlanadigan bo'lak	Ma'nosi	Misollar
-allerg-	allergiyaga qarshi	Allergol
-verm- -helm-	gijjaga qarshi	Univerm, Helmintin
-lax-	surgi	Acetolax
-stress- -tranqu- -ze (a,i) pam-	psixosedativ trankvilizatorlar, antidepressantlar	Tranquipanum, Phenazepamum
-chol- -bil-	o't haydovchi	Cholosasum, Bilergen

-trast- -gnos- -graf-	diagnostik, rentgenokonstrast	Choletrast, Bilignostum, Cardiografın
-ur-	siydik haydovchi	Diurometan
-flog-, -phlog-	yallig'lanishga qarshi	Flogodin
-vom- -emet-	qusishga qarshi	Vomidrine
nas- r(h)in-	burun kasalliklarni davolash uchun	Nasonex, Rhinil
oc-, ok-, oc(u)- opht(h)alm- opht(h)- oft- opt(ic)-	ko'z kasalliklarini davolash uchun	Octilia, Okacin, Ocupress, Ophthalmaseptonex, Digophton, Oftensin, Betoptic
-abol	anabolik steroidlar (organizmda oqsil sinte- zini stimullashtiradi)	Sterabol
-oestr	estrogen preparatlar (ayollar jinsiy gormonlarining preparatlari)	Aethyloestradiolum

Mashqlar

1. Tez – tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini yozing.

Pentalgin, Algopyrin, Betoxicainum, Quinalgen, Allergan, Bilignostum, Aethyotrastum, Bicolax, Laxin, Cardiotoxin, Apressinum, Cardiovalenum, Allergol, Diuretinum, Urofinil, Urolesan, Allocholum, Methioninum, Carbenicillinum, Corvalolum, Azaphenum, Laboestrin, Bisalax, Aprophenum, Trimecainum, Diabil, Erythromycinum, Flogistin, Avermex, Biliminum, Urotrast, Salurin, Sulfacylum–natrium, Vipraxinum,

Furadoninum, Ferroceronum, Fercovenum, Nozepamum, Vomidrine, Tranquipanum, Dormital, Rinza, Nasivin, Sedamyl, Cholan, Anastress, Vermox, Verophen, Tetracor, Cholevid, Sedalginum, Bilignostum.

**65-§. Quyidagi dorivor preparatlar nomlarini
yod oling!**

Phenobarbitalum, i, n – fenobarbital

Bromisovalum, i, n – bromizoval

Noxyron, i, n – noksiron

Protargolum, i, n – protargol

Collargolum, i, n – kollargol

Ichthyolum, i, n – ixtiol

Hexamidinum, i, n – geksamidin

Resorcinum, i, n – rezorsin

Pepsinum, i, n – pepsin

Amidopyrinum, i, n – amidopirin

Antipyrinum, i, n – antipirin

Thecodinum, i, n – tekodin

Themisalum, i, n – temizal

Anaesthesinum, i, n – anestezin

Mashqlar

2. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe:Cordigiti 0,0008

Da.

Signa:Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul
qilinsin.

2. Recipe:Unguenti Penicillini 10,0

Da.

Signa: Terining zararlangan joyiga surtish uchun.

3. Recipe:Dragee Diazolini 0,05

Da tales doses numero 20.

Signa:Kuniga 3 marta ovqatdan keyin 1 ta drajedan qabul qilinsin.

4. Recipe:Methionini 0,6

Dentur tales doses numero 12 in oblatiis

Signetur:Kuniga 3 marta ovqatdan 1 soat oldin qabul qilinsin.

5. Recipe:Cyclobarbitali 0,2

Da in tabulettis numero 10.

Signa: Kechasiga yarim tabletkadan qabul qilinsin.

3. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Anestezin surtmasi 5% li 10,0

Ber.

Belgila: Sirdan ishlatish uchun.

2. Ol: Furatsilin 0,1

20 (son)ta tabletkalarda ber.

Belgila:Kuniga 4 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

3. Ol: Sulfapiridazin 0,5

Shunday dozalarda 10 (son)ta tabletkalarda ber.

Belgila: Birinchi kun 1 marta 2-4 ta tabletkadan va qolgan kunlari 1ta tabletkadan qabul qilinsin.

4. Ol: Tetratsiklin surtmasi 0,2%

Ber.

Belgila: Surtma.

5. Ol: Tifen drajesi 0,03 25 ta

Ber.

Belgila: Kuniga 2-3 marta 1 ta drajedan qabul qilinsin.

Uyga vazifa

1. «V tipik guruh. Dorivor vositalar(preparatlar)ning savdo nomlari. Savdo nomlarida so‘zlarning yasalishi» mavzularini o‘zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko‘ring.

1. Savdo nomi deganda nimani tushunasiz?
2. Savdo nomlarining kelib chiqish manbalarini ayting.
3. Savdo nomlarida soʻzlar qanday yasaladi?
4. Suffiksatsiya, prefiksatsiya va abbreviatsiya deganda nimani tushunasiz?

II. 64,65-§ dagi tez-tez takrorlanadigan boʻlaklar va dorivor preparatlar nomlarini yod oling.

III. Tez-tez takrorlanadigan boʻlaklarni ajrating va ularning ahamiyatini koʻrsating.

Regutensin, Cordiaminum, Exalgin, Stenicardol, Prodorm, Triacillin, Butaflogin, Dibazolium, Thiobutalum, Allercur, Dipidolor, Panangin, Chologonum, Ferroplex, Gentamycinum, Norsulfazolium, Furazolidonum, Olivomycinum, Viperalgin, Phenazepamum, Benzylpenicillinum – kalium, Uregit, Neozepam.

IV. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1.Ol:Sintomitsin emulsiyasi

Ber.

Belgila: Zararlangan joyga surtish uchun.

2. Ol:Naftalan surtmasi 50,0

Ber.

Belgila: Kompresni namlash uchun

3. Ol:Fenol 0,5

Glitserin 10,0

Aralashtir.

Ber.

Belgila: Quloq uchun tomchi.

V. Toʻgʻri oʻqishni oʻrganing!

Aesculus hippocastanum, Dioscorea nipponica, Tribulus terrestris, Dryopteris filix mas, Arctostaphylos uva ursi, Vaccinum vitis idaea, Rhodiola rosea, Schizandra chinensis, Eleutherococcus senticosus, Podophyllum peltatum, Aloë ferox , Aloë succotrina, Aloë arborescens, Rhamnus frangula, Rhamnus cathartica, Rheum palmatum, Rumex confertus, Ribia tinctorum,

Centaurea cyanus, Crataegus sanguinea, Crataegus laevigata, Leonurus quinquelobatus, Sophora japonica, Aronia melanocarpa, Helichrysum arenarium, Tanacetum vulgare, Polygonum aviculare, Polygonum hydropiper, Ononis arvensis, Scutellaria baicalensis, Equisetum arvense, Gnaphalium uliginosum, Bidens tripartita, Hypericum perforatum, Hypericum maculatum, Viola tricolor, Tilia platyphyllos, Ammi majus, Pastinaca sativa, Phlojodicarpus sibiricus, Anethum graveolens, Psoralea drupacea, Melilotus officinalis, Ruta graveolens, Visnaga daucoides, Quercus busitanica, Rus semialata, Cotinus coggygia, Bergenia crassifolia, Sanguisorba officinalis.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Finis coronat opus.

Jo‘jani kuzda sana.

2. Sol lucet omnibus.

Quyosh hammaga barobar.

Mavzu: Murakkab dorivor preparatlarning nomlanishi

66-§. Murakkab dorivor preparatlarning nomlanishi

Murakkab dorivor preparatlar ikki yoki undan ortiq dorivor moddalardan iborat bo‘ladi va ma‘lum dori shaklida (tabletkalar, shamcha, surtma) ishlab chiqariladi.

Murakkab preparatlarning nomi abbreviaturadan iborat bo‘lib, hamma yoki ba‘zi ingrediylarning nomidan ixtiyoriy ajratib olingan bo‘laklardan tashkil topadi.

Masalan: “Pyrcofenum” abbreviaturasi *pyr+co+phen (um)* bo‘laklardan tashkil topgan. Bu bo‘laklar Amidopyrinum, Coffeinum, Phenacetinum kabi preparatlar nomidan ajratib olingan.

Odatda bunday shartli nom dori shaklining ma‘lum ko‘rinishiga biriktirib qo‘yiladi va qo‘shirnoq ichiga **Nominativus Singularis** da yoziladi: tabulettae “Pyrcofenum”, suppositoria “Bethiolum”, dragees “Undevitum”.

Murakkab tarkibli tabletkalar va shamchalardagi «tabletkalar» va «shamchalar» so‘zlari retseptda **Accusativus Pluralis**da yoziladi:

Masalan: Recipe: Tabulettas “Pyrcofenum” numero 10.

Recipe: Suppositoria “Anusolum” numero 20.

Tabletkalar bitta ta‘sir etuvchi moddadan iborat bo‘lsa, dori shaklidan keyin qaratqich kelishigida yoziladi:

Masalan: Recipe: Tabulettae Cordigiti 0,0008

Shamchalar bitta ta‘sir etuvchi moddadan iborat bo‘lsa uning nomi dori shakliga *cum* predlogi bilan Ablativusda yoziladi.

Masalan: Recipe: Suppositoria cum Cordigito 0,0012.

67- §. Quyidagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni yod oling!

Tez-tez takrorlanadigan bo'lak	Ma'nosi	Misollar
-test- -andr- -vir-	androgen steroidlar (erkaklar jinsiy gormonlarining preparatlari)	Testobolin, Androtin, Testoviron
-thyr-	qalqonsimon bezni va qalqonsimon bez yonidagi bezlarni davolash yoki tekshirish uchun preparatlar	Thyrotropinum
-cort- -cortic-	kortikosteroidlar (buyrak usti bezi po'stlog'i ishlab chiqaradigan gormonlarning preparatlari)	Cortigen
-t(h) romb-	1.antitrombotiklar (trombga qarshi) 2.antikoagulyantlar (qon ivishiga qarshi)	Antithrombinum
spasm-	mushaklar qisqarishini davolash uchun	Spasmex
fem- gyn-	ginekologik kasalliklarni davolash uchun	Femodon, Gynipral
-orex-	ishtaha kamaytiradigan	Anorex

Mashqlar

1. O'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) Tabulettae Bromcamphorae
- 2) Tabulettae "Camphotalum"
- 3) Suppositoria "Cefeconum"

- 4) Unguentum Heliomycini
- 5) Suppositoria "Anusolum"
- 6) Tabulettae "Pyraphenum"
- 7) Guttae "Denta"
- 8) Unguentum "Antipsoriaticum"

2. Lotin tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-----------------------------|---------------------------|
| 1. «Dekamevit» tabletkalari | 6. «Apilak» shamchalari |
| 2. «Ankofen» tabletkalari | 7. «Anuzol» shamchalari |
| 3. «Sefekon» shamchalari | 8. «Betioli» shamchalari |
| 4. «Psoriazin» surtmasi | 9. «Askofen» tabletkalari |
| 5 «Sitramon» tabletkalari | 10. «Denta» tomchilari |

3. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajratib va ularning ahamiyatini ko'rsating.

Neodicumarinum, Anabolin, Trombolysan, Gynaegin, Syncumar, Cholan, Cardiovalenum, Flucort, Catapresan, Trombophen, Cardiotoxin, Hexavitum, Ribonucleasum, Danabol, Locacorten, Oestronum, Intencordin, Testosteronum, Agovirin, Corticotropinum, Sterandryl, Androral, Methylandrostendiolum, Primotest, Thyrotropinum, Methyltestosteronum, Testoral, Diodthyrosinum, Thyrotan, Octoestrolum, Bionabol, Decorton, Ronidasum, Cloforex, Oestradiolum, Thyranon, Cortisonum, Desoxyribonucleasum, Trombostop, Tetravitum, Phthorocort, dragees "Decamevitum", Normopressan, Femara.

68- §. Quidagi dorivor preparatlar nomlarini yod oling!

- Nitroglycerinum, i, n – nitroglitserin
- Chloraminum, i, n – xloramin
- Prednisolonum, i, n – prednizolon
- Dermatolum, i, n – dermatol
- Streptocidum, i, n – streptotsid
- Urodanum, i, n – urodan
- Riboflavinum, i, n – riboflavin

Tannalbinum, i, n – tanalbin
Platyphyllinum, i, n – platifillin
Euphyllinum, i, n – eufillin
Plantaglicidum, i, n – plantaglyutsid
Vikasolum, i, n – vikasol
Allocholium, i, n – alloxol

Mashqlar

4. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Ronidasi 5,0

Da.

Signa: Yara uchun sepki.

2. Recipe: Tabulettas "Decamevitum" 1 numero 40.

Da.

Signa: Kuniga 2 marta ovqatdan keyin 1 ta
tabletkadan qabul qilinsin.

3. Recipe: Aristocorti 0,002

Da numero 20 in tabulettis.

Signa: Kuniga 3-4 marta 1-2 ta tabletkadan qabul
qilinsin.

4. Recipe: Tabulettas Oxaphenamidi 0,25 numero 50.

Da.

Signa: Kuniga 3 marta ovqatdan oldin 1 ta
tabletkadan qabul qilinsin.

5. Recipe: Tabulettas Methylandrostendioli 0,025 numero 30.

Da.

Signa: Kuniga 2 marta til ostiga 1 ta tabletkaga
qo'yilsin.

4. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Tifen drajesi 0,03 25 (son)ta

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 ta drajedan qabul qilinsin.

2. Ol: Fenoltalein tabletkalari 0,1 24 (son)ta

Ber.

Belgila:Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

3. Ol:Etinilestradiol tabletkalari 0,0001 10 (son)ta

Ber.

Belgila:Kuniga 1-2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

4. Ol:Tireoidin tabletkalari 0,1 50 (son) ta

Ber.

Belgila:Kuniga 2-3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

5. Ol Diazolin drajesi 0,05 50 (son) ta

Ber.

Belgila:Kuniga 2 marta ovqatdan keyin 1 ta drajedan qabul qilinsin.

6. Ol:A vitamini drajesi 0,05 20 (son) ta

Ber.

Belgila:Kuniga 3-4 marta 1 ta drajedan qabul qilinsin.

7. Ol:Gidro cortizon surtmasi 0,5% 5,0

Ber.

Belgila:Ko'z uchun surtma.

Uyga vazifa

I.«Murakkab dorivor preparatlarning nomlanishi» mavzusini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Murakkab dorivor preparatlar deganda nimani tushunasiz?
2. Murakkab dorivor preparatlar nomi qanday hosil qilinadi?
3. Retseptlarda tabletkalar va shamchalar nomi qanday yoziladi?

II. 67,68-§ dagi tez- tez takrorlanadigan bo'laklar va dorivor preparatlar nomlarini yod oling.

III.Chap ustundagi tez-tez takrorlanadigan bo'laklarning o'ng ustundagi ahamiyatini toping.

- 1) -vit – a) qalqonsimon bezni va qalqonsimon bez

- yonidagi bezlarni davolash yoki tekshirish uchun preparatlar
- | | |
|-------------|---------------------------|
| 2) -test – | b) kortikosteroidlar |
| 3) -thyr – | c) fermentlarga tegishli |
| 4) -cort- | d) vitamin saqlaydiganlar |
| 5) -thromb- | e) androgen steroidlar |
| 6) -as- | f) antitrombotiklar |
| 7) -oestr – | g) anabolik steroidlar |
| 8) -abol – | h) estrogen preparatlar |

IV. Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko'rsating.

Cordigen, Agovirin, Testoenatum, Polyvitaplex, Butaflogin, Penicillinasum, Allercur, Dekavit, Asvitolum, Perandren, Nicotensyl, Sulfacetamidum, Uritol, Contalax, Dipidolor, Cholevid, Androlin, Pabestrol, Angiotrophinum, Tensonal, Stanolon, Laboestrin, Sulfadimezinum.

V. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Tabulettas Menthandrastenolini 0,005 numero 100.

Da.

Signa: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.

2. Recipe: Unguenti Furacilini 0,2 % 25,0

Da.

Signa: Surtma

3. Recipe: Suppositoria cum Cordigito 0,001 numero 10.

Da.

Signa: Kuniga 1-2 marta 1 shamchadan qo'yilsin.

4. Recipe: Decocti baccarum Pini

Infusi Eucommiae ana 0,2 % 25,0

Da.

Signa: Surtma

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Pinus silvestris, *Nuphar luteum*, *Terebinthina communis*,
Oleum Terebinthinae rectificatum, *Pinus pallasiana*,
Cinnamomum camphora, *Ocimum menthaefolium*, *Abies sibirica*,
Pimpinella anisum, *Foeniculum vulgare*, *Trachyspermum ammi*,
Thymus vulgaris, *Thymus serpyllum*, *Origanum vulgare*, *Ocimum gratissimum*,
Camelia sasanqua, *Ledum palustre*, *Chamomilla recutita*,
Matricaria suaveolens, *Arnica chamissionis*, *Inula helenium*,
Artemisia cina, *Betula verrucosa*, *Artemisia absinthium*,
Achillea millefolium, *Acorus calamus*, *Humulus lupulus*,
Capsicum annuum, *Sphaerophysa salsula*, *Ephedra equisetina*,
Ephedra intermedia, *Colchicum speciosum*, *Senecio platyphylloides*,
Senecio rhombiloliis, *Anabasis aphylla*, *Mimosa pudica*,
Thermopsis lanceolata, *Thermopsis alterniflora*,
Thermopsis turkestanica, *Vexibia pachycarpa*, *Securinega suffruticosa*,
Hupersia selago, *Atropa caucasica*, *Hyoscyamus niger*,
Datura stramonium, *Datura innoxia*, *Scopolia carniolica*,
Cinchona succirubra, *Salsola richteri*, *Chelidonium majus*,
Glaucium flavum.

16- DARS

Mavzu: Sifat. I–II turlanishdagi sifatlar. Moslashgan aniqlovchi. I–II turlanishdagi sifatlarning I, II turlanishdagi otlar bilan moslashuvi

69 -§. Sifat

Predmetning belgisini bildirib, **qanday? qanaqa?** savollariga javob bo'lgan so'z turkimiga sifat deyiladi. Lotin tilida sifatlar ikki guruhga bo'linadi:

I guruh – I – II turlanishdagi sifatlar

II guruh – III turlanishdagi sifatlar.

70 -§. I–II turlanishdagi sifatlar

I-II turlanishdagi sifatlariga mujskoy rod **-us** yoki **-er**, jenskiy rod **-a** va sredniy rod **-um** qo'shimchasiga ega bo'lgan sifatlar kiradi.

Masalan: albus, alba, album- oq

Lug'atda sifatlar mujskoy rod shaklida yoziladi va so'zning yonida jenskiy hamda sredniy rodlar qo'shimchasi ko'rsatiladi.

Masalan: albus, a, um-oq

niger, gra, grum- qora.

-er qo'shimchasi bilan tamomlanadigan ba'zi sifatlar jenskiy va sredniy rodlarni hosil qilishda – **e** harfini yo'qotadi, ba'zilari esa saqlab qoladi.

Masalan: niger, nigra, nigrum – qora

somnifer, somnifera, somniferum – uxlatadigan.

71-§. Sifatlarning kelishiklar bo'yicha turlanishi

Mujskoy roddagi sifatlar II turlanish mujskoy roddagi otlar singari, jenskiy roddagi sifatlar I turlanishdagi otlar singari, sredniy roddagi sifatlar II turlanish sredniy roddagi otlar singari turlanadi.


Turlanish namunasi

Casus	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	albus	alba	album	albi	albae	alba
Gen.	albi	albae	albi	alborum	albarum	alborum
Dat.	albo	albae	albo	albis	albis	albis
Acc.	album	albam	album	albos	albas	alba
Abl.	albo	alba	albo	albis	albis	albis

Casus	Singularis			Pluralis		
	m	f	n	m	f	n
Nom.	niger	nigra	nigrum	nigri	nigrae	nigra
Gen.	nigri	nigrae	nigri	nigrorum	nigrarum	nigrorum
Dat.	nigro	nigrae	nigro	nigris	nigris	nigris
Acc.	nigrum	nigram	nigrum	nigros	nigras	nigra
Abl.	nigro	nigra	nigro	nigris	nigris	nigris

72-§ . Moslashgan aniqlovchi

Lotin tilida sifat otdan keyin turadi va u bilan rod, son va kelishikda moslashadi. Moslashgan aniqlovchili atamani lotin tiliga tarjima qilishda avval uning shartli tasvirini tuzamiz.



Atamani quyidagicha tarjima qilamiz.

1. Otni topib, uning rodini aniqlaymiz:

tinctura , ae , f – jenskiy rod

2. Sifatning lug'at shaklini aytamiz va otga mos rodini tanlaymiz:

amarus, a, um; amara – jenskiy rod

Atamaning tarjimasini **Nom.** va **Gen.** da yozamiz:

Nom. tinctura amara

Gen. tincturae amarae.

73 -§. I–II turlanishdagi sifatlarning I, II turlanishdagi otlar bilan moslashuvi

Esda tuting! *Ot+sifat= kelishik, rod, son.*

gutta pura – toza tomchi

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	gutta pura	gutt-ae pur-ae
Gen.	gutt-ae pur-ae	gutt-arum pur-arum
Dat.	gutt-ae pur-ae	gutt-is pur-is
Acc.	gutt-am pur-am	gutt-as pur-as
Abl.	gutt-a pur-a	gutt-is pur-is

sirupus albus – oq sharbat

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	sirupus albus	sirup-i alb-i
Gen.	sirup-i alb-i	sirup-orumalb-orum
Dat.	sirup-o alb-o	sirup-is alb-is
Acc.	sirup-um alb-um	sirup-os alb-os
Abl.	sirup-o alb-o	sirup-is alb-is

extractum siccum – quruq ekstrakt

Casus	Sing.	Plur.
Nom.	extractum siccum	extract-a sicc-a
Gen.	extract-i sicc-i	extract-orum sicc-orum
Dat.	extract-o sicc-o	extract-is sicc-is
Acc.	extract-um sicc-um	extract-a sicc-a
Abl.	extract-o sicc-o	extract-is sicc-is

74 -§.Quyidagi sifatlarni yod oling!

- albus, a, um – oq
 flavus, a, um – sariq
 luteus, a, um – sariq
 coeruleus, a, um – ko'k, zangori
 cinereus, a, um – kulrang
 purpureus, a, um – qip-qizil, to'q qizil
 niger gra, grum – qora
 amarus, a, um – achchiq
 purus, a, um – toza
 externus, a, um – tashqi
 internus, a, um – ichki
 fluidus, a, um – suyuq
 liquidus, a, um – suyuq
 siccus, a, um – quruq
 spissus, a, um – quyuq
 frigidus, a, um – sovuq
 compositus, a, um – murakkab
 gelatinosus, a, um – jelatinli
 medicatus, a, um – tibbiyot –i,-si
 vivus, a, um – tirik
 sanus, a, um – sog'lom
 rotundus, a, um – yumaloq
 tepidus, a, um – iliq
 grossus, a, um – yirik

Mashqlar

1. *Quyidagi sifatlarning jenskiy va sredniy rod shakllarini ayting.*

- | | |
|----------------|---------------|
| 1) amarus | 7) flavus |
| 2) siccus | 8) grossus |
| 3) purus | 9) compositus |
| 4) spissus | 10) niger |
| 5) gelatinosus | 11) frigidus |
| 6) ruber | 12) liquidus |

2. *Sifatni otga moslashtiring va atamalarini o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) cera (albus, a, um)
- 2) Glycerinum (purus, a, um)
- 3) emulsum (albus, a, um)
- 4) extractum (fluidus, a, um)
- 5) Amygdala (amarus, a, um)
- 6) bacca (grossus, a, um)
- 7) tinctura (amarus, a, um)
- 8) aqua (frigidus, a, um)
- 9) bacca (siccus, a, um)
- 10) infusum (compositus, a, um)
- 11) massa (purus, a, um)
- 12) remedium (externus, a, um).

3. *Atamalarining shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.*

- | | |
|-----------------------------------|---------------------|
| 1) sariq mum | 6) murakkab damlama |
| 2) toza vazelin | 7) quyuq ekstrakt |
| 3) kulrang surtma | 8) yirik tabletk |
| 4) qora mingdevona | 9) ichki vosita |
| 5) sariq (luteus, a, um) gazako't | 10) tashqi vosita |

4. *O'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Cera alba in aqua non solvitur. 2. Praeparate infusum ex baccis siccis Juniperi. 3. Dilute Glycerinum purum ad aqua. 4. Medicamenta amara in capsulis sumuntur. 5. Unguenta et linimenta sunt remedia externa. 6. China est medicamentum

amarum.7.Praeparate infusum compositum. 8.Tinctura Valerianae est remedium internum.

5. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe:Tincturae amarae 10 ml
Tincturae Strychni 5 ml
Misce. Da.
Signa:Kuniga 3 marta ovqatlanishdan oldin 20 tomchidan ichilsin.
2. Recipe:Methyleni coerulei
Da in capsulis gelatinosis.
Signa:Kuniga 2 marta 1 ta kapsuladan qabul qilinsin.
3. Recipe:Streptocidi albi 0,5
Da tales doses numero 20.
Signa:Kuniga 4 marta 1 ta poroshokdan qabul qilinsin.
4. Recipe:Tincturae amarae
Tincturae Rhei ana 15 ml
Misce. Da.
Signa:Kuniga 3 marta 20-30 tomchidan ichilsin.
5. Recipe:Extracti Eucommiae fluidi 25 ml
Da.
Signa:Kuniga 2-3 marta 15-30 tomchidan ichilsin.

6. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol:Qoqi nastoykasi
Achchiq nastoyka teng miqdorda 10 ml. dan
Kuchala nastoykasi 5 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila:Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.
2. Ol:Oq gil 100.0
Ber.
Belgila:Yarim stakan suvga 1-2 osh qoshiq solib, iste'mol qilinsin.
3. Ol:Sanoning murakkab damlamasi 30,0
Ber.
Belgila: Bir marta iching.

4. Ol:Sano barglari 10,0

Ber.

Belgila:Choyga o'xshab damlansin va 1 osh qoshiqdan qabul qilinsin.

5. Ol:Temisal 4,0

Yalpiz suvi

Distillangan suv teng miqdorda 30 ml

Aralashtir. Ber

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan qabul qilinsin.

7. ***“Sifat” mavzusi bo'yicha klaster tuzing.***

Uyga vazifa

I. «Sifat. I–II turlanishdagi sifatlar. Moslashgan aniqlovchi. I–II turlanishdagi sifatlarning I, II turlanishdagi otlar bilan moslashuvi» mavzularini o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Sifatlar nechta guruhga bo'linadi?

2. Qaysi sifatlar I-II turlanishga kiradi?

3. Sifatlarning lug'at shakli qanday yoziladi?

4. I-II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

5. Moslashgan aniqlovchi deganda nimani tushunasiz?

6. I-II turlanishdagi sifatlar I, II turlanishdagi otlar bilan qanday moslashadi?

II. 74-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

1) flavus, a, um

a) suyuq

2) internus, a, um

b) yirik

3) fluidus, a, um

c) quruq

4) purus, a, um

d) oq

5) siccus, a, um

e) kulrang

6) niger, gra, grum

f) sariq

7) cinereus, a, um

g) toza

- | | |
|-----------------------|-------------|
| 8) albus, a, um | h) murakkab |
| 9) grossus, a, um | i) ichki |
| 10) compositus, a, um | j) qora |

IV. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) oq streptotsid
- 2) sariq vazelin
- 3) achchiq bodom
- 4) sovuq suv
- 5) oq mum

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Corticotropinum, Genotropin, Octrotide, Calcitonin, Gonadotropinum chorionicum, Desoxycorticosterone Acetate Vanceril, Depersolon, Gonadotropinum menopausticum, Miacalcic, Danazol, Triiodthyronini hydrochloridum, Mercazolilum, Kalii perchloridum, Glucagon, Calcitrium, Dihydratichisterolum Locacorten, Pivalate, Carbutamide, Chlorpropamidum, Arumet, Glibenclamide, Gliquidone, Metformin, Metiguanide, Omcilon, Inhacort, Acarbose, Cortisonum, Hydrocortisonum, Glipizide, Hydrocortisone acetate, Locasalen, Fluticasone propionate, Hydrocortisone hemisuccinate, Triamcinoloni acetonidum, Prednisolium, Methylprednisolone, Dexamethasonum, Rhinocort, Triamcinolonum, Budesonide, Synaflavinum, Flumetasone, Lorinden, Halometasone, Betaderm, Celestoderm, Diprofos, Ultralan, Beclometasoni dipropionas, Becodisc, Rhinosol, Sanasthmyl, Fluxolonate, Dohycamon, Desoxycorticosterone trimethylacetate, Oestronum.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Nihil est tam populare, quam bonitas.
Xalq yahshilikni yuksak qadrlaydi.
2. Pulchre sedens melius agens.
Yetti o'lchab bir kes.


17-DARS

Mavzu: Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida sifatlarning qo'llanilishi. Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlaridagi modellar. Dori vositalarining farmakologik ta'siri bo'yicha guruh nomlanishi


75-§. Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida sifatlarning qo'llanilishi

Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida birinchi o'rinda dori turlari(shakli)ning nomi bosh kelishikda; ikkinchi o'rinda esa moslashmagan aniqlovchi holdagi shu dori turi tayyorlangan dorivor o'simlik yoki dorivor modda nomi qaratqich kelishigida yoziladi; oxirida esa moslashgan aniqlovchi holda kelgan shu dori turini xarakterlovchi sifat turadi.

Masalan:



Shartli tasviri :




Tarjima qilamiz:

Nom. infusum Sennae compositum


Gen. infusi Sennae compositi

Ba'zan dori turlarining murakkab nomlaridagi sifat dori turi nomiga emas, balki dorivor o'simlik nomiga tegishli bo'ladi va unga rodde, sonda hamda kelishikda moslashadi.

Masalan:



Shartli tasviri:



Tarjima qilamiz:

Nom. tinctura Menthae piperitae

Gen. tincturae Menthae piperitae.

76-§. Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlaridagi modellar

Ba'zan dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida shu dori xususiyatini xarakterlovchi sifat moslashgan aniqlovchi holda turadi. Quyida dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlaridagi ayrim modellar berilgan.

1-model. Tabletkalar nomi.

Ularda quyidagi aniqlovchilar ko'p uchraydi:

obductae – po'st (parda) bilan qoplangan

enterosolubiles – ichakda eriydigan

sublinguales – til ostiga qo'yiladigan.

Masalan: Tabulettae Raunatini obductae – raunatinning po'st bilan qoplangan tabletkalari.

2-model. Ekstraktlar nomi.

Ularda ekstraktlarning konsistensiyasini ifodalovchi quyidagi aniqlovchilar uchraydi:

fluidum – suyuq

spissum – quyuq

siccum – quruq

Masalan: Extractum Crataegi fluidum – do‘lananing suyuq ekstrakti.

3-model. Bitta asosiy vosita bilan oddiy va murakkab yozuvlar.

Bunday yozuvlarni farqlash uchun quyidagi sifatlari ishlatiladi:
simplex, icis – oddiy

compositus, a, um – murakkab

Masalan: Emplastrum Plumbi simplex – qo‘rg‘oshinning oddiy malhami

Emplastrum Plumbi compositum – qo‘rg‘oshinning murakkab malhami

4-model. Gomeopatik preparatlar.

Murakkab tarkibli gomeopatik preparatlarning nomlari ko‘pincha otlardan tashkil topib, birinchisi dorivor vosita tarkibiga kiruvchi o‘simlik yoki hayvon organining nomi, ikkinchi esa *compositum* (manosi -murakkab dorivor vosita) so‘zi bo‘lib, u sredniy roddagi otlarga kiradi.

Masalan: Echinacea compositum
Tonsilla compositum.

77-§. Dori vositalarining farmakologik ta‘siri bo‘yicha guruh nomlanishi

Organizmga bir xil ta‘sir ko‘rsatadigan dorilar farmakologiyada guruhlariga bo‘linadi va ular sifat ko‘rinishida bo‘lib, dorilarning farmakologik ta‘sirini tariflaydi.

Masalan: remedia analgetica – og‘riq qoldiruvchi vositalar
remedia cardiaca – yurakka tegishli vositalar
remedia cholagoga – o‘t (safro) haydovchi vositalar.

78-§. Quyidagi so‘zlarni yod oling!

gelatinosus, a, um – jelatinli

camphoratus, a, um – kamforali

isotonicus, a, um – izotonik
gastricus, a, um – oshqozon -i (-si)
stomachicus, a, um – oshqozon -i (-si)
durus, a, um – qattiq, mustahkam
aquosus, a, um – suvli
hydricus, a, um – suvli
anhydricus, a, um – suvsiz
oleosus, a, um – moyli
spirituosus, a, um – spirtli, spirtga tegishli
chartaceus, a, um – qog'ozli, qog'ozdan qilingan
amylaceus, a, um – kraxmalli, kraxmalga tegishli
aethereus, a, um – efirli
aethylicus, a, um – etil -i (-si)
suillus, a, um – cho'chqa -i (-si)
arenarius, a, um – qumli, qumloq
piperitus, a, um – qalampir -i(-si)
cardiacus, a, um – yurakka ta'sir etuvchi
laxativus, a, um – ich suradigan, surgı
diureticus, a, um – siydik haydovchi
cholagogus, a, um – o't haydovchi, o't haydaydigan
diaphoreticus a, um – terlatuvchi
analgeticus, a, um – og'riqni qoldiruvchi
anaestheticus, a, um – og'riqsizlantiruvchi
antipyreticus, a, um – issiqni pasaytiruvchi
antiasthmaticus, a, um – astmaga qarshi
hypnoticus, a, um – uxlatadigan, uyqu keltiradagan
somniafer, fera, ferum – uxlatadigan, uyqu keltiradigan
narcoticus, a, um – narkotik
broncholyticus, a, um – bronxolitik
spasmolyticus, a, um – spasmolitik
haemostaticus, a, um – qon to'xtatuvchi
sedativus, a, um – tinchlantiradigan

Mashqlar

1. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Extractum Frangulae fluidum
2. Tinctura Rhei amara
3. Extractum Valerianae spissum
4. Folium Menthae piperitae
5. Extractum Althaeae siccum
6. Linimentum Chloroformii compositum

2. Qavs ichidagi sifatni otga moslashtirng va o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) capsula (gelatinosus, a, um)
- 2) emulsum (oleosus, a, um)
- 3) tinctura (aethereus, a, um)
- 4) lanolinum (anhydricus, a, um)
- 5) unguentum (camphoratus, a, um)
- 6) paraffinum (albus, a, um)

3. Sifatdoshlarni otlarga moslashtiring va o'zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) camphora (tritus, a, um)
- 2) aqua (destillatus, a, um)
- 3) acidum (dilutus., a, um)
- 4) serum (purificatus, a, um)
- 5) tabuletta (obductus, a, um)

4. Quyidagi terminlarni shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) ravochning quruq ekstrakti
- 2) qoqining quyuuq ekstrakti
- 3) arslonquyuqning suyuq ekstrakti
- 4) qalampir yalpiz suvi
- 5) valeriananing efirli nastoykasi
- 6) kuchalaning quruq ekstrakti
- 7) qumloq bo'znochning ekstrakti
- 8) qumloq bo'znochning suyuq ekstrakti.

5. Quyidagi so'zlarning sinonimlarini toping.

Durus, aquosus, suillus, laxativus, hypnoticus, flavus, liquidus.

6. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Tinctura Rhei amara.
2. Extractum Frangulae fluidum.
3. Extractum Althaeae siccum.
4. Extractum Belladonnae spissum.
5. Infusum Sennae compositum.
6. Extractum Absinthii spissum.
7. Tabulettae Thyreoidini obductae.
8. Linimentum Olei Terebinthinae compositum.
9. Extractum Urticae fluidum.
10. Oleum Menthae piperitae.

7. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Infusi Sennae compositi 30 ml

Da.

Signa: Bir marta qabul qilishga (kattalar uchun)

2. Recipe: Extracti Crataegi fluidi 30 ml

Da.

Signa: Bir qabulga 20 tomchidan ichilsin.

8. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Chayono'tning suyuq ekstrakti

Bo'y madoronning suyuq ekstraktidan teng miqdorda
25ml

Mentol 0,05

Aralashtir.

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 25 tomchidan ichilsin.

2. Ol: Aloyning suyuq ekstrakti 1 ml

Shunday dozalarda 10(son)ta ampulalarda ber.

Belgila: Teri ostiga 1 ml dan yuborilsin.

9. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Remedia sunt cardiaca, analgetica, hypnotica, diuretica, cholagoga et cetera.
2. Tinctura Convallariae est remedium cardiacum.
3. Folium Sennae et Oleum Ricini sunt remedia laxativa.
4. Analginum est remedium analgeticum.
5. Luminalum

est remedium hypnoticum. 6.Extractum Helichrysi arenarii fluidum est remedium cholagogum. 7.Decoctum foliorum Uvae ursi est remedium diureticum. 8.Tempalginum, Baralginum, Promedolum et cetera remediis analgeticis annumerantur (sanaladi).

Uyga vazifa

I.«Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida sifatlarning qo'llanilishi. Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlaridagi modellar. Dori vositalarining farmakologik ta'siri boyicha guruh nomlanishi» mavzularini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida o'zlashtirgan bilimlaringizni tekshirib ko'ring:

1. Dorivor preparatlarning ko'p bo'lakli nomlarida sifat nechanchi o'rinda va qanday aniqlovchi holida turadi?

2. Agar sifat dorivor o'simlik nomiga tegishli bo'lsa unga qanday moslashadi?

3. Dori vositalarining farmakologik ta'siri boyicha guruh nomlanishi qanday hosil qilinadi?

II. 78-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Atamalarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1) shirinmiyaning quyuq ekstrakti

2) ravochning achchiq nastoykasi

3) gulxayrining quruq ekstrakti

4) qalampir yalpizning bargi

IV. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol:Qalampir yalpiz barglarining damlamasi 50,0 :200 ml dan
Ber.

Belgila: Har 3 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2.Ol:Arslonquyruqning suyuq ekstrakti 25 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Oestradiolum, Oestradiol dipropionate, Aethinyloestradiolum, Distanorm, Lutocyclin, Eticyclin, Progynon, Climakterin, Proginova, Synoestrolum, Retabolil, Dimoestrolum, Acetomepregenolum, Demulen, Diaethylstilboestrolum, Synthoestrin, Syntofollin, Sygethinum, Allylestrenol, Clomifene Citrate, Progesteronum, Syngestrone, Oxyprogesterone capronate, Praegninum, Lutocycol, Postinor, Divina, Methandrostenolonum, Norethistroni, Ovidon, Norcolut, Anteovin, Gestanyn, Non-Ovlon, Norgestrel, Lindiol, Regevidon, Minisiston, Microgynon, Femoden, Marvelon, Trisiston, Tri-Regol, Triquilar, Milvane, Microlut, Praegoestrolum, Climonorm, Testoenatum, solutio "Tetrasteronum" oleosa pro injectionibus, Methyltestosteronum, tabulettae "Testobromlecithum" obductae, Phenobolinum.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Qualis rex, talis grex.

Mol egasiga o'xshamasa, xarom o'ladi.

2. Amicitia magnium solatium in dolore.

Birlik oldida tog' egilar.

18- DARS

Mavzu: Farmatsevtik terminlar, tez-tez takrorlanadigan bo'laklar va retseptlarni tarjima qilish

1. Grammatik mavzularni takrorlang va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Otlar nechta rodga ega? Ularning lotincha nomini yozing.
2. Otlar nechta turlanishga ega? Ularning *Gen.Sing.* dagi qo'shimchalarini ayting.
3. Lug'atga otlar qanday yoziladi?
4. I turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
5. II turlanishdagi otlarga qaysi otlar kiradi?
6. Fe'lar nechta tuslanishga ega?
7. Fe'larning buyruq mayli birlikda qanday hosil qilinadi?
8. Fe'larning buyruq mayli ko'plikda qanday hosil qilinadi?
9. Qanday aniqlovchilarni bilasiz?
10. I-II turlanishdagi sifatlarga qaysi sifatlar kiradi?
11. I-II turlanishdagi sifatlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?
12. Lug'atga sifatlar qanday yoziladi?
13. II turlanish sredniy roddagi otlarga qaysi otlar kiradi ?
14. II turlanishdagi mujskoy roddagi otlarga qaysi otlar kiradi ?
15. II turlanishdagi jenskiy roddagi otlarga qaysi otlar kiradi ?
16. Dorivor preparatlar nomi qaysi rodga va qaysi turlanishga kiradi?
17. Lotin tilidagi otlar nechta songa bo'linadi? Ularning lotincha nomini ayting.
18. Otlarning turlanishi qanday aniqlanadi?
19. Moslashgan aniqlovchi qaysi so'z turkumi bilan ifodalanadi?

20. Moslashmagan aniqlovchi qaysi soʻz turkumi bilan ifodalanadi?
21. Retsept nechta qismdan iborat?
22. Retseptning lotincha qismi qaysi soʻz bilan boshlanadi ?
23. Retseptda dori moddalarining nomi qaysi kelishikda yoziladi ?
24. Qanday retseptlarni bilasiz ?
25. Dorivor preparatlar **Nom. Sing., Gen. Sing., Nom. Plur. va Gen. Plur.**da qanday qoʻshimchalarga ega?
26. I turlanishdagi otlar **Nom. Sing., Gen. Sing., Nom. Plur. va Gen. Plur.**da qanday qoʻshimchalarga ega?
27. II turlanishdagi mujskoy roddagi otlar **Nom. Sing., Gen. Sing., Nom. Plur. va Gen. Plur.**da qanday qoʻshimchalarga ega?
28. II turlanishdagi sredniy roddagi otlar **Nom. Sing., Gen. Sing., Nom. Plur. va Gen. Plur.**da qanday qoʻshimchalarga ega?
29. Dorivor vositalar nomenklaturasi deb nimaga aytiladi?
30. Dorivor vosita deb nimaga aytiladi?
31. Dorivor modda deganda nimani tushunasiz?
32. Dori shakli, dorivor preparatlar deb nimaga aytiladi?
33. Dorivor vositalar nomenklaturasini nechta tipik guruhga ajratish mumkin?
34. I, II, III, IV, V, VI tipik guruhlarga nimalarning nomlari kiradi?
35. I tipik guruh nechta otdan tashkil topadi va ular nimalarni nomini bildiradi? Otlarning kelishigini ayting.
36. II tipik guruh toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
37. Organik kimyoviy moddalarning ilmiy va trivial nomlari toʻgʻrisida nimalarni bilasiz?
38. Tez-tez takrorlanadigan boʻlaklar toʻgʻrisida aytib bering.
39. Dorivor preparatlarning koʻp boʻlakli nomlarida sifat nechanchi oʻrinda va qanday aniqlovchi holida turadi?
40. Murakkab dorivor preparatlar deganda nimani tushunasiz?
41. Murakkab dorivor preparatlar nomi qanday hosil qilinadi?

42. Retseptlarda tabletkalar va shamchalar nomi qanday yoziladi?

43. Savdo nomi deganda deganda nimani tushunasiz?

44. Savdo nomlarining kelib chiqish manbalarini ayting.

45. Savdo nomlarida soʻzlar qanday yasaladi?

46. Suffiksatsiya, prefiksatsiya va abbreviatsiya deganda nimani tushunasiz?

47. Dorivor preparatlarning trivial nomlari qanday talablarga mos kelishi kerak?

48. Dorivor preparatlarning trivial nomlari boʻyicha belgilangan toʻrtta talabni aytib bering.

49. Dorivor preparatlar nomlarining jahon sinonimiyasi deganda nimani tushunasiz?

50. Sinonimiyani kamaytirish uchun qanday ishlar amalga oshirilmoqda?

51. Dori moddalariga xalqaro nom berish ishlarini qaysi tashkilot amalga oshiradi?

52. XPN va INN; JSST va WHO abbreviaturalari nimani anglatadi?

2. Quyidagi otlarni birlik va koʻplikda, bosh va qaratqich kelishiklarda tarjima qiling. (Topshiriq jadval yordamida bajariladi.)


Namuna:

Nom.Sing.	Turl.	Rod	Gen.Sing.	Nom.Plur.	Gen.Plur.
pinus-qaragʻay	II	f	pini-qaragʻayning	pini- qaragʻaylar	pinorum-qaragʻaylarining


Habdori, suyuq surtma, qalam, moy, malham, kurtak, son, zahar, yelim, kraxmal, metal, qoʻziqorin, kapsula, shamcha, hujayra, vrach, vrachlik vositasi, tayoqcha, yer ustki qism, tomchi, sharcha, shira, qaynatma, granula, razavor meva, sharbat.

3. Quyidagi terminlarning shartli tasvirini tuzing va ularni *Nom.* va *Gen.* da lotin tiliga tarjima qiling.

Namuna:



Shartli tasviri :



Tarjimasi:

Nom. infusum Sennae compositum

Gen. infusi Sennae compositi

1. oq streptotsid
2. tashqi vosita
4. angishvonagul barglari
5. magnoliyaning suyuq ekstrakti
6. sanoning murakkab damlamasi
7. bo'znochning suyuq ekstrakti
8. qarag'ay kurtaklarining qaynatmasi
9. shaftoli moyining emulsiyasi
10. tetratsiklin surtmasi
11. chayono't barglarining damlamasi
12. kungaboqar moyining emulsiyasi
13. archa qubbalarining damlamasi
14. efedraning yer ustki qismi
15. ichki vosita

4. Sifatlarini otlarga moslashtiring va so'z iboralarini o'zbek tiliga tarjima qiling.

- | | |
|-------------------------------|------------------------------|
| 1. cera (albus,a,um) | 6. emulsum (oleosus, a,um) |
| 2. glycerinum (purus,a,um) | 7. tabuletta (obductus,a,um) |
| 3. succus (gastricus,a,um) | 8. bolus (albus,a,um) |
| 4. tinctura (amarus,a,um) | 9. extractum (spissus,a,um) |
| 5. capsula (gelatinosus,a,um) | 10. Amygdala (amarus,a,um) |

5 .Tez-tez takrorlanadigan bo'laklarni ajrating va ularning ahamiyatini ko'rsating.

Haematogenum, Trimethinum, Cordigen, Cefotaxinum, Laro Testoenatum, Polyvitaplex, Butaflogin, Virex, Penicillinatum, Fludrocortisonum, Allercur, Dekavit, Stanolon, Asvitolum, Perandren, Nicotensyl, Sulfacetamidum, Barucainidum, Cholevid, Androlin, Uritol, Corazolom, Agovirin, Cibalgina, Regutensin, Contalax, Dipidolor, Pabestrol, Angiotrophinum, Tensonal, Laboestrin, Agovirin, Iopagnostum, Sovcainum, Aprestinum, Sulfadimezinum.

6. Quyidagi retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Octoestroli 0,001
Da numero 20 in tabulettis.
Signa: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
2. Recipe: Cyclobarbitali 0,2
Da in tabulettis numero 10.
Signa: Kechasiga yarim tabletkadan qabul qilinsin.
3. Recipe: Extracti Sanguisorbae fluidi 30 ml
Da.
Signa: Kuniga 4 marta 40 tomchidan ichilsin.
4. Recipe: Infusi herbae Centaurii 10,0: 200 ml
Da.
Signa: Ovqatdan oldin 1 osh qoshiqdan ichilsin.

5. Recipe: Dragee Diazolini 0,05
Da tales doses numero 20.
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta donachadan ovqatdan keyin qabul qilinsin.
6. Recipe: Olei Ricini 20,0
Xeroformii 1,2
Misce. Da.
Signa: Surtmali bog'lamlar uchun.
7. *Quyidagi retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.*
1. Ol: Frangulaning suyuq ekstrakti 50 ml
Ber.
Belgila: 1 martaga 20 tomchidan ichilsin.
2. Ol: Fenobarbital tabletkalari 0,1 6(son) ta
Ber.
Belgila: Kechasiga
3. Ol: Kanakunjut moyi 10,0
Jelatinli kapsulalarda ber.
Belgila: Har yarim soatda qabul qilinsin.
4. Ol: Kokarboksilasa 0,05
Ampulalarda 10(son) ta ber.
Belgila: Kuniga 1-2 marta mushaklar orasiga yuborilsin.
5. Ol: Dietilstilbestrol
Tabletkalarda 20(son) ta ber.
Belgila: Kuniga 1 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
6. Ol: Korinfar 0,01
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1-2 ta drajedan qabul qilinsin.

Uyga vazifa

Yakuniy baholashga tayyorlaning!

19- DARS

Mavzu: Botanik nomenklaturada sifatlarning ishlatilishi

79-§. Botanik nomenklaturada sifatlarning ishlatilishi

Botanik nomenklaturada sifatlarning o'simlik turini va botanik oilani bildirish uchun ishlatiladi. O'simlik turini bildiradigan sifatlarning ularning geografik tarqalishini; o'sish sharoitini; tashqi ko'rinishini va boshqa xususiyatlarini ifodalaydi.

Sifatlarning o'simlik nomiga kelishikda, rodga va sonda moslashib keladi.

Masalan: *Atropa caucasica* – Kavkaz belladonnasi

Lekin ba'zi bir o'simlik nomi bilan birgalikda keladigan sifat unga rodga moslashmaydi.

Masalan: *Polygonum bistorta* – ilonsimon toron

Botanik oilalar nomini ko'rsatuvchi sifatlarning *-ferae, -ae, -aceae* qo'shimchalari yordamida yasaladi. Ular jenskiy rodga bosh kelishik va ko'plik sonda bo'ladi.

Masalan: Fabaceae – dukkakdoshlar

Cruciferae – butguldoshlar

80 -§.Quyidagi botanik oilalar nomini yod oling!

Berberidaceae – zirkdoshlar

Cucurbitaceae – qovoqdoshlar

Fabaceae – dukkakdoshlar

Liliaceae – lolaguldoshlar

Linaceae – zig'irdoshlar

Magnoliaceae – magnoliyadoshlar

Malvaceae – gulxayridoshlar

Papaveraceae – ko'knoridoshlar

Pinaceae – qarag'aydoshlar

Polygonaceae – torondoshlar

Rosaceae – ra'noguldoshlar

Urticaceae – gazandadoshlar

81-§. Jadval bilan tanishib chiqing va o'simliklar nomini yod oling!

Xarakterli belgisi	Misollar
1.Geografik tarqalishi	<p><i>Atropa caucasica</i> – Kavkaz belladonnasi <i>Periploca graeca</i> – Gretsiya periplokasi <i>Laminaria japonica</i> – Yapon laminariyasi <i>Acotinum karakolicum</i> – Qorako'l parpisi <i>Schizandra chinensis</i> – Xitoy limonnigi</p>
2. O'sish sharoiti	<p><i>Arnica montana</i> – tog' arnikasi <i>Gnaphalium uliginosum</i> – botqoq gnafaliumi <i>Scilla maritima</i> – dengiz piyozi</p>
3.Tuzilishi,tashqi ko'rinishi, rangi, ta'mi va boshqa xususiyatlari	<p><i>Cassia acutifolia</i> – o'tkir bargli sano <i>Magnolia grandiflora</i> – yirik gulli magnoliya <i>Hypericum perforatum</i> – teshik dalachoy <i>Vinca erecta</i> – tik o'suvchi bo'rigul <i>Glycyrrhiza glabra</i> – tuksiz qizilmiya <i>Delphinium confusum</i> – chalkashgan isparak <i>Thalictrum minus</i> – kichik sanchiqo't <i>Gentiana lutea</i> – sariq nufar <i>Polemonium coeruleum</i> – zangori polemonium <i>Veratrum album</i> – oq maralquloq <i>Passiflora incarnata</i> – to'q qizil passiflora</p>
4. Boshqa o'simliklarga o'xshashligi	<p><i>Vesnaga daucoides</i> – sabzisimon visnaga <i>Apocynum cannabinum</i> – nashasimon kendir</p>

Mashqlar

1. -aceae qo'shimchasi yordamida botanik oilalarning nomini yozing.

araliyadoshlar, zig'irdoshlar, valerianadoshlar, jo'kadoshlar, likopodiyadoshlar.

2. Sifatlarni otlarga moslashtiring va terminlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Glaucium (flavus, a, um)
2. Strephania (glaber, bra, brum)
3. Helichrysum (arenarius, a, um)
4. Helleborus (caucasicus, a, um)
5. Aloë (striatulus, a, um – yo'l-yo'l).

3. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Capsicum annum. 2. Eucalyptus cinerea. 3. Helichrysum arenarium. 4. Hyoscyamus niger. 5. Rhamnus cathartica. 6. Gentiana lutea. 7. Veratrum album.

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) qora mingdevona
- 2) arman gulxayrisi
- 3) kavkaz xelleborusi
- 4) yuraksim on jo'ka
- 5) kulrang evkalipt
- 6) qumloq bo'znochining quruq ekstrakti
- 7) qalampir yalpiz
- 8) yirik gulli magnoliyaning suyuq ekstrakti

5. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Lanolinum anhydricum in chloroformio bene solvitur.
2. Allocholum extractum Urticae siccum et extractum Allii sativi siccum continet. 3. Capsulas gelatinosas ex gelatina, aqua, glycerino praeparant. 4. Emplastrum Plumbi compositum in ollis datur. 5. Linimentum chloroformii compositum chloroformium et oleum Hyoscyami continet.

6. Berilgan kataklarda hikmat yashiringan. Quyidagi so'zlarning antonimlarini topib, kataklarni to'ldiring, keyin

raqamlar bo'yicha harflarni kataklarga yozing va hikmatni o'qing.

1) externus 9) internus 17) venenum 26) simplex 36) hydricus

1	2	3	4	5	6	7	8		
9	10	11	12	13	14	15	16		
17	18	19	20	21	22	23	24	25	
26	27	28	29	30	31	32	33	34	35
36	37	38	39	40	41	42	43	44	45

25	4	14	8		31	17	2	17		1	2		26	27	5	29	30	13	12		45	17	18	27
----	---	----	---	--	----	----	---	----	--	---	---	--	----	----	---	----	----	----	----	--	----	----	----	----

7. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Infusi herbae Hyperici perforati 20,0-200 ml

Da.

Signa: 1 kunda 3 marta ovqatdan oldin ichilsin.

2. Recipe: Extracti Passiflorae incarnatae fluidi 40 ml

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

3. Recipe: Extracti Sanguisorbae fluidi 30 ml

Da.

Signa: Kuniga 4 marta 40 tomchidan ichilsin.

4. Recipe: Suppositoria cum Digitoxino 0,00015 numero 10

Da.

Signa: Kuniga 1 marta 1 ta shamchadan qo'yilsin.

8. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Arslonquyruqning suyuq ekstrakti 25ml

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

2. Ol: Qalampir yalpiz barglarining damlamasi 50,0 ; 200 ml.dan

Ber.

Belgila: Har 3 soatda 1 osh qoshiqdan ichilsin.

3.Ol:Levzeyaning suyuq ekstrakti

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 20 tomchidan ichilsin.

Uyga vazifa

I.«Botanik nomenklaturada sifatlarning ishlatilishi» mavzusini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Botanik nomenklaturada sifatlarni nimalarni bildiradi?
2. O'simlik turini bildiradigan sifatlarni nimalarni ifodalaydi?
3. Botanik oilalar nomlari qanday qo'shimchalar yordamida yasaladi?

II. 80,81-§lardagi so'z va so'z iboralarini yod oling.

III. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) to'q qizil passifloraning suyuq ekstrakti
- 2) teshik dalachoyning yer ustki qismi
- 3) gnafalium yer ustki qismining damlamasi

IV. Retseptlarni tarjima qiling.

1.Recipe:Extracti Passiflorae fluidi 30 ml

Da.

Signa:Kuniga 3 marta 30 tomchidan ichilsin.

2. Ol:Qalampir yalpiz nastoykasi 25 ml.

Ber.

Belgila: Bir marta qabulga 15 tomchidan ichilsin.

V. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Oleum jecoris depuratum pro usum interno, oleum jecoris Aselli vitaminisatus, Acitretin, Isotretinoine, Carotin, Thiaminum, Thiamini bromidum, faex medicinalis, Serevisiae fermentum siccum depuratum, solutio "Thiodinum", Phosphothiaminum, Cocarboxylasum, Benphothiaminum, Acidum folicum, Riboflavinum, Riboflavinum-mononucleotidum, Flavinatum, Pyridoxinum, Pyridoxini hydrochloridum, Pyridoxalphosphatum, Cyanocobalaminum, Oxycobalaminum, Cabamamidum, Vitohepatum, Calcium folinate, Acidum ascorbinicum, sirupus ex fructibus Rosae, Galascorbinum, Rutinum, Quercetinum, Acidum

nicotinicum, Nicotinamidum, Calcium pantothenate, Panthenol, Tocopheroli acetate, Profecundin, Phytomenadionum, Cholecalciferolum, Vigantol, Oxidevitum, Misoprostol, Artrotec, Latanoprost, Videcholum, Calcitriol, Alphacalcidol, Calcipotriol, Methylmethioninsulfonii chloridum, Calcii pangamas, Cholini chloridum, Acidum lipoicum, Lipamidum, Carotini, Vikasolum, Ergocalciferolum.

VI. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Gutta cavat lapidem non vi, sed saepe cadendo.
Tomchi kuchi bilan emas, tez tushishi bilan tosh teshar.
2. Omnium artium medicina nobilissima est.
Tibbiyot san'atlar ichida eng olijanobidir.
3. Nulla aetas ad discendum sera.
Ilmning kechi bo'lmaydi.

20-DARS

Mavzu: Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomida sifatlarining ishlatilishi

82-§. Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomida sifatlarining ishlatilishi

Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomidagi sifatlar tegishli kasalliklarning nomlariga *-icum* va *-osum* suffikslarini qoʻshib hosil qilinadi.

Masalan: *vaccinum brucellicum* – qora oqsoq(brutsellyoz)ga oid vaksina

serum antigangraenosum – gangrenaga qarshi zardob

anatoxinum tetanicum – qoqsholga qarshi anatoksin

Vaksina, zardob va anatoksinlar nomlarida quyidagi aniqlovchilar qoʻllaniladi:

purificatus, a, um – tozalangan

concentratus, a, um – konsentratsiya qilingan

vivus, a, um – tirik

siccus, a, um – quruq

adsorptus, a, um – adsorbsiya qilingan

Masalan: *serum antigangraenosum* (*purificatum concentratum*)

vaccinum brucellicum vivum (siccum)

anatoxinum diphtherico – tetanicum (purificatum)

Eslatma: Vaksinalarning moslashmagan aniqlovchi yordamida hosil qilingan nomlari ham uchraydi.

Masalan: *vaccinum variolae* – chechak vaksinasi (*variola*, ae, f – chechak kasalligi).

83- § Quyidagi sifatlarini yod oling!

brucellicus, a, um – qora oqsoq (brutsellez)ga oid

cholericus, a, um – vaboga oid

pertussicus, a, um – koʻkkyoʻtalga oid

antipestosus, a, um – oʻlatga qarshi

antirabicus, a, um – quturishga qarshi

antituberculosicus, a, um – sil (tuberkulyoz) ga qarshi
antidiphthericus, a, um – bo‘g‘maga qarshi
antigangraenosus, a, um – gangrenaga qarshi
antitetanicus, a, um – qoqshol (stolbnyak) ga qarshi
sulfuratus, a, um – oltingugurtli
ammoniatu, a, um – ammiakli
camphoratus, a, um – kamforali
anisatus, a, um – arpabodiyonli
ceratus, a, um – mumlangan
naphthalanatus, a, um – naftalanli
paraffinatus, a, um – parafin bilan qoplangan
adhaesivus, a, um – yopishqoq
vesicatorius, a, um – chipqonga qo‘yiladigan
collagenicus, a, um – kollagenli
isotonicus, a, um – izotonik
crystallisatus, a, um – kristall...
medicatus, a, um – tibbiy (tibbiyot) –i,(-si)
gastricus, a, um – oshqozon –i,(-si)
stomachicus, a, um – oshqozon –i,(-si)
ophthalmicus, a, um – ko‘z –i,(-si)

Mashq

1. O‘zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) serum antidiphthericum (purificatum concentratum)
- 2) anatoxinum staphylococcicum
- 3) vaccinum cholericum (purificatum concentratum)
- 4) vaccinum cholericum (siccum)
- 5) vaccinum pertussico – diphtherico-tetanicum
- 6) serum antitetanicum (purificatum concentratum).

2. Sifatlarini otlarga moslashtiring va terminlarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

- 1) remedium (haemostaticus, a, m)
- 2) linimentum (ammoniatu, a, um)
- 3) charta (ceratus, a, um)
- 4) emplastrum (adhaesivus, a, um)
- 5) succus (gastricus, a, um)

6) capsula (gelatinosus a um; elasticus, a, um).

3. Lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) silga qarshi zardob
- 2) quturishga qarshi vaksina
- 3) o'latga qarshi vaksina
- 4) gangrenaga qarshi zardob
- 5) silga qarshi BSJ vaksinasi
- 6) qoqsholga qarshi zardob
- 7) vaboga oid vaksina
- 8) ko'kyo'talga oid vaksina

4. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) kamforali moy
- 2) ro'yanning quyuq ekstrakti
- 3) naftalanli surtma
- 4) aloyning quyuq ekstrakti
- 5) chipqonga qo'yiladigan malham
- 6) tetratsiklinning ko'z surtmasi
- 7) kristal yod
- 8) qon to'xtatuvchi gubka
- 9) parafin bilan qoplangan qog'oz
- 10) ko'z tomchilari

5. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

- 1.Ol:Bo'g'maga qarshi zardobdan (tozalangan konsentratsiya qilingan)10000 AYe
Shunday dozalarda 6(son)ta ampulada ber.
Belgila:
- 2.Ol:Polivaksina 10 ml
Ber.
Belgila: Teri ostiga 2 ml.dan yuborilsin.
- 3.Ol Qumloq bo'znochning quruq ekstrakti 1,0
Shunday dozalarda 42(son)ta ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1ta kukundan qabul qilinsin.
- 4.Ol:Oshqozon shirasi 100,0
Ber.
Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ovqat

mahalida ichilsin.

5.OI:Tetratsiklinning ko'z surtmasi 10,0

Ber.

Belgila: Ko'z surtmasi.

6.OI:Streptotsidning suyuq surtmasi 5% 40,0

Ammiakli suyuq surtma 40,0

Aralashtir. Ber.

Belgila: Uqalash uchun.

6.O'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Tabulettae stomachicae cum extracto Belladonnae. 2. Acida concentrata et diluta sunt. 3.Ex herba Millefolii exsiccata infusum praeparatur. 4.Hydrargyrum praecipitatum album remedium antisepticum externum est. 5.Praeparate unguentum ex Hydrargyro praecipitato albo Vaselino et Lanolino anhydrico. 6. Da puero tabulettas Tetracyclini obductas.

Uyga vazifa

I.«Vaksinalar, zardoblar va anatoksinlar nomida sifatlarning ishlatilishi» mavzusini o'zlashtirib oling. Quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni tekshirib ko'ring.

1. Vaksina, zardob va anatoksinlar nomidagi sifatlar qanday hosil qilinadi?

2.Vaksina, zardob va anatoksinlar nomlarida qanday aniqlovchilar ishlatiladi?

II. 83-§ dagi so'zlarni yod oling.

III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi o'zbekcha ekvivalentlarini toping.

- | | |
|----------------------------|---------------------------|
| 1) cholericus, a, um | a) arpabodiyonli |
| 2) pertussicus, a, um | b) mumlangan |
| 3) anisatus, a, um | c) ko'kyo'talga oid |
| 4) ceratus, a, um | d) vaboga oid |
| 5) sulfuratus, a,m | e) oltingugurtli |
| 6) gastricus, a, um | f) chipqonga qo'yiladigan |
| 7) vesicatorius, a, um | g) o'latga qarshi |
| 8) adhaesivus, a, um | h) bo'g'maga qarshi |
| 9) antidiphthericus, a, um | i) oshqozon -i, (-si) |

10) antipestosus, a, um j) yopishqoq

IV. Terminlarning shartli tasvirini tuzib, Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

- 1) oshqozon shirasi
- 2) jelatinli gubka
- 3) kamforali surtma
- 4) bo'g'maga qarshi zardob

V. Retseptlarni tarjima qiling.

1.Ol:Suyuq gematogen

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan qabul qilinsin.

2. Ol: oqsholga qarshi zardob 3000 AYe

2 (son)ta ampulalarda ber.

Belgila: Vrachning qo'liga berilsin.

3.Ol:Valokormid 30 ml

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 10-20 tomchidan qabul qilinsin.

4.Ol:Bio tabletkalari 50 (son) ta

Ber.

Belgila:Kuniga 3 marta 4 ta tabletkadan ovqat paytida qabul qilinsin.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Aevitum, Pentovitum, Panhexavitum, Heptavitum, Decamevitum, tabulettae "Aërovitum" obductae, Tetravitum, dragee "Hexavitum", Chymotrypsinum crystallisatum, dragee "Undevitum", tabulettae "Tetrafolevitum" obductae, dragee "Hendevitum", Amitetravitum, tabulettae "Quadevitum" obductae, Glutamevitum, Complivitum, Aecolum, oleum Rosae, oleum ex fructibus et foliis Hippophaës, Olasolum, membranula "Oblecolum", Hiposolum, fructus Sorbi aucupariae, Trypsinum, num, Chymopsinum, Terrilytinum, Terridecasum, Ribonucleasum amorphum, Asperasa, Desoxyribonucleasum, Collagenasum, Lysoamidasa, Profezimum, Caripazinum, Pepsinum, succus gastricus naturalis, Festal, tabulettae Acidin-pepsini, Pepsidilum, Abominum, Pancreatinum, Orazum, Solizyimum, Somilasum, Nigedaza, Panzynorm forte, Pancurmen, Ingitrilum, Acidum

glutaminicum, Digestal, Enzystal, Mezymb forte, Lydazum, Ronidazum, Cytochromum C, Penicillinasum, Pantrypinum, Contrykal, Gordox.

VII. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Non omne, quod nitet, aurum est.

Yaltiroq narsalar oltin bo'lavermaydi.

2. Homines dum docent, discent.

Odamlar o'rgatib, o'rganadilar.

3. Aquila non captat muscas.

Burgut pashsha tutmaydi.

21- DARS

Mavzu: Majhullik nisbatidagi o'tgan zamon sifatdoshi

84-§. Majhullik nisbatidagi o'tgan zamon sifatdoshi

Lotin farmatsevtika terminologiyasida ko'pincha majhullik nisbatidagi o'tgan zamon sifatdoshi qo'llaniladi. Ular fe'llardan tashkil topib, mujskoy rodde *-us*, jenskiy rodde *-a*, sredniy rodde esa *-um* qo'shimchasiga ega bo'ladi.

Sifatdoshlar I–II turlanishdagi sifatlarga o'hshab turlanadi va otlarga rodde, sonda, kelishikda moslashadi.

Masalan: distillangan suv –

Nom. aqua destillata

Gen. aquae destillatae.

84-§. Quyidagi sifatdoshlarni yod oling!

destillatus, a, um – distillangan

depuratus, a, um – tozalangan

rectificatus a, um – tozalangan (etil spirti, skipidar)

purificatus, a, um – tozalangan (vaktsina, zardob va anatoksinlar)

exsiccatus, a, um – quritilgan

praecipitatus, a, um – cho'ktirilgan

pulveratus, a, um – kukunga aylantirilgan

concisus, a, um – maydalangan, kesilgan, qirqilgan

sterilisatus, a, um – sterilizatsiya qilingan

contusus, a, um – tuyilgan, yanchilgan

reductus, a, um – qaytarilgan

ustus, a, um – olovda kuydirilgan

tritus, a, um – ishqalab maydalangan

concentratus, a, um – kontsentratsiya qilingan,
kontsentrlangan

dilutus, a, um – suyultirilgan

conservatus, a, um – konservatsiya qilingan

obductus, a, um – po'st bilan qoplangan

activatus, a, um – faollashtirilgan
vitaminisatus, a, um – vitaminlashtirilgan
solutus, a, um- eritilgan

Mashqlar

1. *Quyidagi sifatdoshlarning qaysi fe'llardan tashkil topganligini aniqlang.*

- | | |
|-----------------------|------------------------|
| 1) filtratus, a, um | 5) conservatus, a, um |
| 2) destillatus, a, um | 6) obductus, a, um |
| 3) contusus, a, um | 7) sterilisatus, a, um |
| 4) dilutus, a, um | 8) depuratus, a, um |

2. *Sifatdoshlarni otlarga moslashtiring. So'z iboralarini o'zbek tiliga tarjima qiling.*

- 1) camphora (tritrus, a,um)
- 2) herba Millefolii (exsiccatu, a,um)
- 3) aqua (destillatus, a,um)
- 4) chole (conservatus, a,um)
- 5) acidum (dilutus, a,um)
- 6) serum (purificatus, a,um)
- 7) folia (concisus, a,um)
- 8) Oleum Terebinthinae (rectificatus, a,um)
- 9) Ferrum (reductus, a,um)
- 10) Hydrargyrum (praecipitatus, a,um).

3. *Quyidagi terminlarni Nom. va Gen. ga lotin tiliga tarjima qiling.*

- 1) kontsentrlangan kislota
- 2) olovda kuydirilgan magneziya
- 3) po'st bilan qoplangan tabletkalar
- 4) konservatsiya qilingan oshqozon shirasi
- 5) qirqilgan quritilgan barglar
- 6) sterilizatsiya qilingan oq gil (tuproq)
- 7) konservatsiya qilingan tibbiyot safrosi
- 8) tozalangan vaksina

4. *Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.*

1. Recipe: Tabulettas Dimecolini 0,025 obductas numero 50.

Da.

- Signa: Kuniga 2 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
- 2 Recipe: Tabulettas Ferri reducti obductas 0,2 numero 20.
Da.
Signa: Kuniga 3 marta 1 ta tabletkadan qabul qilinsin.
3. Recipe: Camphorae tritae 2,0
Tincturae Valerianae 20 ml
Misc. Da.
Signa: Kuniga 2 marta 20 tomchidan ichilsin.
4. Recipe: Olei Terebinthinae rectificati 10 ml
Da.
Signa: Istakan issiq suvga 10 – 15 tomchi solib, ingalyatsiya qilinsin.
5. Recipe: Unguenti Ichthyoli 10% 25,0
Da.
Signa: Surtma
6. Recipe: Phenoli puri 0,5
Glycerini 10,0
Misc.
Da.
Signa: Iliq holda 5 tomchidan quloqqa tomizilsin.

5. Retseptlarni lotin tiliga tarjima qiling.

1. Ol: Xinozol 0,2
Distillangan suv 200 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: Jarohatlangan joyni yuvish uchun.
2. Ol: Protargol 0,5
Glitserin 3,0
Distillangan suv 30 ml. gacha
Aralashtir. Ber.
Belgila: Purkab yuvish uchun.
3. Ol: Novokain 0,5
Distillangan suv 200 ml
Aralashtir. Ber.
Belgila: 1 osh qoshiqdan ichilsin.

4.Ol:Valeriana ekstraktining po'st bilan qoplangan
tabletkalari 0,02 50(son)ta

Ber.

Belgila: Kuniga 3 marta 2 ta tabletkadan qabul qilinsin.

5.Ol:Kuydirilgan magneziya 20,0

Distillangan suv 120 ml

Aralashtir. Ber.

Belgila: Kislotadan zaharlanganda har 10 minutda 1 osh
qoshiqdan qabul qilinsin.

6. O'zbek tiliga tarjima qiling.

1.Tabulettae stomachicae cum extracto Belladonnae.2.Acida
concentrata et diluta sunt. 3.Ex herba Millefolii exsiccata infusum
praeparatur. 4.Hydrargyrum praecipitatum album remedium
antisepticum externum est.5. Praeparate unguentum ex
Hydrargyro praecipitato albo, Vaselino et Lanolino anhydrico. 6.
Da puero tabulettas Tetracyclini obductas.

Uyga vazifa

***I.«Majhullik nisbatidagi o'tgan zamon sifatdoshi» mavzusini
o'zlashtirib oling va quyidagi savollar yordamida bilimlaringizni
tekshirib ko'ring.***

1.O'tgan zamon sifatdoshi qaysi so'z turkumidan tashkil
topadi?

2. Sifatdoshlar qanday qo'shimchalarga ega?

3. Sifatdoshlar kelishiklar bo'yicha qanday turlanadi?

II. 84-§ dagi so'zlarni yod oling.

***III. Chap ustundagi lotincha so'zlarning o'ng ustundagi
o'zbekcha ekvivalentlarini toping.***

1) concisus, a,um

a) tuyilgan, yanchilgan

2) reductus, a, um

b) ishqalab maydalangan

3) tritus, a,um

c) tozalangan

4) dilutus, a, um

d) quritilgan

5) obductus, a, um

e) maydalangan, kesilgan

6) contusus, a, um

f) kukunga aylantirilgan

7) exsiccatus, a, um

g) qaytarilgan

8) pulveratus, a, um

h) po'st bilan qoplangan

9) depuratus, a, um i) cho'ktirilgan

10) praecipitatus, a, um j) suyultirilgan

IV. Nom. va Gen. da lotin tiliga tarjima qiling.

1. aloyning po'st bilan qoplangan tabletkalari

2. qirqilgan barglar

3. distillangan suv

V. Retseptlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Recipe: Emulsi oleosi 100,0

Camphorae 1,0

Olei Menthae piperitae gtt. V

Misce. Da.

Signa: Kuniga 2 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

2. Recipe: Extracti Aloës fluidi 1 ml

Da tales doses numero 10 in ampullis

Signa: Teri ostiga 1 ml.dan yuborilsin.

3. Recipe: Mentholi 0,5

Olei Amygdalarum 200,0

Aquae destillatae 120,0

Misce, ut fiat emulsum.

Da.

Signa: Kuniga 3 marta 1 osh qoshiqdan ichilsin.

VI. To'g'ri o'qishni o'rganing!

Calcii glutaminas, Methioninum, Histidinum, Glucinum, Cysteinum, Vamin, Viceinum, Taufonum, Cerebrolysinum, Hydrolysin, Fibrinosolum, Polyferum, Hydrolysatum Caseini, Aminotrophum, Aminocrovinum, Infusaminum, Calcii lactas, Polyaminum, Vaminolact, solutio «Trisolum», Aminosteril, Nephramin, Lipofundinum, solutio «Lactasolum», tabulettae Petrovi, Rheopolyglucinum, Rheopolyglucinum cum Glucoso, Rondex, Haemodesum, Rheomacrodex, Neohaemodesum, Gluconeodesum, Enterodesum, Lacrisyn, Gelatinolum, Volecamum, Lactoproteinum, solutio Natrii chloridi isotonica pro injectionibus, solutio Natrii chloridi composita, solutio Ringer – Locke, solutio «Disolum», solutio «Acesolum», solutio «Chlosum», solutio «Quartasolum», Sanasolum, tabulettae «Glucosolanum», Citraglucosolanum, Kalium – normin, solutio

Polyvinylpyrrolidoni pro injectionibus, Natrii hydrocarbonas, Trisaminum, Pehanorm, Trometamol, Dimephosphonum, Acidum hydrochloricum, Hylac, Calcii chloridum, Calcii gluconas, Fosamax, Alendronat Sodium, Etidronate Sodium, Osteogenon, Osteochin, Kalii chloridum, Kalipoz prolongatum.

VII. Quyidagi maqollarni yod oling!

1. Repetitio est mater studiorum.
Takrorlash o'qishning onasidir.
2. Ut quisque est doctissimus, ita est modestissimus.
Kim aqlli bo'lsa, u kamtarin hamdir.
3. Optimum medicamentum quies est.
Osoyishtalik eng yaxshi doridir.

Mavzu: VI tipik guruh. Kimyoviy nomenklatura. Kimyoviy elementlar, kislotalar va oksidlarning lotincha nomlari

85 -§. Kimyoviy nomenklatura

Tarkibida kimyoviy birikmalari (oksidlar, kislotalar, tuzlar, va boshqalar) bo'lgan retseptlarni yozish jarayonida shifokor ularning kimyoviy belgilarini yoki sistemetik nomlanishlarini emas, balki kimyoviy birikmalarning xalqaro qoidalarga binoan tuzilgan tizimli yoki trivial nomlanishlarini yozadi.

Tizimli nomlanishlar birikma tuzilishini ifodalash uchun maxsus tuzilgan yoki tanlangan so'zlardan iborat. Bu nomlanishlar juda uzun. Shuning uchun retseptlarda, farmakopeyada, axborotnomalarda kimyoviy moddalardan iborat bo'lgan dorivor vositalarining yarim tizimli yoki trivial nomlari qo'llaniladi. Yarim tizimli nomlanishlar an'anaviy nomlar bo'lib, bu nomlarda ayrim bo'g'inlar yoki bo'laklar tizim ma'nosida qo'llaniladi. *Masalan:* fosfat kislota, rux sulfat.

Kimyoviy nomenklaturada trivial nomlanishlar ham keng qo'llaniladi.

Yarim tizimli nomlanishlarni shifokor tomonidan yozishda, yoki farmatsevt tomonidan o'qishda ikkita harf xatosi bemor uchun xavfli asoratlarga olib kelishi mumkin.

Masalan: Barii sulfas – bariy sulfat (ichdan qo'llash uchun vosita) o'rniga Barii sulfidum- bariy sulfid (sirtidan qo'llash uchun vosita) yozilsa yoki o'qilsa bemor zahar qabul qilgan bo'ladi.

86 -§. Kimyoviy elementlarning lotincha nomi

Kimyoviy elementlarning nomi ikkinchi turlanish sredniy roddagi otlar bo'lib, **Nominativus Singularisda -um, Genetivus Singularisda -i** qo'shimchaga ega. Faqat quyidagilar bu qoidadan mustasno:

Phosphorus, i, m – mujskoy rod
Sulfur, sulfuris, n – III turlanish.

87 -§.Quyidagi kimyoviy elementlarning nomini
yod oling!

Belgisi	Lotincha nomi	O'zbekcha nomi
Al	Aluminium,i,n	aluminium
Ag	Argentum,i,n	kumush
As	Arsenicum,i,n	margimush
Au	Aurum,i,n	oltin
Ba	Barium,i,n	bariy
Bi	Bismuthum,i,n	vismut
B	Borum,i,n	bor
Br	Bromum,i,n	brom
Ca	Calcium,i,n	kalsiy
C	Carboneum,i,n	uglerod
Cl	Chlorum,i,n	xlor
Cu	Cuprum,i,n	mis
